



HARVARD
DataVERSE

Volume 2 Issue 3
May 2024

ISSN: 2992-8877



Innovation Science and Research

International scientific journal



zenodo



IWORLD
JOURNALS

www.sciencejournal.uz

**International Scientific Journal
INNOVATION
SCIENCE AND RESEARCH
Volume 2 Issue 3
May 2024**



SCIENCEJOURNAL.UZ

**International Scientific Journal INNOVATION SCIENCE AND
RESEARCH.** volume 2 issue 3 – 129p.

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.

© Innovation Science and Research

© Authors



Editorial	
Editor in chief Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich	Bosh muharrir Jurayev Ziyovuddin Muhibdinovich
Preparing for publishing Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna	Nashrga tayyorlovchi Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna
MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD	
<p>Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich <i>Doctoral student (DSc) of the department "Study of Islamic Studies and Islamic Civilization ICESCO" of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Faculty of Islamic Studies and International Relations</i></p> <p>Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna <i>Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi, candidate of philological Sciences</i></p> <p>Artikova Nargiza Shuxratovna <i>Teacher of the Department of theory of Primary Education at Chirchik State Pedagogical University</i></p> <p>Koziev Umidjon Yandashalievich <i>Head of the Department of Uzbek linguistics, PhD, Associate Professor member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"</i></p> <p>Dilfuza Jalolova <i>Candidate of Medical Sciences, Associate Professor of Samarkand State Medical University.</i></p> <p>Umarova Maxliyo Yunusovna <i>Uzbekistan State University of world languages, candidate of philosophical Sciences, Associate Professor</i></p> <p>Arslanov Sharafutdin Sultanovich <i>doctor of chemical sciences, professor</i></p> <p>Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences</i></p> <p>Oripov Orolboy Ahmedovich <i>Navoi State Pedagogical Institute, PhD</i></p> <p>Fazliyeva Zebo Kamarbekovna <i>Uzbekistan State Academy of choreography, associate professor</i></p> <p>Artikov Askar Akbarovich <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department "theory and methodology of football" of the Uzbek State University of physical education and sports</i></p>	

Darvishov Ibroxim

Associate professor of the Department of Uzbek linguistics member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"

Sevara Nazarova

Philosophy Doctor on Agricultural sciences, Associate Professor of the Department of Soil Science of Bukhara State University.

БУХГАЛТЕРИЯ ХОДИМЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

Худайкулов Амир Меликулович

*Термиз Давлат университети бухгалтерия ҳисоби ва аудит
кафедраси ўқитувчиси*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11424325>

Annotation: this article provides information on the rights and obligations of accounting personnel.

Keywords: duties, rights and responsibility of the Chief Accountant of the bank, electronic payment documents, deposit and other accounts.

Аннотация: Ушбу мақолада бухгалтерия ходимларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари борасида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Банк бош бухгалтерининг вазифалари, ҳуқуқлари ва жавобгарлиги, электрон тўлов ҳужжатлари, депозит ва бошқа ҳисобварақлар.

КИРИШ (Introduction)

Банк бош бухгалтери банкда ҳисоб-операцион ишларни ташкил этади, банкнинг моддий намолиявий ресурсларининг тўла сақланишини таъминлайди. У банк раҳбари томонидан бош бухгалтер вазифасига тайинланади ва вазифасидан бўшатилади. Агар банкнинг юқори банк ташкилоти бўлса, юқори банк ташкилоти раҳбари, бухгалтерия ҳисоби бошқармаси бошлиғи билан келишилади ва Марказий банк бошқаруви қошидаги Комиссия тақдимотидан ўтказилади.

Ҳар бир банкда ходимларнинг лавозим вазифалари ишлаб чиқилган ва тасдиқланган бўлиши лозим. Банкнинг бош бухгалтери –Банк тизимининг бош бухгалтерлари тўғрисидаги|| Низом асосида иш олиб боради.

Банк бош бухгалтерининг вазифалари. Бош бухгалтер бухгалтерия ҳисобини банк ҳисоб сиёсатида ва бошқа қонун ҳужжатларида белгиланган қоидалар асосида ташкил этиб, қуйидаги вазифаларни бажаради:

- бухгалтерия ҳисоби ишларини замонавий техник воситалари ва ахборот технологиясидан фойдаланган ҳолда оқилона ташкил этилиши, бухгалтерия ҳисоби ҳисобваракларида банк операцияларини тўғри ва ҳаққоний акс эттирилиши ҳамда фойдаланувчилар учун ишончли молиявий ҳисботларни ўз вақтида тақдим қилиш;
- банкка келиб тушган пул ҳисоб-китоб ҳужжатлари бўйича операцияларнинг тегишли ҳисобваракларида акс эттирилиб, кунлик баланс тузилиши ва тегишли жойга топширилишини ташкил этиш;
- мижозларга ҳисобвараклар очиш ва ҳисобваракларни ёпиш;
- мижозлардан келиб тушадиган пул ҳисоб-китоб ҳужжатларининг шакли ва мазмuni бўйича тўғри расмийлаштирилиши ва улар бўйича операцияларни ўз вақтида ўтказилиши;
- ички банк операцияларининг қонуний бажарилишини ва улар

устидан мониторинг ўрнатиш, маблағ ва қимматликлар бут сақланиши;

- электрон тўлов хужжатларининг тўғри шакллантирилишини уларнинг асл нусхаси билан солишириш орқали текшириш;
- банк амалиёт кунини якунлаш ва кун охирига кунлик баланс тузиш;
- хужжатларининг асл ва электрон нусхаларини иш куни охиригача ёки кейингибанк иш куни эрталаб соат 10.00 дан кечиктирмасдан белгиланган тартибда тахланишини ва архивга топширишни таъминлаш;
- ўз тасарруфида бўлган банк филиаллари, шўба ва қарам хўжалик жамиятларининг бухгалтерия кўрсаткичлари бўйича белгиланган тартибда йиллик жамланган молиявий ҳисботлар;
- банк даромадлари ва харажатларини ҳисоблаш усулини қўллаган ҳолда Бош китоб ва ҳисботларда тўғри акс эттирилиши;
- бухгалтерия ҳисоби, ҳисботи, назорат ва иқтисодий таҳлил масалалари юзасидан ходимларга ўз вақтида йўл-йўриқлар кўрсатиш;
- иш ҳақи фондининг тўғри сарфланиши, мансаб маошларининг тўғри белгиланиши, штатлар, молия ва касса интизомига қатъий риоя этилишини таъминлаш.

Банк бош бухгалтерининг ҳуқуқлари. Банкнинг барча ҳисоб-операцион аппарат ходимлари бош бухгалтерга бўйсунадилар. Бош бухгалтер ҳисоб- операцион аппарат ходимлари учун мажбуриятлар белгилаб, ўз вазифаларини бажаришучун шарт-шароит яратади. Операцияларни бажариш ёки расмийлаштириш бўйича бухгалтернинг кўрсатмаларини бажариш барча банк ходимлари учун мажбурий ҳисобланади.

Бош бухгалтернинг кўрсатмаларини бажармаганлиги ёки нотўғри бажарганлиги учун мукофотдан бутунлай, қисман маҳрум бўлиши, алоҳида ҳолларда жиноий жавобгарликка тортилиш мумкин. Бундан ташқари, бош бухгалтер банк раҳбаридан бухгалтерия ҳисобини тўғри ташкил этиш бўйича чоралар кўришни талаб қилиш, кассаларда пул қабул қилиш, сақлаш, ишлатиш бўйича ўрнатилган қоидаларни тўғри бажариш устидан назорат қилиш, мукофотлар миқдорини қўпайтиришёки камайтириш бўйича таклифлар киритиш ҳуқуқига эга.

Моддий жавобгар шахсларни, кассир, омбор мудирини лавозимга тайинлаш, ишдан бўшатиш ва бошқа ишга ўтказиш масаласи ҳам бош бухгалтер билан келишиб ҳал қилинади. Ходимларга мансаб маошлари, иш ҳақига устамалар белгилашҳамда уларни мукофотлаш тўғрисидаги буйруқлар ва фармойишларни дастлаб бош бухгалтер кўриб чиқади ва уларга имзо чекади.

Банк бош бухгалтери қўйидаги ҳолларда жавобгардир:

- бухгалтерия ҳисобининг нотўғри олиб борилиш натижасида ҳисботларданотўғри маълумотлар берилшида;
- депозит ва бошқа ҳисобвараклар, дебиторлар ва кредиторлар бўйича нотўғри маълумотлар берилса, ҳисоб ишлари ўз вақтида олиб борилмаса;
- бухгалтерия ходимларининг айби билан нотўғри ҳисбот берилса;
- Марказий банкнинг меъёрий хужжатлари бўйича хатоликларга йўл

қўйилса;

— банк раҳбари билан тенг равища банкнинг молиявий, хўжалик фаолиятини ташкил қилишда қўпол хатоликка йўл қўйилса, жавобгар ҳисобланади.

Умуман, бош бухгалтерларнинг интизомий, моддий ва жиноий жавобгарлиги амалдаги қонунларга мувофиқ белгиланади.

Банк масъул ижрочиларининг вазифалари. Ҳисоб операцион аппаратининг асосий ходимлари – бу масъул ижрочилардир. Банк мижозларининг асосий ҳисоб-китоб ва бошқа операцияларининг ҳисобини юритиш, мижозлар билан мулоқотда бўлиши айнан масъул ижрочиларга юклатилган. Масъул ижрочилар қўйидаги вазифаларни бажаради:

- бириктириб қўйилган банк мижозлари ва ходимлардан қабул қилинган ҳисоб-китоб ва пул ҳужжатларига тегишли ишлов бериш;
- тақдим этилган ҳужжатлар бўйича пул ўтказиш ёки пул тўлаш мумкин ёки мумкин эмаслигини ҳисобварақлардаги пул маблағларининг етарлилиги асосида аниқлаш;
- келиб тушган барча ҳисоб-китоб ҳужжатларини операциялар қонунийлиги ҳамда уларнинг кредитлаш ва ҳисоб-китоб қилиш қоидаларига мувофиқлигини текшириш;
- аккредитив, чек, тўлов топшириғи, тўлов талабномаси, инкассо топшириғива бошқа ҳужжатларнинг ҳамда уларга илова қилинган товар транспорт ҳужжатларининг тўғри расмийлаштирилганини текшириш, барча реквизитларнинг мавжудлигини аниқлаш;
- пул чекининг номери имзолар ва муҳр намунаси туширилган карточкада қайд этилган чек дафтарчасининг номерига тўғри келишини текшириш;
- чек бўйича иш ҳақи учун маблағларни белгиланган ҳажм доирасида беришини назорат қилиш, бу маблағлар ҳисобини юритиш;
- мижозларнинг иш ҳақидан ушлаб қолинадиган солиқлар, давлат ижтимоий сугуртаси бўйича тўловлар суммаларининг ўз вақтида ўтказилишини назорат қилиш;
- ҳисоб-китоб ҳужжатлари бўйича инкассо картотекасини, ўз вақтида тўланмаган ҳужжатлар картотекасини юритиш;
- мижозлар ва банк операциялари бўйича шахсий ҳисобварақлардаги ёзувларнинг тўғрилигини текшириш ва улардан кўчирмаларни мижозларга бериш учун қутиларга жойлаштириш;
- операцион кун давомида мижозларга хизмат қўрсатиш графигига амал қилиш ва ҳоказо.

Хозирги кунда халқаро андозаларга мувофиқ баланс ичидағи ҳисоб рақамлари ҳам, балансдан ташқари ҳисобварақлар ҳам иккиёқлама ёзув асосида олиб борилади. Бухгалтерия ҳисобининг ташкил қилишнинг асосий тамойилларидан бири ҳам айнан иккиёқлама ёзув усулидир.

Икки ёқлама ёзув усулининг мазмуни нимадан иборат? Ҳисоб сиёсатида иккиёқлама ёзув усулини амалиётга татбиқ этилиши маҳсус бухгалтерия

хужжатлари асосида амалга оширилади. Бу хужжат ҳисобварақ бўлиб, у икки қисмдан иборатбўлади: чап томони -дебет||, ўнг томони эса -кредит|| деб номланади. Ҳар бир ҳисобварақнинг кун бошига бўлган бошланғич қолдиғи (салдо) бўлиб, операциялар ўтказилгандан сўнг дебет ва кредит айланмаларни ҳисобга олган ҳолда кун охирига бўлган қолдиғи чиқарилади.

Барча ҳисобварақлар ўз мазмунига кўра актив ёки пассив бўлиши мумкин. Банкнинг ўз маблағларини ҳисобга олишда ишлатиладиган ҳисобварақлар актив ҳисобварақлар ҳисобланади. Банк маблағларининг манбайини ҳисобга олишда ишлатиладиган ҳисобварақлар эса пассив ҳисобварақлар бўлиб ҳисобланади.

Актив ҳисобварақларга банкдаги нақд пуллар, банкнинг вакиллик ҳисобварағидаги маблағлар, турли муддатларга, банкларга, хукуматга, корхона ташкилотларга берилган ссудалар, асосий воситалари, банк харажатлари киради. Пассив ҳисобварақларга эса турли депозитлардаги маблағлар, бюджет маблағлари, банк капитали, даромадлари ва ҳоказо киради.

Актив ҳисобварақларнинг қолдиғи унинг -дебет|| қисмида бўлиб, маблағларнинг кўпайиши ҳам дебетда акс эттирилади, маблағларнинг камайиши эса ҳисобварақнинг кредитида кўрсатилади. Пассив ҳисобварақлар бўйича, аксинча, қолдиқ ҳисобварақнинг кредит томонида бўлиб, маблағларнинг келиб тушиши унинг кредитида, маблағларнинг камайиши, яъни чиқиб кетиши дебетида ўз ифодасини топади.

Актив ва пассив ҳисобварақлар бўйича бухгалтерия ёзувлари схемасини қўйидагicha ифодалаш мумкин.

Актив ҳисобварақ бўйича операцияларни акс эттирувчи жадвали¹

2.1.1- жадвал.

Дебет	Сумма	Кредит	Сумма
1. Кун бошига бўлган бошланғич қолдиқ (салдо)	1. Маблағларнинг ҳисобдан чиқарилиши
2. Маблағларнинг келиши	a)
а)	б)
б)	в)
в)	5. Маблағларни ҳисобдан чиқарилиш бўйича айланмалар суммаси (а+б+в)
3. Маблағларнинг келиши бўйича айланмалар суммаси (а+б+в)
.....		
Кун охирига бўлган қолдиқ (1+3-5)		

Ушбу жадвалда кўриб турганимиздек, ҳисобварақ икки қисмдан иборат бўлиб, унинг дебетида кун бошига бўлган қолдиқ акс эттирилган (1). Кун давомида турли операциялар бўйича ҳисобварақка келиб тушган маблағлар (2) жамланиб -дебет||

¹ <http://el.tfi.uz/mahsulot/banklarda-buxgalteriya-hisobi-fanidan-oquv-uslubiy-majmua-2/>

бўйича айланмаларни (3) ҳосил қиласди. Ҳисобварақдан товарлар, хизматлар ва нотовар операциялар бўйича тўловлар, яъни маблағларнинг ҳисобдан чиқарилиши (4) ҳамда шу барча тўловлар бўйича умумий айланмалар (5) ҳисобварақнинг кредит томонида акс эттирилди. Энди кун охирига бўлган қолдиқни (6) топиш учун бошланғич қолдиқ суммасига кун бўйи келиб тушган маблағлар бўйича айланмалар суммасини қўшиб, кун бўйи ҳисобдан чиқарилган маблағлар йигиндисини ифодаловчи айланмалар суммасини айрамиз. Шундай қилиб, актив ҳисобварақ бўйича кун охирига бўлган қолдиқ суммасини ҳисоблаб чиқариш мумкин.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. 2017 йил 7 феврал.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида (янги таҳрири)”ги Қонуни. 2019 йил 11 ноябр.
3. Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S. Byudjet tizimi. Darslik. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. -544 b.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 5 ноябр.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Банк сири тўғрисида”ги қонуни. 2020 йил 30 август.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Хусусий банк ва молия институтлари ҳамда улар фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни. 2018 йил 17 декабр.
7. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet hisobi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya” 2018. 428 b.

ЎЗБЕКИСТОНДА БАНК ТИЗИМИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ

Қўшаев Тўхтасин Абдиқодирович
*Термиз Давлат университети бухгалтерия ҳисоби ва аудит
кафедраси ўқитувчиси*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11425108>

Annotation: *this article provides information on the stages of formation of the banking system in Uzbekistan.*

Keywords: *liberalization of foreign exchange relations, specialized banks, investment companies, insurance companies, currency regulation.*

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбекистонда банк тизимининг шаклланиш босқичлари борасида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Валюта муносабатларини эркинлаштириш, ихтисослаштирилган банклар, инвестисия компаниялари, суғурта компаниялари, Валютани тартибга солиш.

КИРИШ (Introduction)

Республикамиз мустақиллигининг эълон қилиниши бутун дунё мамлакатлари томонидан тан олинган бозор иқтисодиёти дастакларини бизнинг республикамизга ҳам кириб келишига замин яратди. Шунинг учун ҳам республикамизда бозор иқтисодиёти талабларига мос келувчи замонавий банк тизимини яратиш зарурияти туғилди.

Банк тизимини қайта қуриш:

- икки поғонали банк тизимини вужудга келтириш. Марказий имиссион банк ва бевосита хўжалик субъектларига хизмат кўрсатувчи ихтисослашган давлат банклари;

- ихтисослаштирилган банкларни тўлалигича хўжалик ҳисобига ва ўз-ўзини молиялашга ўтказиш;

- иқтисодий тизим доирасида юридик ва жисмоний шахслар билан бўладиган кредит муносабатлари, услублари ва шаклларини такомиллаштириш ва бошқаларни ўз ичига олади.

Ўзбекистон бозор иқтисодиётига ўтишнинг босқичма-босқич йўлини танлагани боис банк тизими тараққиёти ҳам қўйидаги босқичларга эга:

- Биринчи босқич миллий валютани муомилага киритиш учун асос яратилган ва икки поғонали банк тизимининг пойдевори қурилган 1991 йилдан 1994 йилгача бўлган даврни ўз ичига олади. Бу даврда мамлакатимизнинг мустақил банк тизимини яратиш бўйича олиб бориладиган тадбирлар 1991 йил 15 февралда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Конуни²

² O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi - www.lex.uz - https://lex.uz/acts/-2681

асосида амалга оширилди. Ушбу қонун асосида собиқ СССР давлат банкининг республика муассаси асосида Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўзилди (1992 йил сентябр) ва унга республикада пул муомиласини тартибга солиш, тижорат банклари тизимини вужудга келтириш ва тулов тизимини ташкил этиш вазифалари юклатилди.

Ушбу даврда ташкил этилган маҳсус ихтисослашган банклар жумласига саноат қурилиш банки, коммунал қурилиш ва социал тараққиёт банки, агросаноат банки, ташқи иқтисодий фаолият банки, жамғарма банки ва бошқа банкларни киритиш мумкин.

Ўзбекистонда банк тизимини ташкил қилишнинг иккинчи босқичи миллий валюта муомилага киритилган (1994 йил 1 июл) ва икки поғонали банк тизимининг хукуқий асослари яратилган 1994-1996 йилларни ўз ичига олади.

1994 йил 18 марта Вазирлар Маҳкамасининг «Банк тизимини такомиллаштириш ва пул-кредит муносабатларини барқарорлаштириш бўйича чора-тадбирлари тўғрисида»ги карори³, 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида»ги ва 1996 йил 25 апрелда «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги қонуннинг янги таҳрирда қабул қилиниши банк тизимини жаҳон андозаларига яқинлаштириш соҳасидаги мустаҳкам конуний пойдевор яратди.

Ушбу босқичнинг хусусиятларидан бири 1995 йилдан бошлаб Ўзбекистонда маҳсус нобанк кредит ташкилотлари (инвестисия компаниялари, сувурта компаниялари ва бошқалар) ташкил қилина бошланди.

Ўзбекистон банк тизимини шакллантиришнинг учинчи босқичи 1997-2000 йилларни ўз ичига олиб у босқичнинг асосий хусусияти банкларни хусусийлаштириш ва акциядор – тижорат банкларида бошқарувнинг сифатини ошириш, банклар фаолиятида назоратни кўчайтиришдан иборат.

Бу босқичда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Хусусий тижорат банклари ташкил қилишни рафбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги (1997 йил 24 апрел), «Акциядорлик-тижорат банклари фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги (1998 йил 2 октябр), «Банк тизимини янада эркинлаштириш ва ислоҳ қилиш борасидаги чора-тадбирлари тўғрисида»ги (2000 йил 21 март) фармонлари муҳим аҳамиятга эга.

Шу каби 1999 йил 15 январда Ўзбекистон Республикасининг «Банк тизимини ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида» ги, 2000 йил 24 марта «Банк тизимини ислоҳ қилишга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисида» ги қарорлари қабул қилинди.

Банк тизимиға чет эл сармояси кенг жалб қилина бошланди ва 2006 йилнинг бошига 5 та банк чет эл капитали иштирокида фаолият курсатмокда. Булардан ташқари халқ хўжалигига 3 та банк давлат мулки асосида. 12 та акциядор-тижорат ва 9 та хусусий банк хизмат кўрсатмокда.

³ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - www.lex.uz - https://www.lex.uz/docs/-270371

Шу босқичда банк тизимини ислоҳ қилиш республика комиссияси тўзилди, мижозларга хизмат курсатиш сифати оширилди, кичик ва ўрта бизнесни янада ривожлантиришга, ички назорат таъсирчанлигини оширишга эътибор қаратилди.

Банк тизими ривожланишининг тўртинчи босқичи 2001 йилдан бошланди ва унинг асосий хусусиятлари бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:

1. Банклар фаолиятини янада ривожлантириш асосида ахолининг банк тизимига бўлган ишончи мустаҳкамланди. Агар 2004 йилни бошига тижорат банклар капитали 791 млрд сўмдан 2005 йилни бошига 824,1 млрд. сўмга, яъни 104,2% га ошган бўлса, шу даврда ахолининг банклардаги пул жамгармалари (янги омонат турлари, юкори фоизлар ва бошқалар хисобига) 244,7 млрд. сўмдан 322,6 млрд. сўмга ёки 131,8 фоизга ошди, 2005 йилни бошига эса банклардаги аҳоли жамгармалари 450 млрд. сўмга етди.

2. Тижорат банкларининг хусусий тадбиркорлик, кичик ва ўрта бизнес субъектларига қўрсатган ёрдами ортди. Маълумки, кичик тадбиркорлик субъектларининг сони йил сайин ошиб бормоқда ва уларни сони 1.01.2004 йилга 235,4 минг тани ташкил этади. 2005 йилда кичик бизнес субъектларига берилган кредит 419,9 млрд. сўмни ташкил этиб шундан 287,4 млрд. ўзоқ муддатли кредитни ташкил этади. Кичик бизнес субъектларининг ЯИМдаги улуши 2005 йилда 38 фоизни ташкил этди, 2006 йилни режасига кўра уни 45 фоизга этиши мулжалланган.

3. Валюта муносабатларини эркинлаштириш бўйича ишлар жадаллаштирилди. Бу босқичда миллий валютани эркин айирбошлиш ишлари босқичма-босқич амалга оширилди ва 2003 йил 15 октябридан бошлаб жорий халқаро операсиялар бўйича сўмнинг эркин алмаштирилиши жорий этилди.

Валюта муносабатларини такомиллашуви муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2003 йил 11 декабридаги 557 сон қарори билан «Валютани тартибга солиш тўғрисида»ги қонунига ўзгартиришлар киритилди.

Шу асосда Республикаизда банк тизимини тарақкий этиши ва такомиллашуви давом этмоқда.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 15 апрелдаги «Банк тизимини янада ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори муҳим аҳамиятга эга.⁴

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. 2017 йил 7 феврал.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида (янги таҳрири)”ги Қонуни. 2019 йил 11 ноябр.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 5 ноябр.

⁴ O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi - www.lex.uz - https://lex.uz/acts/-72266

4. Ўзбекистон Республикасининг “Банк сири тўғрисида”ги қонуни. 2020 йил 30 август.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Хусусий банк ва молия институтлари ҳамда улар фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни. 2018 йил 17 декабр.

“MODERN TEACHING METHODS”

Turdiyeva Madina Abdullayevna
Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11425575>

ANNOTATION

Nowadays we can meet the phrase “modern teaching” not only in teaching foreign languages, but also in all subjects of education such as mathematics, literature, history, geography, and other subjects of education. Simply said, modern teaching means to attract pupils by using new techniques, new methods.

Now English teachers have always been concerned about the inadequacy of conventional methods of English teaching in Uzbek education systems. The teacher of 21 century should use traditional concepts and techniques of classroom teaching and should adopt the recent and innovative teaching techniques.

Key words: modern teaching techniques, problems in teaching, BST, types of learning.

Theme: Modern Teaching Methods

*“The teaching method which focuses more on teaching the students for improving their intellect behavior by using various new and innovative ideas rather than making them recite the syllabus to clear the examination with the same old style is **Modern Teaching Methods** in simple words.”*

The new teaching method which we called the modern teaching method is more activity-based and centres the learner's mind which involves them entirely into the process of learning. In the modern teaching method, curriculum teaching and planning are done keeping the learner as the primary target.

Through this way, learners actively participate in the whole process to build their knowledge and sharpen their skills; this is also termed as a constructivist approach. On the other hand, the mentor or teacher only leads them and guides them to focus on the objectives of the subject. This is all done by engaging in activities and by adopting innovative modern teaching techniques. New demand of the era or the need of the hour for students is to embrace the contemporary teaching methods which will also help in reducing the competition among the students, promote cooperation, and boost the health study environment.

Brief Introduction

Over the years, there have been visible changes in teaching style. Opposite to the memorization and same old recitation practice to teach the students, now with Advantages of modern teaching methods, interactive methods of teaching have been introduced, and its result can be seen. This is an education reform which provides an entirely different angle of teaching and learning because modern teaching methods do not treat all students at the same level of their understanding ability, unlike the conventional method of teaching.

Rather than the only teacher based, modern teaching methods focus more on questioning, demonstration, explaining, practical, collaboration methods, and are more activity-based.

Why modern teaching is the need of the hour?

Education is the need of the hour as it creates a literate society and in the process of educating the society, motivation and instructions are very crucial and teachers, guides and administrators are responsible to motivate learners. The rate of literacy will be leveled up by providing education to the most parts of society.

However, with time being changed to an extent, learners demand new techniques and methods to gain knowledge which specializes them not only in theoretical study but ensures them to provide practical knowledge, sharpen their skills, and make them educated to face any kind of challenges. Modern teaching methods are the only way to meet the requirements of modern times.

Characteristics of Modern Teaching Methods

The modern teaching methods help to build or develop a productive understanding of basic science and technology (BST). Hence, the elements of contemporary teaching methods include:

1. Learner-centered

One of the essential characteristics of the modern teaching methods in basic science and technology (BST) is it is learner-centred. It focuses on learners while using or applying during classroom and laboratory lectures. The teacher acts only as a guide, and all the learning process involves learners. Learners significantly appear as a dominator in classroom interactions.

2. Task-Based or Activity-based

The teacher or guide of BST organizes activity or task and engages students to learn through this way. Hence it is an activity-based or commission-based. Students are offered or asked to take part in classroom interaction through these interactive activities.

3. Resource-Based

BST teachers should be resourceful. They should collect and distribute all the required study material to the learners for their learning or to understand the topic clearly. The resources can be collected from the school environment or any other place where it is available. Also, a learner can be the source to bring study material or resources from their end.

4. Interactive in Nature

One characteristic defines the modern teaching method as very interactive. The teacher asks the students to form small groups or work as individuals to perform the learning tasks and come up with the desired results. It helps them to gather knowledge from one another. Students learn to work together and a sense of cooperation. It also works in their favour when they step out in the outer world.

5. Integrative in Nature

One of the vital characteristics of Advantages of modern teaching methods is it is integrative. Teachers link topics of one subject, e.g., social science topics like drug use, domestic violence, safety, pollution, food distribution, crime etc. to other issues and make it integrative. By this, a learner can gain knowledge of more topics studying one.

6. Peer Collaboration

Modern teaching methods not only encourage students by allowing them to present their ideas or initiative by noticing their responses, studying their research, and allowing them to answer during interaction in BST classes but also selects students based on interest, needs, and feelings. Through Instructional activities, students learn to work cooperatively, and they appreciate their competitors' work as well. In the BST curriculum, learner's interests are considered most important, and they are guided towards their goals and careers.

Modern Teaching Methods are following:

Collaborative Learning

Earlier, when students were asked to revise the topic or syllabus during an examination or regular days, they used to revise the syllabus in isolation or at home. This practise was widespread in traditional teaching methods. To deal with this issue or provide a more useful platform for students, schools are coming up with collaborative learning. In this modern teaching method, teachers form a group of students where they can solve their problem, debates on topics, and clear their queries. This helps in developing social skills and allows students to understand the subject faster.

Spaced Learning

Spaced learning is one of the modern teaching methods, which is being followed by teachers. In this method, teachers repeat a lesson multiple times, basically until the students understand entirely. However, the teacher repeats the course with two 10-minute spaces (break) in-between the lessons.

The gap is meant to refresh the mind by playing physical activities or mindfulness techniques which prepares them for the next session of the same lesson. This method gives the students intervals to inherit the knowledge and create connections between learnings. Before moving forward to another chapter, this method prepares the students with basics.

**FIZIKA FANINI O'QITISHDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH AHAMIYATI**

Raxmonova Dilrabo Qodiraliyevna

Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi fizika fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11425855>

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizika fanidan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzularni o'tishdagi interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, texnologiya, dars, interfaol, fizika, muammo, qobiliyat.

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangicha tafakkur, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Fizika fanini o'qitishni takomillashtirish o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning aql zaxirasidagi bilimlar doirasini chuqurlashitirish va yangi imkoniyatlarga tayanuvchi samarali usullarni joriy qilish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Fizika darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish va shu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur texnologiya tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lib, u asosan o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Fikrning ravonligi, uni maqsadga muvofiq yo'llay olish, o'ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati kabilalar kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlardir. Barcha o'quv-laboratoriya jihozlari mavjud bo'lgan umumta'lim maktablarida fizika darslarini olib borishda o'quvchilarning tushunchalar ko'lami keng, mustaqil fikrlashga unday oladigan ko'nikmalarni shakllanishida muhim turki bo'ladigan uslubni -muammoli usulni qo'llash ko'roq ijobiy natija bermoqda. Muammoli o'qitish oddiy o'qitishdan yuqori darajada ma'lumot saqlashni va o'quvchini tajribaga qiziqtirishni orttirish bilan farqlanadi.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi eng murakkab tushunchalar haqida bilim berishda yechim talab qilinadigan holatlarni muntazam ravishda keltiradi, o'quvchilarga faqat faktlar yetkazib berish bilan chegaralanmay, balki faollashtirish usulini ham qo'llab bilim beradi. Muammolarni tahlil qilib, o'quvchilar mustaqil xulosaga keladilar. Bunda o'qituvchi yordamida o'rganilayotgan qonun va qoidalarni to'g'rilinga xulosa yasaladi. Namoyish tajribalari asosida o'tkaziladigan muammoli darslar yordamida o'qituvchilar bilim olish va bu bilimlarni amalda mustaqil qo'llash imkoniyatiga erishadilar. Masalan: Suyuqlik xossalari o'rganishda, suyuqlikni turli diametrli kapilyar naychalardan ko'tarilishini, turli shakldagi shisha idishlarda egallagan vaziyatlarini ko'rsatish va tahlil qilishlariga yo'naltirish lozim. Namoyish tajribalarining muammoli ko'rsatish o'quvchilarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish, hamda ma'lum mavzu yuzasidan o'zining mustaqil fikr muloxazasini

bayon qilish bilan birga, tengdoshlari davrasida o'zining tushunchasini bayon etish va fikrini himoya qilish imkoniyatini yaratadi. Bu usul muommoli vaziyatni yaratish orqali amalga oshirilib, bevosita tajriba samarasi savolning hususiyatiga bog'liqdir. Bu borada qayta xotirlashga asoslangna savollar muammoli bo'la olmaydi, balki o'rganishni ko'zda tutilgan va hali o'quvchi-yoshlarga noma'lum bo'lgan bilimlarga aloqador savollar muammoli hisoblanadi. Muammoni yechish, noma'lumni qidirish o'quvchilarni ilmiy munozaraga, o'quvchilar jamoasini jonlantirishga va darsliklardan tashqari qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashgan chorlaydi. O'quvchilarda har bir hodisaga mantiqiy yondoshuv ko'nikmalarini hosil qilish bilan birga ularni ijodiy vamustaqlif fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga, darsga bo'lgan qiziqishini ham orttiradi. Kreativ texnologiyalar asosida ta'lim berish nazariyasining ayrim jihatlari, o'quv jarayonida uni qo'llashga oid metodik tavsiyalar, ularga qo'yiladigan psixologik va metodik talablar, samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqilganligiga qaramay, bunda o'ziga xos muammolarni, ya'ni kreativ texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va vazifasi, o'qituvchining shu sharoitdagi ahamiyatidan tortib, mazkur jarayonni bu texnologiya yordamida boshqarishning xususiyatlari, ta'lim berishni individuallashtirish, tabaqalashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechishga to'g'ri keladi.

Bizning fikrimizcha, quyidagi muammolar hal etilishi talab qilinadi: mazkur texnologiyaning didaktik imkoniyatlarini aniqlash; o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beruvchi dasturlar tuzish; fizika fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limga oid tavsiyalar ishlab chiqish. Mazkur muammolarni to'laqonli yechimi o'quvchilarga fizikaga oid bilimlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Ushbu holat o'z navbatida fizikadan ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ texnologiyalarning muhim tarkibiy mazmunini aniqlashga asos bo'ladi. Shu bois bu jarayonni mazkur texnologiyalar asosida tashkil etish muhim. Bu texnologiyalar mazmuni fizikadan ta'lim maqsadlarini nazarda tutgan texnologik ishlanmalar, o'quv maqsadlarini nazarda tutuvchi o'ziga xos tasniflagichlar, Internet tizimi va elektron darsliklar, test topshiriqlari, to'la o'zlashtirish texnologiyalari bilan bog'liq jarayonlarni nazarda tutadi. Buning uchun biz kreativ va unga hamohang pedagogik texnologiyalar elementlaridan foydalaniib, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga harakat qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. Abdalova S. Mustaqil ta'limni boshqarish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda kreativ texnologiyalar ning o'rni //Ta'lim menejmenti.-?Toshkent, 2011.
2. Abdullayev G.À. Fizika. "O'qituvchi"-1989.3. Bandarkova A. Kreativnaya pedagogicheskaya texnologiya formirovaniya professionalnoy kulturi uchashixsy // Nauchno-metodicheskiy jurnal.-Moskva, 2008.

“MAGNIT BO’RONI YOKI “KULAYOTGAN QUYOSH””

Mirzayeva Husnora Rustambek qizi
Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Fizika astronomiya fani
o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11425984>

Hozirgi kunda har bir sohada, har bir jahbada katta o’zgarishlar va rivojlanishlar bo’lmoqda. Fan va texnikada bo’layotgan yangiliklar insoniyatga katta foyda va qulaylik keltirish bilan bir qatorda ekologiya va tabiatda katta o’zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu o’zgarishlar esa ekosistemaning o’zgarib ketishiga va unga ziyon yetishiga ham sabab bo’lmoqda.



Xususan, bugungi kunda tez-tez yuz berayotgan sayyoramizdagi magnit bo’ronlari bunga yaqqol misol bo’la oladi. O’tgan asrlarda ham bunday tabiat hodisalari ahyon-ahyonda yuz berib turgan. Texnika asriga kelib ekologiyada bo’lgan o’zgarishlar sayyoramiz himoyachisi bo’lgan ozon qatlaming yemirilishi sababli quyoshning faollahishi Yer sayyorasiga salbiy ta’sirini ko’rsatmoqda. Bu esa sog’ligi bilan muammosi bo’lgan insonlarga, hatto sog’lom insonlarga ham o’z salbiy ta’sirini ko’rsatmoqda.

Yerda kuzatiladigan ko’plab fizik va biologik hodisalarning kechishi, xususan, iqlimning o’zgarishi, xilma-xil kasalliklarning davriy ravishda takrorlanishi, ionosferadagi hodisalar, Yerning magnit maydoni «bo’ronlari» va kosmonavtlar uchun radiatsiya xavfinining tug’ilishi — bularning hammasiga Quyoshda ro’y beradigan turli faol jarayonlar sababchi ekanligi fanga anchadan beri ma’lum. Garchi, bu muammo to’la hal qilinmagan bo’lsa-da, Quyosh faolligining Yerda kuzatiladigan, eslatilgan hodisalar bilan aloqadorligini o’rganish borasida ko‘p yutuqlar qo’lga kiritilgan.

Yerda hayotning manbayi Quyosh ekanligi va bunda Quyosh nurlari yorituvchi va issiqlik baxsh etuvchi asosiy vosita ekanligi qadimdan ma’lum. Biroq keyingi yillarda Quyoshning elektromagnit to’lqinlarining ko’zga ko’rinmaydigan qisqa to’lqinli diapazonlarda ham yetarlicha intensiv nurlanishi aniqlandi. Bu nurlar ultrabinafsha,

rentgen va gamma nurlari bo'lib, Quyoshdagi faol hodisalar bu nurlar intensivligining ortishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Quyosh chaqnashlari va eruptiv (portlovchi) protuberaneslardagi portlash tufayli bu nurlar oqimiga katta energiyali elementar zarrachalar oqimi ham qo'shi- ladi. Eslatilgan «Quyosh shamoli» deyiluvchi bu oqimning intensiviligi Quyosh faolligining fazasiga mos ravishda o'zgarib boradi. Quyoshdan kelayotgan korpuskular zarrachalar, radiatsion nurlar intensivligining bu xilda o'zgarib turishi, Quyoshning faollilik darajasiga bog'liq bo'lib, dog'lar sonining o'zgarib turishi bilan bir xilda kechadi. Quyoshning aktivligi, undagi dog'lar sonining yillar davomida o'zgarishi bilan xarakterlanib, uning davri o'rtacha 11,1 yilni tashkil etadi. Quyosh faolligining oxirgi bir necha o'n yildagi o'zgarishi aks ettirilgan. Shubhasiz, «Quyosh shamoli» Yerga yetib kelgach, turli geofizik hodisalarning, jumladan «magnit bo'ronlari»ning kelib chiqishiga sabab bodadi.

Quyosh faolligi va epidemik kasalliklar orasidagi bog'lanishni o'rganishda rus olimi professor A.L.Chijevskiyning hissasi katta. U keng tarqaladigan o'lat, vabo, tif, bo'g'ma kabi epidemik kasalliklarni o'rganib, ularning boshlanishi, rivojlanishi va tugashi Quyosh faolligi fazasiga mos kelishini aniqladi. R.P.Bogacheva va V.M.Boyko kabi olimlar esa oxirgi bir necha o'n yillik davrda polimiyelit (virusli miya shamollashi) kasalliklari dinamikasini Riga va O'zbekistonda o'rganib, bu kasalliklarning avji Quyosh faolligiga juda mos kelishini aniqladilar.

Olimlar Quyosh chaqnashining yurak-tomir kasalligiga ta'sirini o'rganib, miokardinfarkt kasalligi bilan Quyosh chaqnashi orasida kuchli bog'lanish mavjudligini aniqlashdi.

Quyosh faolligi bilan inson asab sistemasi o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish ham ijobiy natija berdi. Quyosh chaqnashi kishi asab sistemasi normal faoliyatining vaqtincha buzilishiga sabab bo'lar ekan.

Tabiat qonunlariga, tabiat hodisalariga insoniyat hech qachon qarshilik qila olmaydi. Shunday ekan, biz qo'limizdan kelgancha tabiatni asrashimiz, tabiiylikka ziyon yetkazmaslikka harakat qilishimiz zarur.

“TEACHING WRITING IN JUNIOR CLASSES”

Turdiyev Rasuljon Usmonovich
Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11426434>

ANNOTATION INTRODUCTION

In the process of teaching, teachers always unconsciously create a variety of situations for students. Most Chinese students lack English learning environment, so it is necessary for teachers to use situational teaching method. However, in the actual junior school English writing teaching process, most teachers use the traditional jug-and-mug teaching method, which leads teachers to ignore the dominant position of students' learning, their learning interest and motivation to a certain extent. The paper tries to find the ways that teach students in junior English writing based on Situational Teaching Method. Despite there are some the shortcomings of this study, the author still hopes that this study will be helpful to the further study of situational teaching method.

Writing is one of the predominant language skills in teaching English to ESL and EFL students in all educational levels, notably junior high school students.

Key words: situational teaching method, using multimedia, language acquisition, challenges in teaching junior classes,

The Definition of Situational Teaching Method

In spite of the controversies on language learning processes, there is the underlying fact that the main practical objective of teaching a language is to enable the learners to use it. That is, to know to what real-life situations each particular form of the target language corresponds.

Acquiring linguistic data is not sufficient because the scene is not a linguistic one, as it has to do with people, objects and events which are present at the moment of communication. In this respect Halliday remarks that “*when we acquire our primary language, we do so by learning how to behave in situations, not by learning rules about what to say*”

Language Acquisition Theory

Language acquisition is the process of learning to communicate effectively and meaningfully in a target language. There are four main theories: linguistic learning, behaviorist, cognitive learning, and interactionist. All theories have strengths and weaknesses.

Krashen hypothesizes that second language acquisition is very similar to the process children use when acquiring their first language. It requires meaningful interaction in the new language--natural communication--in which speakers are concerned with the messages they are conveying and understanding, not with the grammatical form of the language. According to Krashen, error correction and explicit teaching of rules are not important in language acquisition. Rather, students learn best when they are focusing on the purpose of

communicating, not the form of the language. Native speakers of a language, when interacting with nonnative speakers, naturally modify their speech into shorter, less complex sentences to help second language learners understand. In the literature, this type of language is commonly referred to as “foreigner talk.” Mothers also naturally modify their speech into shorter, less complex sentences, using pitch and intonation to help their babies learn their first language. In the literature, this type of language is commonly referred to as “motherese.” Modifications of language that occur during foreigner talk and motherese are thought to help the acquisition process, because language is being made more comprehensible to the learner. Krashen is most widely known for his "comprehensible input" hypothesis, which suggests that learners acquire language by taking in and understanding language that is "just beyond" their current level of competence. Krashen defines comprehensible input as ' $i+1$ ', where ' i ' is the current level of proficiency and ' $+1$ ' is the level of proficiency just beyond the learner's current level. As evidence of "comprehensible input", Krashen points to examples of "foreigner talk" and "motherese" as being instances of input that is slightly beyond the learner's current level of competence.

Using Multimedia to Create Situations

Multimedia refers to a combination of different media (such as audio, video and text) that can be used in education. For example, you might use film clips from movies or TV shows to teach your students about history; alternatively, if they were studying science then some images related to the topic would work well too.

The Benefits of Multimedia Education

The field of education is changing rapidly. The old days of schools with isolated AV departments and outdated TVs are long gone -- the use of modern multimedia within the education sector has accelerated in recent years and is set for continued expansion in the future.

In general, multimedia is the combination of visual and audio representations. These representations could include elements of text, graphic arts, sound, animation, and video. However, multimedia is restricted in systems where information is digitized and processed by a computer. Interactive multimedia and hypermedia consist of multimedia applications in which the user has a more active role.

Teachers primarily require access to learning resources, which support concept development to meet the individual learning needs of their students. By using multimedia technology, educators can offer new methods of learning that can take place in schools or at home. Granting teachers access to multimedia learning resources, which support constructive concept development, allows them to focus on facilitating learning while working with individual students. And extending the use of multimedia learning resources to the home represents an opportunity to improve distance learning.

The Challenges of Teaching English Writing to Junior High School Students

Students' poor English grammatical competence

Based on the interview results, the researcher identified that teachers faced assorted challenges when teaching writing to junior high school students. One of them was generated from their English grammatical competence, as indicated by one of the participants (participant 2) as follows:

Excerpt 1

P2 “One of the challenges of teaching writing is due to how the way they write. Commonly, they applied spoken language to written in English. For instance, when I said “the word division” of a sentence, for example, “I will go to school by motorcycle” and I requested them to write it, they encountered obstacles to write. This may be caused by their difficulties to understand the sentence structure in English. Moreover, the participant argues that the students have difficulties in grammatical competences. They were difficulties in understanding the structure to write their ideas in written form. Then, the participant said that the most difficulties in teaching writing were teaching the structure such as they were difficulties to change the tenses when writing. In English, there are past tense, present tense, future, present continuous tense (study, studies, studied, studying), students encounter difficulties to apply the tenses.”

To sum up, using Situational Teaching Method in writing teaching can produce the connection between teaching content and students' sensory experience, which can stimulate students' enthusiasm for learning and is conducive to cultivating students' interests in writing and improving their writing skills, optimizing the teaching effect and improving students' writing ability.

The study aimed at depicting the challenges and solutions in teaching English writing to junior school students

**INFORMATIKA FANINI O'QITISHNI TASHKILLASHDAGI DIDAKTIK
PRINTSIPLAR VA USULLAR**

Djamalova Diyora Nabijonovna

Farg'ona viloyati Beshariq tumani 1-sodn kasb-hunarmaktabi Informatika va Axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11426770>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada informatiaka fanini o'qitishda ta'lism samaradorligini oshirish yo'llari haqida fikr yurutilgan. Hozirgi ta'lism tizimida bilimlarni egallashning yangi kontsepedagogik texnologiyasi va informatikafanini o'qitishda ta'lism samaradorligini oshirishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning yo'llari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: individual,guruqlik, frontal, o'qitish shakllari,

EHM. Informatika didaktikasi va o'qitish metodikasida o'qitishning tashkiliy shakllari markaziy o'rinalidan birini egallaydi. O'qitishning tashkiliy shakllari deganda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlarini tashkil etish yo'llari tushuniladi. O'qitishning tashkiliy shakllari bir qator mezonlar bo'yicha tasniflanadi: o'quvchilar soni, o'qish joyi va boshqalar. Birinchi mezon bo'yicha tasnifni ko'rib chiqamiz. O'quvchi faoliyati ta'lism jarayoni qatnashchilari orasidagi o'zaro munosabatlarning bir bo'lagidir. O'quvchilarning individual faoliyatini nazarda tutuvchi shakllar ham mavjuddir. Boshqa shakllar esa, masalan EHMda amaliy mashg'ulot, guruhdha ishlashni talab etadi. O'qitishning tashkiliy shakllarining ko'pchiligi frontaldir.

O'qitishning guruqli shakli. «AQSHda ta'lism bo'yicha instrukturalar guruqli ish olib borishni tavsiya etadilar. Zamonaviy tadqiqotlar, o'qitishning ushbu shakli o'quvchilar orasidagi dushmanlik munosabatlarining oldini olishning samarali taktikasi ekanligini ko'rsatmoqda. Guruhda ishlash tajribasi tafakkur uslubini «biz va ular» «dan» «biz» ko'rinishiga o'zgartiradi. Guruhda ishlaganda avvalo sinfning o'quv makoniga e'tibor berish lozim. Kichik guruhlarda ishlash yuzma-yuz ishlashni taqozo etadi. Shu sababli o'tirish joylarini an'anaviy, ya'ni o'quvchilar o'zidan oldingi o'quvchi boshining orqa tomonini va o'qituvchining yuzini ko'radigan holatda joylashtirish maqsadga muvofiq emas. O'tirish joylarining o'rnini o'zgartirish, guruhdha muamola qilish imkonini beradigan kichik zonala rtashkil etish kerak bo'ladi. Bunda kichik guruhlar va har bir guruhdagi o'quvchilar sonini hisobiga olish lozim (uch, to'rt, yeti va xokazo). Guruh bilan ishlash usuliga bog'liq holda o'tirish joylarini joylashtirishning quyidagi variantlari mavjud: E'tibor berilishi lozim bo'lgan navbatdagi masala kichik guruhlarni shakllantirish jarayonini yaxshilab o'rganib chiqishdan iborat. O'quvchilar guruhlarda nafaqat o'quv masalasini yechishi, balki kommunikativ ko'nikmalarni ko'rsata olishi va mustahkamlashlari ham kerakligini yodda saqlash lozim. Shuning uchun avval boshdan bir-birining boshlagan ishini qo'llab quvvatlashga xoxishi borligi va tayyor ekanligida o'z

aksini topadigan guruhning emotsiyali to'g'risida ham qayg'urish kerak bo'ladi. Kichik guruhlarga birlashishda o'quvchilarning o'z istaklariga qarash mumkin. Bunda yondashishning ijobiy tomoni o'quvchilarning o'zaro shaxsiy xayrioxliklarini hisobga olinishidir. Lekin salbiy tomonlari ham bor. Natijada kuch bo'yicha bir-biriga teng bo'limgan guruhlar tashkil qilinishi mumkin va hamkorlikda olib borilgan faoliyat natijalari ham keskin farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, guruhda do'stona, lekin o'zi bolalikka asoslangan muxit yuzaga kelib, o'zaro muloqotda bo'lishga qiziqish, o'quv masalasini yechish jarayonini siqib chiqarishi mumkin. Guruhlarni shakllantirganda yechiladigan masalaning mazmunini ham e'tiborga olish lozim. Masalan, o'qituvchi har bir guruhga masalaga qarama-qarshi nuqtai nazarda bo'lgan o'quvchilarni kiritishi mumkin. Natijada masalani yechish jarayonidagi muxokama jonli va qiziqarli chiqadi. Yoki aksincha, a'zolari bir soxaga qiziqishlari bo'lgan tavsirlanuvchiga mogen guruhlarni tuzish ham mumkin. Quyida sinf o'quvchilarni tez va qiziqarli tarzda kichik guruhlarga bo'lishy o'llaridan bir nechtasini keltirib o'tamiz. Ushbu usullar sinfni har birida 6 tadan o'quvchi bo'lgan 6ta kichik guruhlarga bo'lishga imkon beradi. Guruhdagi o'quvchilar sinfini 5,7 yoki 8taga o'zgartirib, sinfini 5,7 yoki 8ta guruhga ajratish ham mumkin: qog'ozning kichik bo'laklariga A1,A2,A3,A4,A5,A6,B1,B2,B3,...vaxokozo belgilarni yozing. Stollarni A,B,V,G,D,Yedeb belgilang. SHundan so'ng qog'ozlarni ishtirokchilarga(o'quvchilarga) tarqating va unda yozilgan harfli stol atrofiga o'tirishni tavsiyaeting. 6ta rasm tayyorlang va har birini 6ta bo'lakka bo'ling. Bo'lakchalarni aralashtirib stol ustiga qo'ying va ishtirokchidan (o'quvchidan) bittadan bo'lakchani tanlab olishni iltimos qiling. Shundan so'ng o'quvchilar bo'lakchalarni birlashtirib, yaxlit rasmni xosil qilishlari va bitta stol atrofiga o'tirishlari kerak bo'ladi.

Oltita ranglardan 6 ta qizil, 6 ta oq, 6 ta qora, 6 ta sariq, 6 ta ko'k, 6 ta yashil jami 36 ta kartochka tayyorlang. Sinfdag'i o'quvchilarning har biri o'ziga yoqan rangli kartochkani tanlab oladi va bir xil rangli kartochkani olgan o'quvchilar bitta stol atrofiga o'tirishadi. Barcha o'quvchilar 1,2,3,4,5,6 raqamlar bo'yicha tartib bilan sanalishadi. SHundan so'ng 1 raqamlilar bitta guruhga, 2 raqamlilar ikkinchi guruhga va xokazo birlashishadi. O'qituvchi biror bir belgi bo'yicha jamlangan predmetlar nomi yozilgan yoki rasmlaritushirilgan kartochkalarni oldindan tayyorlaydi. Masalan:daraxtlar-olma, olcha, o'rik, nok, xurmo, shaftoli; gullar-lola, atirgul, nartsiss, gladiolus, chinnigul, boychechak; idish-tovolar-qozon, choynak, piyola, likopcha, qoshiq, cho'mich va xokazo. O'quvchilar kartochkalarni tanlaydilar va belgilar bo'yicha (daraxtlar,gullar,idish-tovolar va xokazo) buyrularga birlashadilar. Informatika fanini o'qitishda asosiy quyidagi o'qish shakllari foydalanaladi: ilmiylik; sistemali va izchil bayon qilishdir. tushunarilik; ko'rgazmalilik; nazariyaning amaliy ot bilan bog'lanishi; faollik. Bilimlarni mustahkam o'zlashtirish Ilmiylik Ilmiylik o'rganilayotgan masalalarni yuzaki qarash yoki unga oid ma'lumotlar soni bilan emas, balki masalaning moxiyatiga chuqur kirib boorish bilan belgilanadi. O'quvchilarga yetkazilayotgan barcha bilimlar, ma'lumotlar to'g'ri bo'lib, zamonaviy fan nazariyasiga muvofiq kelishi lozim. Informatika-tez rivojlanib borayotgan fan Keyingi o'n yilichida informatikada juda ko'p yangi tushunchalar, yangi nazariyalar paydo bo'ldi, yangi EHMLar va ularning qurilmalari yaratildi. Shuning uchun o'quv kursining mazmuni va tuzilishi doimo

Yangilanib turishi kerak. Informatika kursi qanchalik elementar bo'lmasin, uhar doimo ilmiy bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Aripov, M. Muhammadiyev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. TTDYuI, 2004 y.
2. M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web-dizayn. Darslik. T.: "Cho'lp'on", 2013 y.
3. U. Yuldashev, M. Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma. T. "Voris", 2013 y.
4. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.: "Faylasuflar jamiyati", 2013 y.
5. B.Mo'minov. Informatika. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur-bo'stoni", 2014 y.

**МАМЛАКАТЛАРНИНГ ХМТ ДА ҚАТНАШИШЛАРИГА ТАЪСИР
ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ**

Исмоилов Шапахат Содиқович

*Термиз Давлат университети бухгалтерия ҳисоби ва аудит
кафедраси ўқитувчиси*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1153287>

Annotation: this article reflects information on the factors affecting the participation of countries in the ILO and its development indicators.

Keywords: level of development, leading industries, inter-sectoral specialization, specialization within networks, specialization of individual enterprises, mineral resources.

Аннотация: В данной статье отражена информация о факторах, влияющих на участие стран в МОТ, и показателях его развития.

Ключевые слова: уровень развития, ведущие отрасли, межотраслевая специализация, внутриотраслевая специализация, специализация отдельных предприятий, полезные ископаемые.

Аннотация: Ушбу мақолада мамлакатларнинг хмт да қатнашишларига таъсир қилувчи омиллар ва унинг ривожланишиш кўрсаткичлари борасида маълумотлар ўз аксини топади.

Калим сўзлар: ривожланишиш даражаси, етакчи саноат тармоқлари, тармоқлараро ихтисослашув, тармоқлар ичра ихтисослашув, алоҳида корхоналар ихтисослашуви, фойдали қазилма бойликлари.

ХМТ ривожланишига таъсир этувчи омилларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

1. Мамлакат ички бозорининг ҳажми. Ривожланган бозорларга

эга йирик мамлакатларда зарурий ишлаб чиқариш омиллари ва истеъмол товарларини топиш имконияти юқори бўлади. Демақ бу мамлакатларнинг халқаро ихтисослашув ва товар айирбошлишда қатнашиш эҳтиёжи кам бўлади. Шу билан бирга ривожланган бозор талаби импортни кенгайтиришин талаб этади. Бу экспортга ё‘налтирилган ихтисослашувни кенгайтириш эвазига қопланади.

2. Мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражаси. Мамлакат

иқтисодий салоҳияти қанчалик кам бўлса, унинг ХМТда қатнашиш зарурияти шунчалик юқори бўлади.

3. Мамлакатнинг табиий ресурслар билан таъминланганлиги.

Мамлакатнинг юқори даражада моноресурслар билан таъминланганлиги (масалан, нефт), жумладан, фойдали қазилма бойликлари билан кам даражада таъминланганлиги ҳам унинг ХМТ да фаол қатнашиш заруриятини келтириб чиқаради.

4. Мамлакат иқтисодиёти таркибида етакчи саноат тармоқларининг улуши (енергетика, қазиб олиш саноати, металлургия ва б.).

Асосий тармоқлар улуши қанча юқори бўлса, одатда, мамлакат ХМТ тизимиға шунча кам жалб этилган бўлади.

Шуни қайд этиб ўтиш лозимки, юқорида келтирилган барча омиллар намоён бўлишига кўра ўзгармас эмас. Уларнинг таъсири у ёки бу даражада камайиши мумкин. Масалан, маҳаллий маҳсулотнинг халқаро рақобатбардошлигининг ўзгариши, экспортнинг чекланиши шулар жумласидандир.

ХМТ нинг ривожланиш жараёнидаги асосий хусусият — ушбу жараённинг ҳар бир иштирокчиси ўзининг ХМТ даги иштирокидан иқтисодий фойда, наф қидириши ва топишидир.

ХМТ нинг ривожланиш тенденсиялари иқтисодчиларнинг келажакда бу жараён янада чуқурлашиб боради, деб хулоса чиқаришлари учун асос бўлади. Унинг асосида товарлар ва хизматлар айирбошлишнинг миқёси жадал суръатлар билан ўсиб боради.

Ҳар қандай давлат халқаро айирбошлов жараёнида ХМТ нинг устунликларидан фойдаланаар экан:

биринчидан, экспорт қилинаётган товар ва хизматларнинг ташқи ва ички бозор нархлари ўртасидаги фарқдан ютиш; иккинчидан, ички харажатларни камайтириш мақсадида арzonроқ бўлган импортдан фойдаланиш эвазига миллий ишлаб чиқаришдан воз кечиши мумкин.

Жаҳон хўжалигини тизим сифатида кўриб чиққанда ХМТ ни бу тизимни ташкил қилган бирлаштирувчи асос деб тасдиқлаш мумкин.

Саноат жиҳатдан тарақкий этган мамлакатда ишлаб чиқариш ташқи истеъмолчиларга, ички талаб эса импортга ё‘налтирилган бўлади, деб тахмин қилинмоқда. Ривожланаётган мамлакатларда ички бозорнинг нисбатан тез, аммо экстенсив тарзда кенгайиши кутилмоқда.

ХМТ ички таркибга ва ривожланиш усулларига эга. ХМТ нинг асосий ажралмас хусусиятлари ишлаб чиқаришнинг халқаро ихтисослашуви ва кооперациялашуви ҳисобланади.

Ишлаб чиқаришнинг халқаро ихтисослашуви. Ишлаб чиқаришнинг халқаро ихтисослашуви икки ё‘налиш бўйича ривожланади — ишлаб чиқариш ва ҳудудий.

Ўз навбатида, ишлаб чиқариш ё‘налиши:

- тармоқлараро ихтисослашув;
- тармоқлар ичра ихтисослашув;
- алоҳида корхоналар ихтисослашувига бўлинади.

Ишлаб чиқаришнинг халқаро ҳудудий ихтисослашуви муайян товарлар ва уларнинг қисмларининг жаҳон бозори учун ишлаб чиқаришга ихтисослашувини ўз ичига олади:

- алоҳида мамлакат;
- мамлакатлар гурухи;
- минтақалар.

Ишлаб чиқарышнинг халқаро ихтисослашуvinинг асосий турларига қўйидагилар киради:

- предметли (тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш) ихтисослашув;
- деталли (маҳсулот қисмлари ва компонентларини ишлаб чиқариш) ихтисослашув;
- технологик ёки босқичли (яъни, алоҳида технологик жараёнларни амалга ошириш. Масалан, йиг‘иш, бўяш ва ҳ. к.) ихтисослашув.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. 2017 йил 7 феврал.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида (янги таҳрири)”ги Қонуни. 2019 йил 11 ноябр.
3. Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S. Byudjet tizimi. Darslik. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. -544 b.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 5 ноябр.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Банк сири тўғрисида”ги қонуни. 2020 йил 30 август.

SO‘Z BIRIKMASINI O‘QITISH

Maxsudova Gulnoza Erkinjonovna

*Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ona tili va adabiyoti
fani o‘qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11532990>

Abstract: This article presents scientific opinions about the problems and guidelines of teaching syntax. Practices are recommended.

Key words: syntax, subordinate, ruler, syntactic communication, syntactic construction, syntactic tool, discursive, verbal, practical, theoretical, voluntary-involuntary, concrete, abstract, realistic, autistic, intuitive, discursive, dialectical.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sintaksisni o‘qitish muammolari, yo‘l-yo‘riqlari haqida ilmiy fikrlar bayon etilgan. Amaliynusullar tavsiya qilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sintaksis, tobe, hokim, sintaktik aloqa, sintaktik qurilish, sintaktik vosita, diskursiv, verbal, amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz, konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv, dialektik.

Hozirgi zamon talabi ona tili o‘qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ma’lumki, yangilangan ona tili ta’limining mazmuni o‘quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og’zaki va yozma shakllarda to’g’ri bayon qilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Hayotimizning barcha sohalari kabi ta’lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minalash bugun tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga yoshlarimizni muvafaqqiyatli ijtimoiylashtirishining muhim omilidir. Mazkur vazifaning samarali hal etilishi o‘z navbatida ta’lim jarayonining yaxlit tizimi sifatida modernizatsiyalashni taqozo etadi.

Ma’lumki, olimlar so‘z birikmasining boshqa jihatlarini ochib berishda turli yondashuvlarga tayangan holda ko‘plab bir-biriga mos keladigan, shu bilan birga bir-biridan farq qiladigan fikrlarni bildiradilar. Dastlab so‘z birikmasi va boshqa til birliklari o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlari yuzasidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni ko‘rib o‘tamiz.

So‘z ham, so‘z birikmalari ham tilda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan birliklardir. So‘z va so‘z birikmalari o‘rtasida ko‘p jihatdan o‘xshashliklar mavjud. Bu o‘xshashliklar asosan quyidagilardan iboratdir: tilning asosini so‘zlar tashkil etadi. Lekin har bir so‘z konkret bir ma’no ifodalagani bilan hali u tugal emas. So‘zlar bir-birlari bilan munosabatga kirishib, gap bo‘lgandagina tugal ma’no ifodalaydilar va nutq shakliga kiradi. Lekin so‘zlar gap tarkibida xuddi munchoqni ipga tergani kabi birikmaydilar, ular gruppashadi, so‘z birikmalari deb ataluvchi ma’lum qurilish xarakteriga ega bo‘lgan so‘z gruppalarini o‘zaro birikadi. So‘zlarning ana shunday birikuvlardangina gap paydo bo‘ladi [Sharipov, 1918,

13]. Xullas, so‘zlar gap ichidagina yashaydilar va shundagina katta ahamiyatga ega bo‘ladilar. Bu jihatdan so‘z birikmalari ham so‘zlarga juda yaqin turadi. Ular ham nutqda, gapda yashaydilar. So‘zlar turlanadilar, tuslanadilar, o‘z formalarini o‘zgartiradilar. So‘zlarga xos bo‘lgan bu xususiyat so‘z birikmalarida ham saqlanadi. So‘z birikmalarining bosh so‘zi so‘z birikmasi tarkibida ham turlanish, tuslanish, forma o‘zgartirish xususiyatini saqlaydi. Natijada so‘z va so‘z birikmalarining paradigmasi vujudga keladi. Qiyoslang: Kitoblar, kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz va hokazo. Mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi, bizning kitobimiz, sizning kitobingiz; Maktabga bordim. Maktabga maktabga bordi. Maktabga bordik va hokazo. So‘zlar leksik, grammatic xususiyatlariga ko‘ra odatda so‘z turkumlariga ajratiladi, klassifikatsiya qilinadi. So‘z birikmalari kamida ikki so‘zning birikuvidan tashkil topib, ulardan biri bosh so‘z sanaladi. Bosh so‘z so‘z birikmasining asosini, yadrosini tashkil etadi. Bosh so‘z qanday so‘z turkumiga mansub so‘z bilan ifodalanganligiga ko‘ra so‘z birikmalari ham klassifikatsiya qilinadi (otli birikmalar, fe’lli birikmalar, ravishli birikmalar va hokazo). [Sharipov, 1918, 15]

Demak, so‘z birikmalarining klassifikatsiyasi so‘zlarga, ularning leksik, grammatic xususiyatlariga bog‘liq. Bu esa so‘z va so‘z birikmalari o‘rtasida bog‘liqlik, yaqinlik borligidan dalolat beradi va ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Omonimiya faqat so‘zlarga xos xususiyat. So‘z birikmalari ham leksik-semantic xususiyatga ega, lekin ular so‘zlar kabi tilda doimiy yashamaydi, faqat nutq protsessida tashkil topgani uchun o‘sha vaziyatning o‘zidagina, shu gap tarkibidagina biror murakkab ma’no ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun omonimiya hodisasi so‘z birikmalari uchun xos emas [Sharipov, 1918, 16]. Biror tushuncha so‘z orqali ifodalanganda bir so‘z ishtirop etadi. So‘z birikmasida ham xuddi so‘z kabi biror tushuncha ifodalanadi, lekin bu tushuncha bir so‘z bilan emas, leksik va grammatic jihatdan aloqaga kirishgan birdan ortiq so‘zlar - so‘z birikmalari orqali ifoda etiladi. So‘z birikmasi va so‘z yuzasidan ishlab chiqilgan nazariyalarda so‘z birikmalari ham so‘zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so‘z leksik hodisa, so‘z birikmasi grammatic hodisadir. So‘z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi, deya ta’rif berish bilangina chegaralanadi [Anorbekova, Mirzayeva, 2011, 171].

Tilshunos olimlar R.Sayfullayeva, B.Mengliyevlar bu borada quyidagi nazariy qarashlarni bildirgan: nutqda tushunchalarni aniqroq va muayyanroq ifodalash zarurati tug‘iladi. Bu esa nisbiy noaniq tushuncha ifodalovchi so‘zdan nisbiy aniq tushuncha ifodalovchi so‘z birikmasini afzal qilib qo‘yadi [Sayfullayeva, Mengliyev, 2009, 305]. Qiyoslang: O‘qimoq, tez o‘qimoq. Keyingi nutqiy hosilada harflarni urishtirib, ma’nosini tushunish harakati o‘qimoq so‘ziga nisbatan aniqroq. Chunki unga tez so‘zi ko‘maklashgan. Ko‘rinadiki, so‘z ham, so‘z birikmasi ham tushuncha ifodalaydi. So‘z ifodalaydigan tushuncha noaniq. Demak, kengroq (masalan, o‘qimoq felida harakat tez ham, sekin ham bo‘lishi mumkin), so‘z birikmasida esa ikki tushuncha o‘z mustaqilligini saqlagan holda nisbiy aniq va muayyan harakat (harflarni tez urishtirib, ma’nosini tushunish) ifodalangan. Demak, so‘z o‘z ma’noviy imkoniyatini to‘laroq va ravshanroq namoyon qilishi uchun boshqa bir mustaqil so‘zga ehtiyoj sezadi. Bundan tashqari so‘z birikmalarining xususiyatlarini guruhlarga ajratib umumlashtiradi [Sayfullayeva,

Mengliyev, 2009, 306]: a) birdan ortiq mustaqil so‘z; b) a’zolarning ma’noviy va grammatik jihatdan mosligi; d) tobelik; e) tushuncha ifodalash.

Murakkab so‘z birikmasi. Bunda birikmaning qismlaridan biri yoki har ikkisi so‘z birikmasi bilan ifoda etiladi. Masalan, mehnat qilishni sevadigan odam, odamlarga xayrixoh bo‘lgan kishi kabi so‘z birikmalarining tobe a’zosi («mehnat qilishni sevadigan», «odamlarga xayrixoh bo‘lgan») so‘z birikmasi shaklida qo‘llanib, hokim so‘zga bitishuv yo‘li bilan bog‘langan. Murakkab so‘z birikmasining biror qismi, ko‘pincha tobe qismi predikativ birlik, predikativ bog‘lanma bilan ham ifodalanishi mumkin: qiliqlari yoqimli bola, ota-onalarimiz bergen nasihatlar kabi birikmalarning tobe a’zosi («qiliqlari yoqimli», «ota-onalarimiz bergen») gapga teng qurilma, ya’ni predikativ birlik, predikativ bog‘lanma bilan ifodalangan.

Sintaktik aloqa turlari

So‘zlarning, shuningdek, gaplarning orasidagi bog‘lanish, aloqa ikki xil bo‘ladi:

- 1) *teng bog‘lanish, yoki teng aloqa;*
- 2) *tobe bog‘lanish, yoki tobe aloqa.*

Teng bog‘lanish

sintaktik jihatdan teng huquqli bo‘lgan, biri ikkinchisiga bo‘ysunmagan so‘zlarning yoki gaplarning aloqasidir. Bunda teng aloqadagi so‘zlar yoki gaplar o‘zaro teng bog‘lovchilar, teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar, sanash ohangi (ohang) yordamida munosabatga kirishadi.

Masalan: 1. Beminnat qilingan ezgulik eng maqbul va go‘zal ezgulikdir. (Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur). 2. Bilmaslik ayb emas, bilishni istamaslik aybdir. (Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur).

Birinchi misolda eng maqbul, go‘zal sifatlari o‘zaro teng bog‘lanib, gapda uyushiq sifatlovchilar vazifasini bajargan. Ikkinci misolda esa Bilmaslik ayb emas va Bilishni istamaslik aybdir gaplari bir-biri bilan teng aloqaga kirishgan.

Tobe bog‘lanish

biri hokim, ikkinchisi tobe bo‘lgan qismlar (so‘zlar, ergash gapli qo‘shma gap qismlari) o‘zaro aloqaga kirishadi. Ularning biri ikkinchisini aniqlash, izohlash, to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Aniqlaydigan, izohlaydigan, to‘ldiradigan qismi tobe, izohlanadigan qism hokim deb yuritiladi: 1. Kitobni o‘qimoq, qiziqarli voqeа. 2. Kimning himmati baland bo‘lsa, qadr-qimmati ham bo‘ladi (Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur). Birinchi misolda so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlardan biri hokim qism (o‘qimoq, voqeа), ikkinchisi (kitobni, qiziqarli) tobe qism bo‘lib kelgan. Ikkinci misolda ergashgan qo‘shma gapning qismlaridan biri «qadr-qimmati ham baland bo‘ladi» hokim qism, bosh gap sifatida, ikkinchisi «kimning himmati baland bo‘lsa» tobe qism, ergash gap sifatida qatnashgan. Shunday qilib, bog‘lanishning ikki xil turini so‘zlar orasida ham, gaplar orasida kuzatish mumkin. (Gaplar orasidagi bog‘lanish haqida «Qo‘shma gap» bo‘limida bahs yuritiladi).

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida so‘z birikmasi tuzilish strukturasiga ko‘ra, grammatik munosabatga kirishishiga ko‘ra, ba’zi shakllarda so‘zga, ba’zi o‘rinlarda gapga tenglanishiga ko‘ra murakkab tuzilma hisoblanadi. Ular uchun ayni bir qolipni belgilab olish qiyin hisoblanadi. Shuningdek, so‘z birikmasi tarkibida o‘rganilayotgan nomli birikmalarni ham qayta ko‘rib chiqish zaruriyat kasb etadi. Bir so‘z bilan aytganda,

so‘z birikmasi tasnifi va uni o‘rganish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011.
2. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent, 1965.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent, 1995. \
4. Asadov Y.M., Turdiev N., Akbarova S., Temirov S., Babadjanov o‘quvchilarda kompetentsiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikasi.- Toshkent: Qori Niyoziy nomidagi o‘ZPFITI bosmaxonasi, 2016.-158 b.
5. Zaripov, K. Pedagogicheskaya diagnostika v sisteme nepreryvnogo povysheniya kvalifikatsii uchiteley: avtoref. diss. . d-ra ped.nauk / K.Zaripov.- Tashkent, 1990. 35 s.
6. Ingenkamp K. Pedagogicheskaya diagnostika.- Moskva “Pedagogika”, 1991.

**QADIMGI YUNONISTONDA DIDAKTIKA, PEDAGOGIKA,
METODOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI**

Yusupova Gulmira Zafarovna

Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11533088>

Abstract: In this article, there are scientific opinions about the unique methods of didactics, pedagogy, and methodology in Ancient Greece.

Key words: didactics, pedagogy, methodology, democracy, Hellenic, Hellenistic, didaktikos, pedagogicos, culture, Olympiad, game, system, society.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Yunonistonda didaktika, pedagogika, metodologiyaning o'ziga xos uslublari haqida ilmiy fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: didaktika, pedagogika, metodologiya, demokratiya, ellin, ellinizm, didaktikos, pedagogikos, madaniyat, olimpiada, o'yin, tuzum, jamiyat.

Yunoniston uncha katta bo'limgan bir qancha quzdorlik davlatlaridan tashkil topgan. Uning mo'tabar shaharlari Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina)dir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo'ldi. Ammo ikkala davlatda ham quzdorlik tuzumi hukmron edi. Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar.

Lakoniya (Sparta)da kemalar to'xtaydigan qulay gavanlar bo'limganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan iborat bo'lgan quzdorlar 250 mingdan ko'proq aholiga hukmronlik qilardi. Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'hb, uning asosiy maqsadi spartaliklaming bolalarini baquwat, jismoniy soglom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Spartaliklaming bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «agella» deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga etguncha tarbiyalanar edi. Ular «pedonom» rahbarligida jismoniy sog'lom bo'lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilar edi. Ta'limning asosiy qismini harbiy gimnastiqa mashqlari egallar edi. Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablari- dagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi: «*O'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirjishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi*».

Spartada ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni quzlarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da, ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday qulni oldirar edilar. Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yol bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar,

bolalarni savol-javob jarayonida aniq va lo'nda javob berishga o'rgatgan. Yigitlar 18—20 yoshga etganda «Efeblar» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Ulami harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan quollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab, qullarni itoatda saqlashini ta'minlar hatto jangga ham qatnashardilar.

Afinada esa hayot, tartib, intizom, mактаб tizimi va undagi ta'lіm- tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar, qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizzdan ilgarigi V—IV asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi. Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan etuk kishini, Afinada eng ko'rкам va barkamol inson(ideal) hisoblangan. Bolalar 7 yoshga etguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zgor ishlariga o'rgatilar, chunki xotin-qizlaming hayoti uy doirasidan chiqmas edi. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13—14 yoshgacha «grammatist» (savod o'rgatish ma'nosida) yoki «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil oiganlar. Bu xususiy maktablarda o'qish pullik bo'lgan. Shuning uchun kamxarj fuqarolaming bolalari ushbu maktablarda ta'lіm ololmagan.

Maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (Men o'qitaman, degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» — ta'lіmm nazariyasi kelib chiqqan). O'g'il bolalami maktabga qullar yetaklab borar edi, bunday quл pedagog deb atalgan («pays» - bola, «agogeyn» - yetaklab borish degan so'zlardan olingen). Grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi, o'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalangan va ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblagan. Kifarist maktabida adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, muzika, ashula, deklomatsiyalar o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 13-14 yoshga yetganlaridan keyin palestra («kurash mактаби») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar, bu yerda ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanardilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurashish, disk va nayza uloqtirish, suvda suzish kabilar. Palestrada o'qish tekin bolgani uchun yoshlama ko'pchiligi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Badavlatroq oiladan bolganlari esa palestrani tugat- gach gimnasiyga (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar, tahsilni tugatganlar davlat boshqaruvihda qatnashishlari mumkin edi. Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bolgan yoshlar Efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirardilar. Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababhu ularga kasbhunar o'rgatish odad tusiga kirgan edi. Ayrim xat- savodi bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlar o'rgatar edilar. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'-yilib bechorahol tabaqaga mansub ota- onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar. Aks holda ulaming bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'grisida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilgan.

Qadimgi Yunonistonda pedagogik nazariyalarning tug'ilishi

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining tug'ilishiga imkon yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon,

Aristotel va Demokritlar asos soldilar. *Arastuning fikricha, joning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya - jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyalardir. Tarbiyaning maqsadi aql va irodani kamol toptirishdan iborat. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bolganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang'ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati mavjud va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi.*

Yunoniston tarixini o'qitishda metodik o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Biz o'z darsimizni ushbu metodlar orqali amalga oshirdik va boshqalarga ham tavsiya qilamiz.

IKKI QISMLI KUNDALIK METODI:

Ushbu metodda daftarning sahifasi chiziqcha bilan ikki qismga bo`linadi.O`quvchi o`qituvchining ta`sir qilgan,qiziqtirgan,o`ylantirgan,so`zlarini chap tomonqa yozadi.O`ng tomonda esa yozilgan so`zlarning izohini beradi .

“METAKARTA” METODI:

Bu metodda o`quvchilar bir-birlari bilan bahslasha olmaydilar.Bu metodda vazifalar qog`oz varag`ida bajariladi,o`quvchilar gaplashmaydi,fikrlar qisqa va lo`nda shakllantirilishi kerak.Bu metod ayni paytda o`quvchilarda qiziqtirayotgan vaziyatni tahlil qilish uchun qo`llaniladi.Bu metodning ijobiy tomonlari: Bir vaqtning o`zida ham guruhda ham individual tarzda ish olib boriladi.O`quvchilar o`rtasida fikr almashishga yordam beradi.O`quvchilarda boshqalar fikrini tinglashga va qarshlarini hurmat qilishga undaydi.O`quvchilarni o`z qarorini asoslashga o`rgatadi,barcha o`quvchilarni ishlashga undaydi.

Jamiyatimizni erkinlashtirish g‘oyasi bevosita ta’lim jarayonida o‘z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o‘zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta’milanadi. Kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning erkin firklovchi, barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlanish zarur. Ularning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganib, o‘zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashida to‘siq bo‘ladigan salbiy psixoloogik holarlarni aniqlash va bartaraf etish lozim. Negaki bu holatlar faqatgina yoshlarning bilim olishida to‘siq bo‘lib qolmasdan, balki ularning o‘z-o‘zini past baholashiga ham olib keladi va bu narsa o‘z navbatida shaxsning boshqa psixik jarayonlarining normal rivojlanishida salbiy ta`sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uning milliy zaminini mustahkamlash zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmasi darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil firklovchi erkin shxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan idorasib aqquvvat, imoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ana shunday keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 297 б.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 320 б.
4. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. – М.: Наука, 1987. – 188 с.
5. Бикерман Э. Хронология древнего мира. Ближний Восток и античность. – М.: Наука, 1975. – 336 с.

MAKTABLARDA ICHI BO'SH SO'ZLARNI O'QITISH

Hasanova Dildora Ikromovna

*Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ona tili va adabiyoti
fani o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11533193>

Abstract: The theme of proverbs created by mankind is wide and varied. Pronouns have a general (abstract) meaning specific to a person, object, character or quantity. The meaning of the pronoun is clearly revealed in the speech process. They change morphologically like the words they replace. Pronoun teaching in schools is very important and relevant today.

Key words: hollow words, pronoun, grammar, sign word, auxiliary word, meaning, show.

Annotatsiya: Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiyligi (mavhum) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'zlar kabi morfologik jihatdan o'zgaradi. Maktablarda olmoshni o'qitish bugungi kun uchun juda muhim va ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: ichi bo'sh so'zlar, olmosh, grammatika, ishora so'z, yordamchi so'z, ma'no, ko'rsatish.

Ma'lumki, so'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra uch tipga bo'linadi:

- a) *mustaqil ma'noli so'zlar (fe'l, ot, sifat, son);*
- b) *bo'sh - ishora ma'noli so'zlar (olmosh);*
- v) *yordamchi ma'noli so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar).*

"Ishoraviylik" ramzi bilan ataluvchi olmoshlar boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib "ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'zlar" deb o'ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan edi. Olmoshlar guruhiga *men, sen, u, biz, siz, ular* kabi shaxsga; *kirn, nima, bu, ana, mana, mana bu* kabi predmetga; *qanday, bunday, shunday* kabi belgiga; *buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga; *qachon* kabi paytga; *qaer* kabi o'ringa; *shunday bo Imoq, qanday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksemalar kiradi. Shuni aytib o'tish joizki, olmoshlar hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni "almashtirib", uning o'rnida kelavermaydi. Misollar:

1. *Kim mehnat qilsa, u roat ko'radi.*
2. *Men kecha keldim. Sen buni bilasan.*
3. *Nima qilsam ham men o'zim bilaman.*

4. Hamma mehmonlar biznikida.

5. Barcha mushkulotlar oson bo'ldi kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshlari hech bir so'zni almashtirmagan.

Arab tilshunosligida olmoshlar alohida so'z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida "yashirin ma'noli so'zlar" (**zamirlar**) sifatida alohida guruhlarga ajratilgan. Chunonchi, *kitob*, *daftar*, *Abbos* - aniq ma'noli otlar bo'lsa, *men*, *sen*, *kim* - yashirin ma'noli otlar (zamir otlar) dir. Yoxud *oq*, *qizil*, *chiroyli* — ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, *bunday*, *shunday* kabilar "zamir sifatlar" dir.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy (mavhum) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'zlar kabi morfologik jihatdan o'zgaradi.

Olmoshning ma'no guruhlari

Olmosh qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkumga xos sintaktik vazifani bajaradi: *O'qituvchi darsga kirdi*. *U o'quvchilar bilan salomlashdi*. Olmoshlar o'zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi: *Hamma xursand va shod*. *U kitobni o'qidi*.

Olmoshlar ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

- 1. Kishilik olmoshlari.**
- 2. Ko'rsatish olmoshlari.**
- 3. O'zlik olmoshlari.**
- 4. Belgilash olmoshlari.**
- 5. So'roq olmoshlari.**
- 6. Gumon olmoshlari.**
- 7. Bo'lishsizlik olmoshlari.**

I. Kishilik olmoshlari shaxs olmoshlari deb ham yuritiladi, chunki shaxsga ishora qilib keladi. Shaxs olmoshlarining qo'llanishida ayrim o'ziga xosliklar bor. Shaxslar o'z ma'nosidan tashqan ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Chunonchi:

1. *Biz* olmoshi II shaxs ko'plikdagi *siz* olmoshi o'rnida qo'llianadi: *Qani, endi biz ishga tushaylik*. Bunda tashviq ma'nosianglashilib turadi.

2. Ko'plikni ifodalovchi olmoshlar birlik uchunqo'Hanadi: *Bu ishni biz uddaladik*. Ushbu gapda *men* o'rnida ishlatalilgan *biz* maqtanish, kibr ma'nosini ifoda etyapti.

3. *Men* o'rnida *biz* olmoshi ishlatalib, kamtarlikni ifodalashimumkin: *Biz bu maqolada echimini kutayotgan muammoni olibchiqdik*.
4. *Sen* o'rnida *siz*, *u* o'rnida *ular* olmoshi ishlatalib, hurmatma'nosini ifodalaydi: *Siz bugun darsda faol ishtirot etdingiz*. Menbuvimni yaxshi ko'raman. Ular ham meni sevadilar.
5. *Siz* olmoshi, ko'pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo'llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko'plik sonda *sizlar* shakliishlatilishi mumkin: *Sizlar kelajagimiz*.

6. Kishilik olmoshlariga *-lar* qo'shimchasi qo'shilganda turli xil ma'nolar voqelanadi:

-*Senlarga aytyapman* (kamsitish ma'nosi). -*Sizlarda insof bormi?* (ko'plik ma'nosi).

II.Ko'rsatish ma'nosini anglatuvchi olmoshlar (*bu, shu, mana, ana, u, o'sha, hov* va boshqalar) shaxs, predmet, belgini alohida ko'rsatish, ta'kid ma'nolari uchun xizmat qiladi. Ular lfodalovchi (ishoraviy) nom ham turlicha:

-shaxs yoki predmetga ishora qiladi: *-Siz o 'shami?*

(A. Qod.)

-belgiga ishora qiladi: *Menda ham shunaqa kitoblar bor.*

-vaqtga ishora qiladi: *Shu-shu Fotima kelmay qoldi.*

-o'ringa ishora qiladi: *Siz - unda, biz - bunda.*

III.O'zlik olmoshi. Bu olmosh turi «ta'kid», «tegishhlik» ma'nosini anglatadi: *Mening o'zim bilaman.* «O'xshatish» ma'nosi ham matndagi *o'z so'zi* orqali ifodalanadi: *Onasining o'zi.* «Umumiylilik», «noaniqlik» kabi ma'nolar -*O'zim.* (*shunchaki*) turdag'i gaplarda ro'yobga chiqadi.

IV.So'roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi, harakatm aniqlash maqsadida ishlataladi. Ular quyidagilarga bo'linadi:

-shaxsga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*kim, kimlar*);

-voqe-a-hodisa, predmetlarga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*nima, nimalar*); olmoshlar {*qanday*,

-belgini *qanaqa*);

-sabab va maqsadni aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*nega, nima uchun, nechuk*);

-miqdorga nisbatan *qancha*);

-harakat-holatga nisbatan *qildi, nima bo Idi*);

-o'rin ma'nosini ifodalovchi so'roqlar (*qani, qayerda*);

-payt ma'nosini ifodalovchi so'ro qlar (*qachon, qachonga*).

Bunday olmoshlar faqat so'rash ma'nolarini yuzaga chiqarmaydi, ma'noni bo'rttirish (*kimki, nimaki*), ritorik so'roq (*Men sizga nima dedim?!*), taajjub (*Butting nimasi yomon?!*) kabi ma'nolarni ifoda etadi.

V.Belgilash olmoshlari. *Har* so'zi belgilash olmoshi bo'lib, ko'pincha, so'roq olmoshlari bilan birikib keladi va qo'shma belgilash olmoshlari yasaydi. Jamlik ifodalovchi olmoshlar predmet, shaxs, belgiga nisbatan yig'indini, to'dani ifodalaydi: *hamma, yalpi, har kim, barcha, bah, butun.*

VI.Gumon olmoshlari muayyan predmet, shaxs, belgi yoki harakat xususida o'ta mavhum tushunchani bildiradi. So'roq olmoshlari bilan qo'shilib keladigan *alia-* va **-dir** ushbu olmoshlarga noaniqlik ma'nosini kiritadi.

VII.Bo'lishsizlik olmoshlari ma'no jihatdan tasdiqqa nisbatan zidlikni bildiradi va *hech* so'zi bilan hosil bo'ladi.

Bu olmoshlar gapni (fikrni) inkorga aylantiradi: *hech nima, hech kim, hech qachon, hech mahal...*

Tilimiz tarixida ham, hozir ham ba'zan juda ko'tarinki, tantanavor nutqda kamtarinlik uchun, manmanlik qilmaslik uchun *men kishilik olmoshi o'rnida kamina, faqir, banda* so'zlari qo'llaniladi. Bular tilshunosligimizda *ot-obnoshlar* nomini olgan.

Umumta’lim maktablarining “Ona tili” o‘quv dasturidan o‘rin olgan “Olmosh” so‘z turkumi mavzulari va ular uchun ajratilgan o‘quv soatlari o‘quvchilarga bu bo‘lim yuzasidan yetarlicha bilim berishga, ularda shu mavzlar bo‘yich ko‘nikma va malakalar hosil qilishga imkon beradi. Mavzuga oid termin- tushunchalar, o‘qitilishi lozim bo‘lgan grammatik qoidalar, ularagi uzviylik ilmiylik o‘quvchida bu so‘z turkumi yuzasidan yetarlicha bilim olishga, ko‘nikma va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan, o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga, bog‘lanishli nutqini shakllantirishga, ularning so‘z boyligini oshirishga, so‘z va uning ma’nolari ustida ishlash ko‘nikmalarini va sintaktik qurilmalar ustida ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan uzviy tizim sifatida bayon qilingan. Ammo o‘quv soatlarini biroz ko‘paytirilganda yaxshi bo‘lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Ona tili o‘qitish metodikasi. K. Qosimov, S. Matchonov, X.G’ulomova, Sh.Yo’ldosheva, Sh. Sariyev. – T.: “NOSHIR”, – 2009
2. O’zbek xalq og‘zaki ijodi. O. Madayev. – T.: MUMTOZ SO’Z, 2010
3. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo’chqorov, Sh. Rizayev. – T.: “Sharq”, 2020
4. Abdullayeva, O. O. (2021). Abay ijodini o’rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(3), 4-9.
5. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg’ularini o‘stirish. Academic research in educational sciences, 2(3), 176-180.
6. Botirboyev, F. P., Abdullayeva, O. O., & Shermatova, U. S. (2021). O’ljas Sulaymonov ijodini o’rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(4), 2013-2018. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00834>

ALISHER NAVOIYNI O‘QITISH – ASOSIY VAZIFAMIZ

*Jo‘raboyeva Madina Rustambek qizi
Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ona tili va adabiyoti
fani o‘qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11533264>

Abstract: In the work of Eastern poets, there are many opinions about the attention to language, the place and service of language in human life, the honoring of a person, and the purposes for which a person uses language as his main means of communication. We will discuss them in this article.

Annotatsiya: Sharq shoirlari ijodida tilga e’tibor, tilning inson hayotidagi o‘rni, xizmati, insonni sharaflashi va inson o‘z asosiy aloqa quroli tildan qanday maqsadlarda foydalanishi xususida fikrlar ancha. Ushbu maqolada shular haqida babs yuritamiz.

Kalit so‘zlar: devon, matla’, maqta’, doston, integratsiya, texnologiya, ta’lim, yangilanish, innovatsion texnologiya, individual elementlar, ta’lim, pedagogika, metod, texnologiya, interfaollik, kreativlik, xotira, diskursiv, verbal, amaliy, nazariy, vizual, didaktik o‘yin.

«So‘z» deganda shoirlar insonni hayvondan ajratib turadigan nutqni, tafakkurni, o‘zaro aloqa vositasi – tilni, badiiy adabiyot va umuman yozma va og‘zaki ijodni, tilning kishi xulq-atvori, odobiga ta’siri, tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutganlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, inson ixtiyoridagi ijodiy ne’mat til qadriyatiga yuksak baho berilgan, undan o‘z urnida to‘g‘ri va foydali ishlar uchun foydalanish haqida pand va nasihatlar asosiga qurilgan mushohadalar yuritilgan. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, Navoiy va Xusrav Dehlaviyning til, so‘z haqida bayon etgan fikrlari boshqa tadqiqotchilarining ham diqqatini tortgan. Ammo bu masala, birinchidan, butun Sharq adabiyoti an’analari kontekstida olib o‘rganilgan emas, ikkinchidan «Xamsa» dostonlarning umumiylazmuni, mohiyatiga bog‘lab talqin etilmagan. Jumladan, ikki ulkan shoir Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiyning til, til odobi, badiiy adabiyot borasidagi qarashlari chog‘ishtirib chiqilmagan, ularning qarashlari orasidagi farqlar ochilmagan. Shuning uchun biz quyida bu adiblarning mazkur masalaga oid mulohazalari aks etgan she’riy baytlarini tahlil qilishni lozim topdik.

Avvalo, Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy qarashlaridagi mushtaraklikka e’tiboringizni qaratmoqchimiz. Har ikki shoir ham So‘z – birinchi qudrat turkisini, olamning yaratilishiga nido – asos bo‘lgan, degan falsafiy tushunchaga e’tiqod qiladilar. Go‘yo Mutlaq iloh moddiy olamni yaratish maqsadida «*kun*», «*fakona*» – «*yaral*», «*bo‘l*», deb xitob etgan va dunyo yaralgan ekan. Ya’ni, so‘z birlamchi (azaldan), amal ikkilamchi, degan tushuncha ham shunday kelib chiqqan. Mutlaq iloh olamni yaratgandan keyin So‘zni insonga bag‘ishladi. Xusrav Dehlaviyning fikricha, olam ham, odam ham so‘z uchun qolip – iloh ruh manzilgohi. Insonning tirikligi, joni, hayoti so‘z tufayli, zero Odamiydan o‘zga

so‘zlovchi tirik vujud yo‘q. Hayvonlar ham tirik, yuradi, ammo nutq nuqtayi nazaridan ular ham tirik emas.

Pas chu chunin ast, suxan joni most,

V-on ki bad-u zinda buvad, z-oni most [Dehlaviy, 1975: 112].

(Shunday bo‘lgach, so‘z bizning jonimizdir va nimaiki bizni tiriltirsa, u biznikidir). Alisher Navoiyning fikricha ham: «So‘z gavharning sharafi» balandligiga sabab uning butun olam qudrati tarafidan tuhfa etilganidir. U «to‘rt sadaf gavharning durji» – ya’ni to‘rt unsur (suv, havo, o‘t, tuproqdan hosil bo‘lgan inson zotining bosh xususiyatini belgilaydi, inson nutqi bilan inson, nutq uni barchadan afzal etadi. So‘z, nutq – ruh, qolip ichidagi jon, hayot, harakat demak, til faqat aloqa quroli, insonni mumtoz etgan ne’matgina emas, balki inson uchun azob-iztiroblar keltiradigan narsa ham, zero til – kishi boshiga ko‘p falokatlar keltiradi, «ruhni halok etadi». Navoiyning masalaga qanchalik chuqur qaraganini his etish qiyin emas. O‘zbek shoiri fikrini davom ettirib yozadikim, so‘zning kuchi benihoya ulug‘, «kalomi faseh (go‘zal so‘z) o‘lganni tiriltirishi ham mumkin. Shohning bir og‘iz so‘zi, deydi Navoiy, «bedod» – zulmga sabab bo‘ladi, ammo o‘rtada jallod badnom bo‘ladi. So‘z mas‘uliyati qanchalik baland ekanini, odamlar taqdiri, kishilarning hayoti bir so‘z bilan hal etilishi – yo baxtga tuyassar, yo abadulabad badbaxt bo‘lishini, so‘z odamlarini jonfidolikka, ulug‘ maqsadlar sari kurashga safarbar etishini qayd etgan. Navoiy, ayni vaqtida so‘zning estetik ta’sir kuchini ko‘rsatishni unutmagan. Shoir qiziq misol keltiradi: «G‘uncha og‘izlik sanami no‘shab» go‘zalni ko‘rsang, uning xush surati, zebo qad-u qomati kishini lol qoldirsa-da, zohiran uning chiroyli suratdan uning farqi yo‘q. Lekin, agar shu chiroy, husnga yarasha malohatli, jonsitan nutqi ham bo‘lsa, u:

Solg‘usi jinsi bani odamg‘a o‘t,

Ne bani odam, bari olamg‘a o‘t.

Har dam etib elni halok o‘rtagay,

Balki bashar xaylini pok o‘rtagay [Navoiy, 1960: 34].

Mana shu yerda Navoiy badiiy adabiyot, ya’ni «fasohatli so‘z»ning so‘z-u gudozidan hikoya boshlab, she’rning, shoir so‘zining qudratini ustalik bilan qayd etadi. Bunda ham nozik yo‘l topgan: boyta o‘zi ta’rif etgan o‘sha go‘zal so‘zga chechanligi bilan olam ahlini mast-u sarxush eta oladi, ammo u Navoiy g‘azalini o‘qisa-chi. Unda:

Kim anga alfov o‘lub otash fishon,

Bersa ulus ko‘nglig‘a mungdin nishon.

Bazmda ul lahza aololoni ko‘r,

Ko‘yi xarobot aro g‘avg‘oni ko‘r.

Ko‘rki nechukdur yaqo chok aylamak,

O‘zni fig‘on birla halok aylamak [Navoiy, 1960: 34].

Shoir umuman badiiy so‘zning ta’sir kuchini, jumladan, o‘z she’rlarining naqadar baland qadrlanishi, odamlar ko‘ngiliga g‘ulg‘ula solib, hayajon qo‘zg‘ashini faxr bilan tasvirlagan.

Xullas, so‘z, nutq insonni hayvondan ajratuvchi mezon ekan, so‘zni qadrlash, tilga e’tibor qilish lozimligini uqtirish Sharqning ko‘p shoirlarida bor. Ko‘rinadiki, har bir adib bunda an’anaviy xulosalarini yangi ifoda-ibora bilan takrorlash barobarida o‘zi hayotda ko‘rgan, kuzatgan voqeа-hodisalardan chiqargan xulosalarini ham singdirgan. Zero, nasihat, foydali gap aytish, odamiylik xislatlarini himoya qilish ham shoirning burchi hisoblangan.

Ayniqsa, Nizomiy, Navoiy, Xusrav Dehlaviy kabi mutafakkir adiblarda bu intilish aniq sezilib turadi. Umuman olganda so‘z – odamning sharafi, so‘z – fazilat, so‘z – axloqiy kamolot vositasi. Shuning uchun uni shu yo‘lda sarflash lozim. Buyuk shoirlarning xulosasi ana shu.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1-2-jiddlar G’Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.
2. Sirojiddinov Sh. O’zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlod, 2011.
3. Yusupova D. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). O’quv qo’llanma. – T.: Akademnashr, 2016.
4. Yusupova D. “Alisher Navoiy “Xamsasi”da ritm va mazmunning uyg‘unligi” T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2011.
5. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. – T.:Fan, 1983.
6. To’xliev B. Badiiy asarlarni sharhlab o’rganish (Mumtoz adabiyot namunalari misolida). –T.:TDTU, 2013.

MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA METOD VA O'YINLAR

Sharobitdinova Dilfuza Madaminovna

Farg'onan viloyati, TATU FF akademik litsey matematika fani o'qituvchisi

Dostonova Nodiraxon Muxtorjon qizi

Farg'onan viloyati, TATU FF akademik litsey matematika fani o'qituvchisi

Toshxodjayeva Nigora Odiljon qizi

Farg'onan viloyati, TATU FF akademik litsey matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya – Ushbu maqolada matematika fanini o'qitishdagi o'yin va metodlar haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan. Ma'lumotlar amaliy va nazariy jihatdan tekshirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim metodi, ilmiy-izlanish metodi, tajriba metodi, kuzatish metodi, taqqoslash metodi, analiz metodi, sintez metodi, umumlashtirish metodi, tushunchani umumlashtirish, teoremani umumlashtirish, misollarni umumlashtirish.

Ma'lumki, matematika fani mavjud moddiy dunyodagi narsalaming fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlami o'rganish jarayonida «ilmiy izlanish» metodlaridan foydalanadi. Shuning uchun ham ushbu darslikda ilmiy izlanish metodlaridan kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz hamda sintez, umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirishlami matematika darslarida qo'llanishi ilmiy-metodik jihatidan tushuntirishga harakat qilingan. Matematikani o'qitish jarayonida fikrlash formalarini paydo qilish metodikasi ham yoritilgan, ya'ni hissiy bilish (sezgi, idrok, tasawur) bilan mantiqiy bilish (tushuncha, hukm, xulosa) orasidagi mantiqiy bog'lanishlar ochib berilgan. Matematik tushuncha va uni o'quvchilar ongida shakllantirish metodikasi, matematik hukm va uning turlari bo'lmish aksioma, postulat va teoremalami o'quvchilarga o'rgatish metodikalari yoritilgan. Matematik xulosa va uning induktiv, deduktiv hamda analogik turlarini dars jarayonidagi tatbiqlari ko'rsatilgan. Matematika fanini o'qitishdagi didaktik prinsiplarning turlarini o'rgatishga alohida ahamiyat berilgan. Darslikda yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy metodlaridan: ma'ruza, suhbat, mustaqil ish, evristik va muammoli ta'lim metodlarini dars jarayonida qo'llanilishiga katta ahamiyat berilgan. Matematika darsi, uning tuzilishi va uni tashkil qilish metodikasi, matematika darsining turlari, darsga tayyorgarlik va uning tahlili matematika darsiga qo'yilgan talablar ochib berilgan. Darslikda yana son tushunchasini kiritish va uni kengaytirish, ular ustida to'rt amalni bajarish, maktabdagi ayniy shakl almashtirishiami o'rgatish, maktab matematika kursidagi tenglama turlari, tenglamalar sistemasi hamda parametrik usulda berilgan tenglamalami yechish metodikalari ham ko'rsatib o'tilgan.

Matematika so'zi qadimgi grekcha — *mathema* so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «fanlarni bilish» demakdir. Matematika fanining o'rganadigan narsasi (obyekti) materiyadagi mavjud narsalaming fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iborat. Hozirgi davrda matematika fani shartli ravishda ikkiga ajraladi:

- 1) elementar matematika,
- 2) oliv matematika.

Elementar matematika ham mustaqil mazmunga ega bo'lgan fan bo'lib, u oliv matematikaning turli tarmoqlaridan, ya'ni nazariy arifmetikadan, sonlar nazariyasidan, oliv algebradan, matematik analizdan va geometriyaning mantiqiy kursidan olingan elementar ma'lumotlar asosiga qurilgandir. Oly matematika fani esa real olamning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni to'la hamda chuqr aks ettiruvchi matematik qonuniyatlami topish bilan shug'ullanadi. Elementar matematika fani matematika kursining asosini tashkil qiladi. Maktab matematika kursininng maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar sistemasini ma'lum usul (metodika) orqali o'quvchilarga yetkaziladi. (Metodika so'zi grekcha so'z bo'lib, «yo'l» degan ma'nani anglatadi.) Matematika metodikasi pedagogika va didaktika fanining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, jamiyatimiz taraqqiyoti darajasida ta'lim maqsadlariga mos keluvchi matematikani o'qitish, o'rganish qonuniyatlarini o'rganadigan mustaqil fandir. Matematika metodikasi ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan quyidagi uch savolga javob beradi:

- 1. Nima uchun matematikani o'rganish kerak?**
- 2. Matematikadan nimalarni o'rganish kerak?**

Matematikani qanday o'rganish kerak? Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo'lib, shveytsariyalik pedagog-matematik G. Pestalotsining 1803-yildayozgan «Sonni ko'rgazmali o'rganish» asarida bayon qilingan. XVII asming birinchi yarmidan boshlab matematika o'qitish metodikasiga doir masalalar bilan rus olimlaridan akademik S.E. Gurev (1760—1813), XVIII asming birinchi va ikkinchi yarmidan esa N.I. Lobachevskiy (1792—1856), I.N. Ulyanov (1831—1886). L.N. Tolstoy (1828—1910) va atoqli metodist matematik S.I. Shoxor-Trotskiy (1853—1923), A.N. Ostrogradskiy va boshqalar shug'ullandilar va ular matematika faniga ilmiy nuqtayi nazardan qarab, uning progressiv asoslarini ishlab chiqdilar. Masalan, A.N. Ostrogradskiy «Ong kuzatishdan keyin paydo bo'ladi, ong real, mavjud olamga asoslangan» deb yozgan edi. Geometriya metodikasidan materiallar (Материалы по методике геометрии, 1884-yil, 8-bet.). Keyinchalik matematika o'qitish metodikasining turli yo'nalishlari bilan N.A. Izvolskiy, V.M. Bradis, S.E. Lyapin, I.K. Andronov, N.A. Glagoleva, I.Ya. Dempman, A.N. Barsukov, S.I. Novoselov, A.Ya. Xinchin, N.F. Chetveruxin, A.N. Kolmogorov, A.I. Markushevich, A.I. Fetisov va boshqalar shug'ullandilar. 1970-yildan boshlab maktab matematika kursining mazmuni yangi dastur asosida o'zgartirildi, natijada uni o'qitish metodikasi ham ishlab chiqildi. Hozirgi dastur asosida o'qitilayotgan maktab matematika fanining metodikasi bilan professorlardan V.M. Kolyagin, R.S. Cherkasov, P.M. Erdniyev, J. Ikramov, N. G'aybullayev, T. To'laganov, A. Abduqodirov va boshqa metodist olimlar shug'ullanganlar va shug'ullanmoqdalar. Matematika o'qitish metodikasi pedagogika universitetlarining III—IV kurslarida o'tiladi. U o'zining tuzilishi xususiyatiga ko'ra shartli ravishda uchga bo'linadi.

1. Matematika o'qitishning umumiy metodikasi. Bu bo'limda matematika fanining maqsadi, mazmuni, formasi, metodlari va uning vositalarining metodik

sistemasi, pedagogika, psixologiya qonunlari hamda didaktik prinsiplar asosida ochib beriladi.

2. Matematika o‘qitishning maxsus metodikasi. Bu bo‘limda matematika o‘qitish umumiy metodikasining qonun va qoidalarining aniq mavzu materiallariga tatbiq qilish yo‘llari ko‘rsatiladi.

3. Matematika o‘qitishning aniq metodikasi.

Bu bo‘lim ikki qismidan iborat:

1. Umumiy metodikaning xususiy masalalari.

2. Maxsus metodikaning xususiy masalalari.

O‘qituvchi interfaol metodlardan mavzuga muvofiqini tanlay bilishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi interfaol metodlardan avvalo oddiydan murakkabga o’tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog’i lozim. Qo’llaniladigan interfaol metodlar keng yoritilgan. Bu metodlarning yutuq va kamchiliklari sanab o’tilgan. Metodlarni qo’llash bo‘yicha namunalar berilgan r bosqichda amalga oshirilayotgan vazifalar o‘rtasida muayyan izchillik mavjud bo‘lib, u ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Interfaol metodlar va ularning tavsifi Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar texnologiyalar:

- *pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;*
- *o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;*
- *o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;*
- *o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;*
- *o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;*
- *pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.*

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo’llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqli. Hozirgi vaqtda matematika dasturini boshqa fanlar bilan moslash tirish masalasi ancha muvaffaqiyatli hal qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

7. American Educational Research Association (AERA), American Psychological Association (APA), National Council on Measurement in Education (NCME). Standards for Educational and Psychological Testing. – VVa- shington D.C.: American

- Educational Research Association. 2014.
8. Brookhart S.M. How To Assess Higher-Order Thinking Skills in Your Classroom. – Alexandria, VA: ASCD. 2010.
 9. Brookhart S.M. How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking. – Alexandria, VA: ASCD. 2014.
 10. Brovvn D. and Abeywickrama P. Language Assessment, Principles and Classroom Practices. White Plains. – NY: Pearson Education, 2010.
 11. Brovvn J.D. Testing in Language Programs: A Comprehensive Guide to English Language Assessment, Upper Saddle River. – N.J.: Prentice Hall Regents, 2005.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Qurbanova Nurixon A'zamjon qizi,
Farg'onan viloyati, TATU FF akademik litsey fizika fani o'qituvchisi

Xakimova Gulchehra Abdulla qizi,
Farg'onan viloyati, TATU FF akademik litsey fizika fani o'qituvchisi

Abstract: This article presents interactive methods that can be used in teaching physics and recommends their use in classes.

Key words: Innovation, technology, method, education, information, intellectual, activity, physics, digital literacy, school education, artificial intelligence, technique.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan interfaol metodlar keltirilgan va ularni darslarda qo'llash tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, texnologiya, metod, ta'lif, axborot, intellektual, faoliyat, fizika, raqamli savodxonlik, muktaba, ta'lifi, sun'iy intellekt, texnika.

Ta'lif o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bolalarga dars jarayonlarini turli xil ko'rinishdagi metodlar o'yinlar orqali ularga tushuntirib ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilamiz. Dars jarayonida bolalarni zeriktirib qo'ymaslik uchun ularga turli xildagi metodlar asosida dars jarayonni tashkil qilamiz. Hattoki, ma'lum bir kitobni o'qiganda, sahifalarida turlicha mazmun kashf etishni ko'ramiz. Masalan: L.N.Skatkinnning "Metodika" kitobini varaqlaganda, kitobning boshida metodikaning umumiyligi masalalariga daxldor bo'lgan boblarida muallifning tilida ko'plab metod so'zi uchraydi. Lekin, xususiy masalalariga bag'ishlangan boblarida muallif "metod" so'zi o'rniga "usul" so'zini ishlataligan.

Ta'lif va tarbiya berish markazida albatta eng asosiy e'tibor kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarga qaratiladi. Chungi bugunimiz va ertangi kunimiz kelajak avlodga qanday ta'lif va tarbiya berishimizdadir. Har bir muktabgacha va boshlang'ich ta'lif yoshidagi bola bilan ishlash jarayonida esa albatta ahamiyat berishimiz kerak bo'lgan bir nechta metodlar bor. Ularga ta'lif va tarbiya berishdan avval kichkina an'anaviy ravishda o'tkaziladigan tadqiqot metodlaridan foydalangan holda ishni boshlashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Suhbat — har qaysi faoliyat bo'lsin suhbat metodi orqali muloqotni boshlaymiz. U savol va javob shaklidagi dialogik ta'lif metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan.

Suhbat ta'lif jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Tadqiqot metodi asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi. Bolalarni o'rganishda asosiy metodlar — kuzatish va eksperiment — bola taraqqiyoti haqida ishonchli ma'lumot orqali ularni ichki dunyosini kashf etamiz.. Yordamchi metodlar esa — test, so'rov, faoliyat mahsullarini o'rganish — tasvirlovchi ma'lumot berib, bu ma'lumot asosida faqatgina taxminlarni ilgari surish mumkin bo'ladi. Bu metodlar orqali bola ruhiyatini anglay olishimiz mumkin. Bolaga ta'lif va tarbiya maqsad va vazifalarini, ularning shaxs

taraqqiyoti va jamiyat hayotidagi o‘rnini haqida bilimlarni egallashida pedagoglarning hissasi kattadir. Pedagogika va psixologiya fanlari esa insonga ta’lim va tarbiya berish sohasidagi hamkorligi chuqur tarixga egadir.

O‘z davrida mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy pedagogika barkamol shaxs tarbiyasining rejasini ishlab chiqish uchun inson haqidagi barcha fanlarning yutuqlariga tayanishi kerakligi, bu fanlar orasida esa psixologiya markaziy o‘rin egallashini ta’kidlagan edi. Bolaga ta’lim va tarbiya berishga oid vazifalarni hal etishda pedagogika qanday qilib ta’lim-tarbiya berish kerakligini aytsa, psixologiya nima uchun aynan shunday qilish kerakligini aniqlaydi. Masalan, pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi va tarbiyasida o‘yin usullaridan va interfaol metodlaridan foydalanish kerakligini ta’kidlaydi. Psixologiya esa buning sababi ushbu yosh davrida o‘yin yetakchi faoliyat ekanligini tushuntiradi. O‘z navbatida esa interfaol metodlarni qo‘llashda o‘yin orqali ham bilimlarni bola ruhiyatiga tez singdirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar deganda - ta’lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Interfaol metodlardan foydalanib darslar tashkil etilsa, o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqlishi yanada oshadi va ta’lim sifati yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o‘tilgan darslar o‘quvchini ijobiy fikrlashga, olingen axborotlarni faollilikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlar orqali o‘tiladigan darslarda an’naviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmunni o‘zaro faollilikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya’ni o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo‘lgani kabi interfaol usullarni qo‘llashdan maqsad bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o‘zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o‘quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta’minkaydi. Matematika darslari interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o‘tadi. Chunki, biz bilamizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda o‘yin qaroq bo‘lishadi. Shuning uchun ham darslarni rang-barang metodlar bilan tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun “Ko‘paytirish jadvali”ni tushunishda o‘quvchi qiynaladi. Agar bu mavzu interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o‘quvchining xotirasida qolishi osonroq bo‘ladi. Hozirgi yuksalish va yangilanish davrida yashar ekanmiz biz o‘qituvchilar interfaol metodlar asosida dars jarayonalarini tashkil qilamiz. Oddiygina o‘qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir.

Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko‘pchiligidagi o‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatlarini usullari, bo‘lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko‘nikmalarga erishiladi, o‘quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlarini rivojlanadi. Darsda o‘quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlardir. Bu usullar maktab pedogikasi uchun yangilik emas. Ulardan ilgari ham foydalanib kelingan. Qachonki, bu metodlar samarali natija bera oladi:

-dars va mavzuning maqsadlari to‘g‘ri aniq tanlanganda;

-mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa;
-bir metod butun darsni qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa;
-tanlagan metod o‘quvchilarga yangi axborotlarni yetkazib bersa, o‘quvchi mavzuni nima haqidaligini tezgina tushuna oladi.

Biz dars jarayonida metodlarni qo‘laymiz dedik, bu bilan o‘quvchilarning dars materiallarini o‘zlashtirish darajasini ancha yuqoriga ko‘taradi. Biz dars jarayonida bolalarining yoshiga va bilim darajasiga qarab, interfaol metodlardan foydalanib dars o‘tamiz. So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kopyuter, televideniya, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Biz o‘qituvchilar darslarni turli xil innovatsion metodlar orqali tushuntirib, yoritib bolalarga yetkazib berishga harakat qilishimiz kerak.

Fizika fanini o‘qitishning interfaol uslublari

Interfaol metodlarning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o’rni va imkoniyatlari

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol mashg’ulot samaradorligi omillari

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg’ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo’llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyası** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatları rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo’llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo’ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgililar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darjasini bo’lib, bunda o‘quvchi atamalarni aytalari oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo’lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharplash, oydinlashtirish.

Qo’llash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noa’nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to’g’ri qo’llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o’rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Hozir interfaol mashg’ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo’llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o’sib

o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuldashev U, Boqihev R, Zokirova F.M. "Fizika o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. T.: "Talqin", 2004
2. U.K.Tolipov, M.Usmanboyeva "Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari." O'quv qo'llanma. T.: "Fan" 2006.
3. R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev " Ta'linda innovatsion texnologiyalar"-T, "Iste'dod". 2008.
4. Abduqodirov, A.Xaitov, Shodiev R. "Axborot texnologiyalari" Darslik. T.: "O'zbekiston", 2004
5. Sattorov A. "Fizika va axborot texnologiyalari" Darslik. T.: "O'qituvchi", 2008.
6. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A."Pedagogik texnologiya asoslari."T.: "O'qituvchi", 2004
7. Azizzodjaeva N.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat." O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2003.
8. Федотова Д. CASE-технология. Москва, «Издательский дом БХВ» 2003
73.O

FIZIKA FANINI O'QITISHDA METODOLOGIK YONDASHUV

Xakimova Gulchehra Abdulla qizi
Farg'ona viloyati, TATU FF akademik litsey fizika fani o'qituvchisi

Abstract: This article presents unique methodological approaches in teaching physics and recommends their use in classes.

Key words: innovation, technology, method, education, information, intellectual, activity, physics, digital literacy, school education, artificial intelligence, technique.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda o'ziga xos metodologik yondashuvlar keltirilgan va ularni darslarda qo'llash tavsya etiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, texnologiya, metod, ta'lif, axborot, intellektual, faoliyat, fizika, raqamli savodxonlik, maktab ta'limi, sun'iy intellekt, texnika.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lif maqsadi, ta'lif oluvchining soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol ta'lif usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lif texnologiyasi - har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lif vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

“KLASTER” METODI

Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'yash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishslash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. “Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioxha qilish talab etiladi: Nimaniki o'yagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning sifati to'g'risida o'yab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring. Belgilangan vaqt

nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror bir g‘oyani o‘yay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ulguncha davom ettiring. Yozuvning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni, bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

“TAJRIBA VOSITASIDA O‘QITISH SIKLI” METODI

Mazkur metod quyidagi 4 omil asosida quriladi: — reflektiv kuzatish; — abstrakt xulosalash; — faol tajriba olib borishga tayyorlanish; — aniq tajriba o‘tkazish. Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan g‘oyaga asoslanadi. Chunonchi: O‘quvchilar uchun mashqlar mazmunini tanqidiy o‘rganish va ular ustida fikr yuritish imkoniyatini beruvchi sharoit yarat (reflektiv kuzatish); O‘quvchilarga zarur nazariy bilimlarni ber; Muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish va xulosalash uchun sharoit yarat(abstrakt xulosalash); O‘quvchilarga mukammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo‘lgan mashqlarni ishlab chiqish imkonini ber (faol tajriba olib borishga tayyorlanish); Yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o‘tkaz va faoliyatda undan foydalan (aniq tajriba o‘tkazish).

“BESHINCHISI (6-si, 7-si) ORTIQCHA” METODI

O‘quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llash quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: — o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish; o‘tamiz.

«VIDEOTOPISHMOQ» METODI

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideoniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariiga qayd etishadi;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Kompyuterlarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishining asosida axborotlashtirish, virtuallashtirish, multimedya va tarmoq tizimlari yordamida o‘quv jarayonini tashkil etish yotadi. Kompyuter texnologiyalari o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, testlashtirish va nazorat qilishda pedagogik xodimlarga ko‘makchi vazifasini bajaradi. Tadqiqot obyekti sifatida o‘quv jarayonida kompyuter tarmoqlaridan foydalanish, o‘quvchilarning ta’lim tizimida olgan bilimlarini baholash va nazorat qilish tizimidan

foydalinish jarayoni olindi. Tadqiqotni o'tkazishda pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, to'plangan ma'lumotlarni taqqoslash va solishtirish metodlaridan foydalanildi.

Bugungi kunga kelib ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiya imkoniyatlardan foydalinish jadal tus olmoqda. Shu qatorda Oliy ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv jarayonini virtuallashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz ko'rib chiqayotgan masalada o'quv jarayonini virtuallashtirish deganda, virtual o'quv qo'llanmalari asosida olib boriladigan o'quv jarayoni ko'zda tutilgan. Virtual o'quv qo'llanmalari ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida, multimedya vositalari (animatsiya, ovoz, tasvir), grafik, sxema, jadval va hokazolardan foydalangan holda ishlab chiqilgan.

Real o'quv jarayonidan farqli o'laroq virtual ta'limning afzalligi shundan iboratki, bunda o'quvchi o'quv jarayonida tasavvur qilish, fikr yuritish, tinglash, yozib olishdan tashqari har bir izohlanayotgan jarayon, voqeа va hodisalar, ko'z bilan ko'rish mumkin bo'limgan, tassavvur qilish qiyin bo'lgan hodisa va jarayonlarni virtuallashtirilgan kompyuter modelida kuzatib turadi. Har bir sxema, grafik, jadval va murakkab so'zlar elektron holatda aniq ko'rsatib beriladi. O'quvchilar oлган bilimni virtual nazorat orqali tekshirish natijasida vaqt tejaladi. Bundan tashqari darsni o'zlashtira olmagan yoki bilimini yanada mustahkamlash maqsadida o'quvchi mustaqil ravishda virtual o'quv qo'llanmalaridan foydalinish imkonyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

9. Yuldashev U, Boqiyev R, Zokirova F.M. "Fizika o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. T.: "Talqin", 2004
10. U.K.Tolipov, M.Usmanboyeva "Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari." O'quv qo'llanma. T.: "Fan" 2006.
11. R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev " Ta'limda innovatsion texnologiyalar"-T, "Iste'dod". 2008.
12. Abduqodirov, A.Xaitov, Shodiev R. "Axborot texnologiyalari" Darslik. T.: "O'zbekiston", 2004
13. Sattorov A. "Fizika va axborot texnologiyalari" Darslik. T.: "O'qituvchi", 2008.
14. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A."Pedagogik texnologiya asoslari."T.: "O'qituvchi", 2004
15. Azizxodjaeva N.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat." O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2003.
16. Федотова Д. CASE-технология. Москва, «Издательский дом БХВ» 2003

ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

Aхмаджонова Садоқатхон Шокировна

Фаргона давлат университети, Зоология ва умумий биология кафедраси дотценти.

e-mail. axmadjonovasadoqat@gmail.com

Ибрагимов Сардор Ахрорович

Фаргона давлат университети,

биология йўналиши 4-босқич талабаси.

e-mail. sardorbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12536395>

Аннотация: Мақолада педагогик технологияларнинг ўқувчи ва ўргатувчи учун ахамияти ёритиб берилган. Ўқитиши жараёнида, ёндашувли мақсадли қўлланиладиган ҳар бир таълим технологияси ўқитувчи ва таълим олувчи ўртасида ҳамкорлик маъсулятини юзага келтириши, ҳар ким яхши натижага эришиши мумкинлиги тўгрисида фикр юритилган.

Калим сўзлар: педагогик технология, таълим, билим, анализатор, усул.

Аннотация: В статье объясняется значение педагогических технологий для студентов и преподавателей. Считается, что в процессе обучения каждая образовательная технология, используемая доступным способом, создает совместную ответственность между учителем и учеником, и каждый может достичь хорошего результата.

Ключевые слова: педагогическая технология, образование, знания, анализатор, метод.

Abstract: The article explains the importance of educational technologies for students and teachers. It is believed that in the learning process, every educational technology, used in an accessible way, creates a shared responsibility between the teacher and the student, and everyone can achieve a good result.

Key words: pedagogical technology, education, knowledge, analyzer, method.

Технология сўзини ҳар бир ўқитувчи ёки касб эгасига нисбатан ишлатиш мумкин. Ҳар бир етук шахс хаёти давомида маълум бир касб эгаси бўлиб, ўз маҳоратига эга бўлади.

Педагогик технология бу - берилаётган ахборотни кўпроқ анализаторларга таъсир эттириш орқали синтезлашдир. Жумладан, таълим тизимида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг белгиланган вақтда кафолатланган минимал билим даражасига эришишлари ҳисобланади. Ўқувчи томонидан белигиланган вақтда ўз максадларига эришиши натижага хисобланади, айнан шу натижага қайсиdir ўқитувчи ўз усуллари орқали тезроқ мақсадга олиб боради. Масалан, биринчи холатда мавзуу китобдагидек

түлиқ айтиб берилиши мүмкін, бунда ўрганувчидар күз, қулоқ анализаторлари таъсирланды. Иккінчи холатда ўқитувчи мавзуни рангли күргазма орқали тушунтириди, ўқувчилар уни ушлаб кўради, хидлайди, дидактик усуллардан фойдаланиб тест ечади. Кўриниб турибдик, иккінчи усулда ўқувчи кўпроқ таъсирланды. Демак, иккінчи усулда ўқувчиларнинг тушуниш даражаси юқори бўлди. Кейинчалик бу усуллар оммалашади.

Педагогик технология деб одатда мақсади таълим жараёнининг самарадорлигини оширишга, таълимда кўзланган натижаларга эришишга қаратилган педагогиканинг йўналишига айтилади (М. Кларин, 1989).

Бугунги кунда хар бир ёш мутахассис педагогик ва ахборот технологияларини ўкув жараёнида қўллашга хар томонлама эътибор бермоқда. Бундай бўлишининг сабабларидан бири, биринчи навбатда рақобат мухитининг кучайиши, шу вақтгача анъанавий таълимда ўқувчиларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологиялар уларни эгаллаётган билимларини ўзлари қидириб топишларига, дарсдан бўш вақтларда хам мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига, ҳатто хulosаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатади.

Ўқитувчи бу жараёнда шахснинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради.

Ўқув хонасидаги таълим жараёнида ўқувчилар тинч ўтириш ёки йўқлама учун келмасдан, белигиланган дарс соатларида фикрлайди, харакат қиласи, ўйлайди, асослайди, натижада билимга эга бўлади, чарчайди, турли хил салбий жараёнларга бўш вақт, ёки мияда бўшлиқ қолмайди.

Ўқитиши жараёнида, ёндашувли мақсадли қўлланиладиган хар бир таълим технологияси ўқитувчи ва таълим оловчи ўртасида ҳамкорлик маъсулятини юзага келтиради. Жумладан, ўргатувчи усулни тўғри танлаши, ўқув жараёни давомида ўқувчиларни бир-бирини фикрини эшишишга ва тартибни сақлай олиши, тўғри саволлар ва муаммолар қўя олса, ўқувчиларга: мустақил фикрлай олиш, ижодий фикрлаш, таҳлил эта олиш, вазиятни баҳолай олиш, тўғри хulosаси чиқариш, ўзига, гурухга баҳо бера олиши, ўзаро хурмат жараёнларнинг мавжудлиги, илгор технологиялар самарасини кўрсатади ўқитишнинг асоси ҳисобланади. Аксинча, илгор технологиядан фойдаланган ўқитувчи асбийлашган, мақсадга эришмаган, ўқувчилар эса илгор технологияларни фақат ўйин деб тушунган холда дарсдан чиқишиади. Демак, педагогик технология – ўқувчиларнинг эҳтиёжидан келиб чиқкан холда маълум бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан ўқитувчи томонидан лойиҳалаштирилган ва кафолатланган натижада беришига қаратилган педагогик жараён бўлиши керак.

Хulosas, хеч қайси олий маълумотли ўқитувчи билимсиз бўлмайди, фақат ўқитиши ва ўргатишида тўғри усул танламаган ёки ўқувчига қўшимча вақт ажратади. Ўқитувчи номи ёки унинг фани атрофидагилар томонидан қадрланмаслиги ўқувчидаги шу фанни ўзлаштира олмаслигига, ўқитувчига нисбатан бефарқ бўлишига, ўқитучи сўзларига тушунмаслигига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. S. Ahmadjonova, M. Akbarova “Oiv- oits” mavzusini o‘ qitishda interfaol usullardan foydalanish “Biologik tadqiqotlarda zamonaviy yondoshuvlarning dolzarb masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari tajriba, yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent. – 2018. – B. 20–21.
- 2.Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Биология фанини ўқитища муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш. Общество и инновации, 2(4/S), 42-45.
- 3.Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Использование технологии проблемного обучения в преподавании биологии. Общество и инновации, 2(4/S), 42-45.
- 4 .Ахмаджонова, С. Ш., & Akbarova.M.X.“Ёш физиологияси ва гигиенаси” фанини ўқитища интерфаол методларни қўллаш. Глобаллашув шароитида фан ва таълимниривожланиш тенденциялари. Республика илмий амалий интернет конференцияси. Фарғона. 2017.
- 5.Akhmadjonova, S., & Turkistonova, M. (2020). USE OF DIDACTIC GAME TECHNOLOGY IN TEACHING YOUTH PHYSIOLOGY LESSONS. In ПРОРЫВНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, ЗАКОНОМЕРНОСТИ, ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 171-173).

**BUG‘DOY NAVLARIDA HOSILDORLIKNI TA’MINLOVCHI
KOMPONENTLAR (XORAZM SHAROITI MISOLIDA)**

*Alloberanova Z.B.,
UrDU*

*Matyakubova Yu.A.,
UrDU*

*Bekchanova M.X
UrDU*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12789090>

Annotatsiy: Ushbu maqolada hosildorlikni ta’minlovchi komponentlardan boshoq uzunligi va bitta boshoqdagi don vazniga mineral o‘g‘itlarning ta’siri yoritilgan bo‘lib, Bobur hamda Krasnodar-99 navlari o‘zaro solishtirib o‘rganilgan. Unga ko‘ra boshoq uzunligi bo‘yicha navlar o‘rtasida eng yuqori ko‘rsatkich Krasnodar -99 navida kuzatildi. Ushbu navning boshoq uzunligi Bobur naviga nisbatan yuqori bo‘lgan. Statistik jixatdan ushbu boshoq uzunligi bo‘yicha farqlanish sezilmaganligi qayd etilgan. Navlarning bitta boshoqdagi don og‘irligi bo‘yicha navlar orasida farqlanishlar kuzatilmaganligi qayid etilgan.

Kalit so‘zlar: boshoq uzunligi, boshoqdagi donlar soni, hosildorlik, bitta boshoqdagi don vazni, mahsuldor boshoqlar va 1000 dona don vazni, mahsuldor poyalar.

Yer yuzida aholining 70 foizidan ortig‘i bug‘doy unidan tayyorlangan non va non maxsulotlarini iste’mol qiladi. Donning tarkibida 11-24 foizgacha oqsil mavjud bo‘lib, oqsil miqdori va yetishtirish sharoitlariga qarab o‘zgarib boradi. Bug‘doydan tayyorlangan maxsulotlar dunyoning ko‘plab xududlarida kunlik kaloriya iste’molining muhim qismini ta’minlaydi, masalan, Misr va Turkiyada 40-50% va Buyuk Britaniyada 20% [4]. Shuningdek, u inson ratsionidagi oqsil tarkibi, B guruhi vitaminlari, minerallar va boshqa fitokimyoviy moddalarning muhim manbai hisoblanadi.

Yumshoq bug‘doy avlodи Triticum aestivum L. bo‘lib, qo‘ngirboshlilar (Poaceae) oilasiga mansub, bo‘lib, uni yetishtirishi tarixga borib taqaladi. Bug‘doy oziq-ovqat ekinlaridan biri bo‘lib, 8000 yil davomida Yevropa, G‘arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikaning davlatlarida yetishtirilib asosan oziq-ovqat sifatida iste’mol qilingan.

Bug‘doy hozirgi vaqtida dunyodagi eng ko‘p etishtiriladigan ekin turi hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan, bu rivojlanayotgan dunyoda sholidan keyin ikkinchi eng muhim oziq-ovqat ekinidir

So‘ngi yillarda iqlim o‘zgarishi tufayli qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, kasallik va zararkunandalar va sho‘rlanish darajasining ortishi kabi salbiy omillar bug‘doyning

hosildorligining pasayishiga olib kelmoqda. Bug'doy, sholi va makkajo'xori qishloq xo'jalik ekinlari orasida global miqyosda eng muhim asosiy ekinlar bo'lib, kunlik kaloriya va oqsillarni asosiy qismi bilan ta'minlaydi. Ayni paytda, u boshqa donli ekinlarga nisbatan yuqori don oqsil bilan, sug'oriladigan ekin maydonining ko'pligi bilan ajralib turadi, lekin so'ngi yillarda hosildorligi pasayib bormoqda. Turli xil abiotik stresslarni keltirib chiqargan iqlim o'zgarishi tufayli hosildorlik yanada kamayishi mumkin. Turli xil iqlim o'zgarishi ustida olib borilayotgan tadqiqotlarda stressli muhitning oshishi tufayli bug'doy ishlab chiqarish kamayishi mumkinligini taxmin qilishmoqda [2].

Sug'oriladigan yerlarda mintaqqa iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda yumshoq bug'doy navlarini maqbul muddatlarda ekib, ma'danli o'g'itlar me'yorlarini to'g'ri tanlash orqali ulardan yuqori va sifatli don hosili olishga erishilmoxda. O'sish va o'suv davrlarining barqaror davomiyligini va xosildorlik, don sifatini yuqoriligini ta'minlaydigan bug'doyning muxim xarakteristikasi sifati, tuproq iqlim sharoitlarga moslashgan navlarni tanlash ushbu muommolarni xal qilishning zamonaviy usullaridan xisoblanadi.

Shularni inobatga olgan holda biz tajribalarini Xorazm viloyati ilmiy tadqiqot instituti (PSUEAITI) ning Xorazm paxtachilik ilmiy tajriba stantsiyasi dalalari o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida o'tkazildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida Xorazm tuproq iqlim sharoitida yetishtirilayotgan Bobur navi va Krasnodarskaya -99 navi andoza sifatida ekib o'rGANildi.

Tadqiqotlarda 2 m^2 maydonlarga 3 qaytariqda ekildi. Ekilgan barcha navlarning mineral o'g'itlar ta'sirida hosildorlikni ta'minlovchi miqdoriy belgilari baholandi.

Tadqiqotlarda bug'doy navlariga mineral o'g'itlarning quyudagi fonlarda berib borilgan:

- 1) Organik o'g'it qo'llanilgan variant Go'ng 30 t/ga
- 2) Mineral o'g'it berilgan variant ($\text{N}_{180}\text{P}_{90}\text{K}_{60}$)
- 3) Organik va mineral o'g'it birgalikda qo'llanilgan variant $\text{N}_{180}\text{P}_{90}\text{K}_{60} + \text{Go}'ng$ 30 t/ga

Bug'doy o'simligining hosildorlikni ta'minlovchi komponentlar bir qancha ko'rsatkichlarga bo'linadi. Ulardan asosiylari-mahsuldor poyalar, boshoq uzunligi, boshoqdagi donlar soni, bitta boshoqdagi don vazni, bir kvadrat metrdagi mahsuldor boshoqlar soni, bir kvadrat metrdagi mahsuldor boshoqlardan olingan don soni, 1000 dona don vazni va boshqa ko'rsatikchlar hisoblanadi.

Hosilning shakllanishida boshoq uzunligi va boshoqdagi boshoqchalar soni muhim ahamiyat kasb etadi. Boshoq uzunligi va zichligi o'simlikning navdorlik xususiyati bo'lib, tashqi muhit omillariga bog'liq. Ya'ni tuproqda namlik, o'g'it me'yori va miqdori ko'p bo'lganda boshoq uzunligi va zichligiga ijobiy, yetishmassa, salbiy ta'sir etishi mumkin [3]. Bundan tashqari haroratning 20°S dan oshmasligi va namlikning yetarli bo'lishi, boshoqdagi boshoqchalar soniga ijobiy ta'sir qiladi.

Dala sharoitida boshoqdagi boshoqchalar soni 12-20 tagacha o'zgarib turishi yoki 7-5 donaga pasayishi mumkin. Ukrainka navida bitta boshoqdagi boshoqchalar soni hatto 46 taga yetgan [1]. Yumshoq bug'doy namunalarida boshoq uzunligi 4-12 sm, boshoqdagi boshoqchalar soni esa 12-31 tani tashkil etadi. M.R.Reynolds va boshqalarning ma'lumot berishicha, ozuqa elementlari, haroratning yuqoriligi, suv

tanqisligi, havo nisbiy namligining kamligi va qurg‘oqchilik boshqoq uzunligi va boshoqdagi boshqochalar soniga salbiy ta’sir etadi [3].

Biz olib borgan tajribalar natijasiga ko‘ra, birinchi organik o‘g‘it berilgan (Go’ng 30 t/ga) variantda Bobur navida boshqoq uzunligi $9,8 \pm 0,37$ smga va Krasnodar-99 navida esa $10,5 \pm 0,49$ smga teng bo‘lib qolgan navlardan yuqoriligi aniqlandi.

Ikkinci ($N_{180}P_{90}K_{60}$) faqat mineral o‘g‘it berilgan variantda Bobur navining boshqoq uzunligi sezilarli ravishda oshganligi qayid etildi. Natajalarga ko‘ra yuqori natija Krasnodar - 99 navida $11,4 \pm 0,33$ sm, Bobur navida mos ravishda $10,2 \pm 0,28$ smni tashkil etilganligi qayid etildi.

Uchinchi organik va mineral o‘g‘itlar kompleksi birgalikda qo’shib berilgan variantda (Go’ng 30 t/ga + $N_{180}P_{90}K_{60}$) oldingi birinchi va ikkinchi variantlarga qaraganda boshqoq uzunligi oshganligi kuzatildi. Bunga sabab o‘simlik uchun kerakli bo‘lgan barcha mikro va makro elementlar borligi bilan izoxlash mumkin. Boshoq uzunligi bo‘yicha Krasnodar - 99 navida $11,8 \pm 0,30$ sm, Bobur navida bu ko‘rsatkich $10,8 \pm 0,29$ sm bo‘iganligi qayid etildi.

O‘g‘itlarining turlari uchta variantda sinalganda organik va mineral o‘g‘itlar kompleks xolda birga berilganlda ijobiy natija ko‘rsatishi aniqlandi. Boshoq uzunligi bo‘yicha xar uchala variantda yuqori ko‘rsatkich Krasnodar - 99 navida kuzatildi. Uchinchi variant organik va mineral o‘g‘it birgalikda berilgan variantga nisbatan birinchi variantda 1,5 %, ikkinchi variantga nisbatan 0,4 % ga boshqoq uzunligi past ekanligi qayid etildi.

Bu holat Bobur navida tahlil qilinganda uchinchi variant ya’ni organik va mineral o‘g‘it birgalikda berilgan variantga nisbatan birinchi variantda 1,0 %, ikkinchi variantga nisbatan 0,6 % ga boshqoq uzunligi past ekanligi qayid etildi.

Boshoq uzunligi bo‘yicha navlar o‘rtasida eng yuqori ko‘rsatkich Krasnodar -99 navida kuzatildi. Ushbu navning boshqoq uzunligi Bobur naviga nisbatan yuqori bo‘ldi. Statistik jixatdan ushbu boshqoq uzunligi bo‘yicha farqlanish sezilmadli. Faqatgina Bobur navida birinchi varinatda ya’ni organik og‘itni o‘zi berliganda boshqoq uzunligi pasayib qolgan navlarda farqi borligi aniqlandi.

Boshoqdagi don soniga qarab namunalar tanlanadigan bo‘lsa, sermahsul namunalarni tanlab olish imkoniyati ancha oshadi. Bu ko‘rsatkich navning genetik imkoniyatlariga hamda o‘simlik o‘stiriladigan tashqi, o‘g‘it turlari va me’yorlariga kabi omillariga bog‘liqdir. M.P.Reynolds ma’lumotiga ko‘ra, hosilni belgilashda eng muhim ko‘rsatkich bu- boshoqdagi don soni hisoblanadi. Bu belgi o‘simlikning biologiyasiga, o‘g‘itlash va tuproq omillariga bog‘liq. 1000 dona don vazni yoki boshoqdagi don soni bilan mahsuldorlik o‘rtasida ijobiy korrelyativ bog‘liqlik borligi to‘g‘risida ma’lumot bergen [5].

Turli o‘g‘it qo’llanilgan variantlarda navlarning bitta boshoqdagi don vazniga turlicha ta’sir ko‘rsatganligi kuzatildi. Birinchi organik o‘g‘it (Go’ng 30 t/ga) qo’llanilgan variantda bitta boshoqdagi don og‘irligi 1,8 gramdan 3,0 gramgacha o‘zgarib turganligi qayid etildi. Eng yuqori ko‘rsatkich Krasnodar - 99 navida $2,4 \pm 0,13$ gramni tashkil etdi. Bobur navida bu ko‘rsatkich $2,1 \pm 0,16$ gram bo‘lganligi qayid etildi.

Ikinchi faqat mineral ($N_{180}P_{90}K_{60}$) o‘g‘iti qo’llanilgan variantda navlarning bitta boshoqdagi don og‘irligi nisbatan oshganligi kuzatildi. Krasnodar - 99 navida umumiyl don

og'irligi $1,9 \pm 0,22$ gramni tashkil etib, birinchi varinatga ($2,4 \pm 0,11$ g) nisbatan 0,5 % ga oshganligi aniqlandi. Ushbu variantda Bobur navida $2,1 \pm 0,21$ g tashkil etib, birinchi varinatga ($1,8 \pm 0,12$ g) nisbatan 0,3 % ga oshganligi aniqlandi.

Uchinchi organik va mineral o'g'it birgalikda ($Go'ng$ 30 t/ga + $N_{180}P_{90}K_{60}$) qo'llanilgan variantda Krasnodar - 99 navling umumiy o'rtacha bitta boshoqdagi don og'irligi sezilarli ravishda oshib $3,0 \pm 0,05$ g tashkil etdi. Ushbu variantda Bobur navida $2,3 \pm 0,14$ g ekanligi aniqlandi.

Bitta boshoqdagi don og'irligi bo'yicha Bobur navida organik va mineral o'g'it birgalikda ($Go'ng$ 30 t/ga + $N_{180}P_{90}K_{60}$) qo'llanilgan variantga nisbatan birinchi organik o'g'it ($Go'ng$ 30 t/ga) qo'llanilgan variantdan 0,5 % ga, ikkinchi mineral ($N_{180}P_{90}K_{60}$) o'g'iti qo'llanilgan variantdan esa 0,2 % ga yuqori bo'lganligi qayid etildi. Bu natija Krasnodar- 99 navida ham kuzatikdi.

Xar uchta variant bo'yicha navlarning bitta boshoqdagi don og'irligi bo'yicha navlar orasida farqlanishlar kuzatildi. Unga ko'ra Bobur navi Krasnodar - 99 navidan ushbu belgisi bo'yicha salbiy farqlanish borligi qayid etildi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aisawi, K. A. B., Reynolds, M. P., Singh, R. P., Foulkes, M. J. (2015). The physiological basis of the genetic progress in yield potential of CIMMYT spring wheat cultivars from 1966 to 2009 . *Crop Sci.* 55, 1749-1764. doi: 10.2135/cropsci2014.09.0601
2. Bustos, D. V., Hasan, A. K., Reynolds, M. P., Calderini, D. F. (2013). Combining high grain number and weight through a DH-population to improve grain yield potential of wheat in high-yielding environments. *Field Crops Res.* 145, 106-115. doi: 10.1016/j.fcr.2013.01.015
3. Рипбергер Н. А. Боме, Д. Траутц. Изменчивость высоты растений гибридных форм яровой мягкой пшеницы (*Triticum aestivum L.*) как способ их адаптации в различных эколого-географических условиях. // Вавиловский журнал генетики и селекции. 2015. № 19 (2). - С. 185-190.
4. Мухитов Л. А., Самуилов Ф. Д, Величина подколосового междуузлия и продуктивность сортов яровой мягкой пшеницы разных экологических групп в лесостепи Оренбургского Предуралья [Текст]. // Вестник Казанского ГАУ. 2014. № 3 (33). - С. 135-138.
5. Chen, S., Gao, R., Wang, H., Wen, M, Xiao, J., Bian, N., et al. (2015). Characterization of a novel reduced height gene (Rht23) regulating panicle morphology and plant architecture in bread wheat. *Euphytica* 203, 583. doi: 10.1007/s10681-014-1275-1.

**MOLIYAVIY HISOBOTNING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARIGA
MUVOFIQ MUALLIFLIK HUQUQINI HISOBDA AKS ETTIRISHNING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI**

Xudaykulov Amir

*Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti „Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12789059>

Annotation: This article discusses the specifics of keeping copyright records at the national and international levels.

Keywords: copyright, depreciation, intangible asset, initial cost, double entry, period expenses, rights to use, statement of financial position, profit and loss statement.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mualliflik huquqi hisobini milliy va xalqaro darajada yuritishning o'ziga xos xusususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mualliflik huquqi, amortizatsiya, nomoddiiy aktiv, boshlang 'ich qiymat, ikkiyoqlama yozuv, davr xarajatlari, foydalanish huquqi, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot.

KIRISH (Introduction)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida: "2021 yil 1 yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar moliyaviy hisobotning xalqaro standarti asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standarti asosida tayyorlaydi", - deb ta'kidlab o'tilgan⁵. Bu esa bizdan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini chuqurroq o'rGANISHNI va tadqiq etishni talab etadi.

Rossiya Federatsiyasining moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini o'rgatishga bag'ishlangan «finotchet.ru»⁶ saytida mualliflik huquqini 4 yil o'tgach sotishni ifodalovchi quyidagicha vaziyat keltirib o'tilgan:

Tasavvur qilaylik, mualliflik huquqi 20 000 AQSh dollariga xarid qilindi. Sharhnomaga muvofiq unga 4 yil mobaynida egalik qilish va undan foydalanishimiz mumkin. Bunda, tugatish qiymati 6000 AQSh dollari bo'lsin.

Shunda amortizatsiyalanadigan qiymatni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$20\,000,0 - 6\,000,0 = 14\,000,0 \text{ AQSh dollar}$$

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Toshkent sh., 2020 yil 24 feval', PQ-4611-son.

⁶<https://finotchet.ru/articles/1271/> Корпоративная финансовая отчётность. международные стандарты. Журнал и практические разработки по МСФО и управленческому учету. МСФО (IAS) 38 Нематериальные активы. Для специалистов в области бухгалтерского учета и отчетности. Учебные пособия по МСФО (миллион скачанных копий в более чем 120 странах)

Endi amortizatsiyalanadigan qiymat nomoddiy aktivdan foydalanish yillari soniga bo‘linadi.

$$14\ 000,0 / 4 = 3\ 500,0 \text{ dollar}$$

Shundan so‘ng to‘rtinchi yil yakunida mualliflik huquqini 6000 AQSh dollariga sotish mumkin, bunda sotish bo‘yicha xarajatlар mavjud bo‘lmaydi.

Debet: Amortizatsiya xarajatlari (Foya va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda) – 3500 AQSh dollari;

Kredit: Amortizatsiya (Buxgalteriya balansi hisobotida) 3500 AQSh dollari.

Nomoddiy aktivni buxgalteriya balansiga kirim qilindi:

Debet: Nomoddiy aktivning boshlang‘ich qiymatiga (BB hisobotida) – 20 000,0 AQSh dollari;

Kredit: Jamg‘arilgan amortizatsiya summasiga (BB hisobotida) – 14 000,0 AQSh dollari.

Debet: Pul mablag‘lari (BB hisobotida) 6 000,0 AQSh dollari.

Bizningcha, yuqorida keltirilgan jurnal o‘tkazmalarida kamchiliklar mavjud. Jumladan, jurnal o‘tkazmalarida, avvalo, mualliflik huquqining tadbirkorlik subyektiga kirimi aks ettirilmagan. Dastlab mualliflik huquqi kirimi aks ettirilganda schyotlar bo‘yicha qoldiqlarni chiqarish va boshqa schyotlar bilan solishtirib tekshirish imkoniyati yuzaga kelar edi. Yuqorida keltirilgan jurnal o‘tkazmalariga muvofiq schyotlar bo‘yicha qoldiqlar quyidagi ko‘rinishga kelib qolmoqda (1-rasm):

Nomoddiy aktivning boshlang‘ich qiymatiga		Pul mablag‘lari summasiga	
Debet	Kredit	Debet	Kredit
20 000		6 000	
Jamg‘arilgan amortizatsiya summasiga		Davr xarajatlari summasiga	
Debet	Kredit	Debet	Kredit
	3 500	3 500	
	10 500		

1-rasm. Mualliflik huquqini hisobga olish bo‘yicha qoldiqlarni aks ettirish⁷

Yuqorida keltirilgan ikkiyoqlama yozuv qoidalari asosidagi buxgalteriya o‘tkazmalaridan ko‘rish mumkinki, birorta schyot bo‘yicha qoldiqlar oxirigacha yopilmagan. Bundan tashqari keltirilgan jurnal yozuvlarida mualliflik huquqini tugatish qiymatida sotish bo‘yicha shartnoma tuzish va daromadni tan olish bo‘yicha jurnal yozuviga buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshirilmagan. Tadqiqotchi taklif etayotgan 1-jadvalda (daromadni tan olish jadvalning 4-punktida) yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan

⁷Ilmiy tadqiqot muallifi tomonidan tayyorlandi.

kamchiliklarni bartaraf etishga va loyihadagi moliyaviy hisobotning milliy standartlari bo‘yicha jurnal yozuvlarini aks ettirishga harakat qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotchi yuqorida keltirib o‘tilgan buxgalteriya o‘tkazmalariga nisbatan yondashuvi yuqorida yoritilganidan tegishli ravishda farq qiladi (1-jadval).

1-jadval

Mualliflik huquqini 4 yil muddat o‘tishi bilan sotish bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalari korrespondensiyasi⁸

№	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni (jurnal yozuvlari)	Debet	Kredit
1.	Mualliflik huquqining xaridini dastlab amalga oshirish summasiga (0440-«Foydalanish huquqi bo‘yicha nomoddiy aktivlar»)	20 000 (MHTH)*	
	Pul mablag‘lari summasiga (5110-«Hisob-kitob schyoti»)	20 000 (MHTH)	
2.	Mualliflik huquqi amortizatsiyasi summasiga (0540-«Foydalanish huquqi bo‘yicha nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi»)		3 500 (MHTH)
	Davr xarajatlari summasiga (9430-«Boshqa operatsion xarajatlar»)	3 500 (FVZTH)* *	
3.	Mualliflik huquqi bo‘yicha jamg‘arilgan amortizatsiya summasiga (0540-«Foydalanish huquqi bo‘yicha nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi»)		11 500 (MHTH)
	Mualliflik huquqi bo‘yicha jamg‘arilgan amortizatsiya summasini davr xarajatlariga o‘tkazish (9430-«Boshqa operatsion xarajatlar»)	11 500 (FVZTH)	
4.	Mualliflik huquqini tugatish qiymatida sotish bo‘yicha shartnoma tuzish va daromadni tan olish summasiga (D-t: 4010-«Xaridor va buyurtmachilarning qisqa muddatli debitorlik qarzi» K-t: 9010-«Vaqtning muayyan nuqtasida tan olinadigan tushum»)	6000 (FVZTH)	
		6000 (FVZTH)	
5.	4 yil davr o‘tishidan sal avvalroq mualliflik huquqini sotish bo‘yicha olingan pul mablag‘lari summasiga (5110-«Hisob-kitob» schyoti)	6000 (FVZTH)	

⁸Jadval tadqiqotchi tomonidan o‘rganilgan materiallar asosida tayyorlangan.

№	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni (jurnal yozuvlari)	Debet	Kredit
	Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlarni yopganimizda (4010-«Xaridor va buyurtmachilarning qisqa muddatli debtorlik qarzi»)		6000 (FVZTH)

* (MHTH) – Moliyaviy holat to ‘g ‘risidagi hisobotda.

** (FVZTH) – Foyda va zararlar to ‘g ‘risidagi hisobotda.

1-jadvalga e’tibor beradigan bo‘lsak, dastlab mualliflik huquqi xaridi, undan so‘ng mualliflik huquqidan foydalanib uning amortizatsiyasini hisobda aks ettirish, jamg‘arib borilgan amortizatsiya summalarini davr xarajatlariga olib borish, keyin esa mualliflik huquqini tugatish qiymatida sotish jarayonimizda daromadni tan olish, daromadni tan olib bo‘lgach, pul mablag‘lari kelib tushishini aks ettirish lozim.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Nomoddiy aktivlarga qilingan xarajatlar aktivlarga bevosita aloqador bo‘lgan kelgusidagi iqtisodiy foydani ko‘paytirish imkonini berish isboti mavjud bo‘lmasa, bunday holatda ushbu qilingan xarajatlar milliy va xalqaro tartibga ko‘ra davr xarajatlari sifatida tan olinishi kerak bo‘ladi.
2. MHXSga muvofiq qayta baholash natijasida hosil bo‘lgan kamayish summasini mazkur nomoddiy aktivning amortizatsiya xarajatlariga olib borish mumkin ekan, ammo BHMSga muvofiq mazkur kamayish summasi amortizatsiya xarajatlariga olib borilmaydi.
3. Agar nomoddiy aktivni yaratilishida tajriba-konstrukturlik bosqichidan boshlab sarflangan xarajatlarni aniq qiymatda baholay olinsagina, ularni nomoddiy aktivlar qatoriga qo‘shish mumkin. Aynan shuning uchun ham agar nomoddiy aktiv yaratilsa, yaratilgan nomoddiy aktiv bo‘yicha uning tadqiqot bosqichi qachon tugashi va tajriba-konstrukturlik ishlarini qachondan boshlanishini aniq bilish lozim. Tajriba-konstrukturlik ishlari bosqichida amalga oshirilgan xarajatlar nomoddiy aktivning qiymatini belgilashda asos sifatida xizmat qiladi.
4. Xo‘jalik yurituvchi subyektda litsenziya bo‘yicha xarajatlar hisobga olinayotganda, litsenziyani olishga doir hujjatlarni ko‘rib chiqish uchun vakolatli davlat organiga qiladigan xarajatlarini hamda litsenziyani olish uchun xarajat qilinadigan davlat boji summalarini birgalikda jami litsenziya xarajatlariga kiritishi va unga har oyda korxona hisob siyosatiga muvofiq tanlangan amortizatsiya me’yorlariga ko‘ra amortizatsiya hisoblashi va hisoblangan amortizatsiya summalarini davr xarajatlarida aks ettirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” Toshkent sh., 2020 yil 24 fevral, PQ-4611-son.

2. Корпоративная финансовая отчётность. международные стандарты. Журнал и практические разработки по МСФО и управленческому учету. МСФО (IAS) 38 Нематериальные активы. Для специалистов в области бухгалтерского учета и отчетности. Учебные пособия по МСФО (миллион скачанных копий в более чем 120 странах). <https://finotchet.ru/articles/1271/>

2. Khudaykulov. A.M. Distinctive features of national and international accounting for intangible assets. // Trans Asian Journal of Marketing & Management Research. ISSN: 2279-0667 Vol 9, Issue 9, Sept. 2020. 24-28-pages. <http://dx.doi.org/10.5958/2279-0667.2020.00037.1>

3. Худайкулов А. Номоддий активларга амортизация ҳисоблашнинг ўзига хос усуллари. // Biznes-Эксперт. – Тошкент, 2017. –№6, 2017. 64-68-бетлар. (08.00.08; ISSN: 2181-7235)

https://www.researchgate.net/publication/358285647_Biznes_ekspert_ucun_makola#full_TextFileContent

6. Худайкулов А.М. Отличительные особенности национальных и международных стандартов учета нематериальных активов. Часть 1. /«Актуальность.РФ», Москва давлат университети ва Пенза давлат университети томонидан ташкил этилган «EurasiaScience» мавзусидаги XV илмий-амалий халқаро конференция (Секция 24. Экономические науки). Москва - 2018 йил 31 май. 105-106-бетлар, Диплом №54.

<https://elibrary.ru/item.asp?id=35320499>

7. Худайкулов А.М. Отличительные особенности национальных и международных стандартов учета нематериальных активов. Часть 2. /«Актуальность РФ», Москва давлат университети ва Пенза давлат университети томонидан ташкил этилган «EurasiaScience» мавзусидаги XV илмий-амалий халқаро конференция (Секция 24. Экономические науки). Москва - 2018 йил. 31 май 107-109-бетлар, Диплом №55.

<https://elibrary.ru/item.asp?id=35320500>

8. И.С. Исмоилов. Мамлакатларнинг XMTда қатнашишларига таъсир қилувчи омиллар ва унинг ривожланиш кўрсаткичлари. “Innovation science and research” журнали. 2024 йил май.

9. T.Kushaev. Synthetic and analytical accounting accounts. "Экономика и социум" журнали. №12(115) 2023.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ИНВЕСТИЦИЯ ФАОЛИЯТИНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ

Исмоилов Шапахам Содикович

*Термиз Давлат университети бухгалтерия ҳисоби ва аудит кафедраси катта
ўқитувчиси*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12789042>

Annotation: this article provides information on the goals and objectives of investment activities of commercial banks.

Keywords: investment activity participation in securities, enterprise, project, Shares, Investments, Securities Market.

Аннотация: Ушбу мақолада тиҷорат банклари инвестиция фаолиятининг мақсад ва вазифалари борасида маълумотлар келтирилади.

Калим сўзлар: Инвестиция фаолияти қимматли қоғозларга, корхона, лойиҳа, акцияларга, сармояларга қатнашии, қимматли қоғозлар бозори.

Introduction

Одатда, инвестиция деганда ҳар қандай корхона, лойиҳага узоқ муддатли сармоя киритиш тушунилади. Банк ишида бу тушунча банк маблағларининг ҳар қандай узоқ муддатли инвестицияларини ўз ичига олади. Инвестиция фаолияти, масалан, қимматли қоғозларга сармоя киритишдан ташқари, кўпинча компаниянинг асосий фондларини кредитлаш, кичик корхоналарга кредит бериш, корхонанинг жорий, қисқа муддатли эҳтиёжларини молиялаштиришни ўз ичига олади.

Бирок, қўйидаги таърифни тўғри деб ҳисоблаш керак. Банк сармоялари –бу тўғридан -тўғри ва билвосита даромад олиш мақсадида қимматли қоғозларга узоқ вақт давомида банк ресурсларини киритиш. Банк қимматли қоғозларга қўйилган инвестициялардан дивидентлар, фоизлар ёки қайта сотишдан фойда шаклида тўғридан тўғри даромат олади. Билвосита даромад банкларнинг мижозларга таъсирини уларнинг қимматли қоғозларининг назорат пакетига эгалик қилиш орқали кенгайиши асосида шаклланади. Банк инвестициялари акциялар, облигациялар ва бошқа қимматли қоғозларга инвестицияларни ўз ичига олади. Банк инвестициялари, таърифга кўра, узоқ муддатли бўлиши кераклигига қарамай, барча инвестиция воситалари қўйидагиларга бўлинади:

-Паст бозор хавфи ва юқори ликвидлилиги билан ажralиб турадиган бир йилгача бўлган пул бозори воситалари;

-Бир йилдан кўпроқ вақт мобайнида этук бўлган ва одатда юқори даромадлилик билан тавсифланадиган капитал бозори воситалари.

Инвестицион фаолият – бу инвестицион инвестициялар ёки инвестицияларни амалга ошириш бўйича амалий ҳаракатлар мажмуи. Инвестиция фаолияти субъектлари – бу ҳам жисмоний, ҳам юридик шахслар, шу жумладан банклар ва инвестиция фаолияти объектлари янги ташкил этилган ва янгиланган асосий ва айланма маблағлар, қимматли қоғозлар, мақсадли пул депозитлари, илмий –техник маҳсулотлар ва бошқа мулкий объектлардир.

Тиҷорат банкларининг инвестициялари: ўз маблағлари, қарз маблағлари ва жалб қилинган маблағлар ҳисобидан амалга оширилади. Банкларнинг инвестиция

жараёнидаги энг умумий шаклда иштирок этишининг асосий йўналишлари қўйидагилардан иборат:

- *банклар томонидан инвестиция мақсадларида маблағ жалб қилиш;
- *инвестиция кредитлари бериш;
- *қимматли қоғозларга, акцияларга, сармояларга қатнашиш (ҳам банк хисобидан, ҳам мижоз номидан).

Бу соҳалар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ. Банклар капитални, аҳолининг жамғармаларини ва бошқа бўш маблағларини сафарбар қилиб, улардан фойдали фойдаланиш мақсадида ўз ресурсларини шакллантиради. Пул маблағларини тўплаш бўйича операциялар ҳажми ва таркиби банкларнинг кредит ва инвестиция портфеллари ҳолатига, уларнинг инвестиция фаолияти имкониятларига таъсир этувчи асосий омиллардир.

Банкларнинг инвестиция фаолияти икки турдаги хизматларни кўрсатадиган бизнес сифатида қаралади: қимматли қоғозларни чиқариш ёки уларнинг бирламчи бозорига жойлаштириш орқали пул маблағларини кўпайтириш, иккиласчали бозорда мавжуд бўлган қимматли қоғозларнинг харидорлари ва сотувчиларини брокер ва ёки дилер сифатида ишлаётганда улаш.

Бозор иқтисодиётига ўтиш ва қимматли қоғозлар бозорининг шаклланиши билан банк инвестицияларининг қимматли қоғозларга узоқ муддатли инвестициялар сифатида талқин қилиниши ички иқтисодий адабиётларда ўз аксини топди. Қайд этилишича, банк сармояларини бир йилдан ортиқ муддатга чиқарилган қимматли қоғозлар деб аташ одатий ҳолдир.

Инвестиция тижорат банкининг ресурсларини жойлаштиришнинг барча соҳалари сифатида ҳам, даромад олиш мақсадида пул маблағларини бир муддатга жойлаштириш операцияси сифатида ҳам тушунилади. Биринчи ҳолда, инвестициялар тижорат банкининг барча фаол операцияларини ўз ичига олади, иккинчидан – унинг шошилинч компоненти.

Банкларнинг инвестиция фаоллигининг кўрсаткичлари сифатида қўйидаги кўрсаткичлардан фойдаланиш мумкин:

- *тижорат банкларининг инвестиция ресурслари ҳажми;
- *инвестиция ресурсларининг реал қиймати индекси;
- *банк инвестициялари ҳажми;
- *банкларнинг умумий активларидаги инвестицияларнинг улуси;
- *уларни қўллаш обьектлари бўйича банк инвестицияларининг таркибий кўрсаткичлари;
- *банкларнинг инвестиция фаолияти самарадорлиги кўрсаткичлари, хусусан, инвестициялар ҳажмига кўра даромадларнинг ўсиши;
- *даромадли молиявий активларга капитал кўйилмалар билан солиштиргандан, ишлаб чиқариш секторига инвестицияларнинг муқобил рентабеллиги кўрсаткичлари;

Иқтисодий адабиёт ва банк амалиётида тижорат банкларининг инвестиция фаолияти шаклларининг таснифи инвестицияларнинг шакллари ва турларини тизимлаштиришнинг умумий мезонлари асосида амалга оширилади:

1) инвестиция обьектига мувофив реал инвестициялар иқтисодий активлар (ҳақиқий сармоялар) ва молиявий активларга инвестициялар (молиявий инвестициялар). Банк сармояларини бошқа хусусий инвестиция обьектлари билан ҳам фарқлаш мумкин: инвестиция ссудаларига инвестициялар, муддатли депозитлар, кўчмас мулк, қимматбаҳо металлар ва тошлар, коллектсиялар, мулкий ва интеллектуал ҳукуқлар ва бошқалар.

Хақиқий инвестициялар, қоида тариқасида, банк инвестицияларининг умумий ҳажмида кичик улушга эга. Молиявий инвестициялар банклар учун молия-кредит ташкилотлари сифатида кўпроқ хосдир.

Банкнинг ўз фаолиятига қўйиладиган сармоялар унинг моддий –техник базасини ривожлантиришга ва ташкилий даражасини яхшилашга инвестицияларни ўз ичига олади. Бу инвестицияларнинг йўналиши улар ёрдамида қандай вазифаларни бажариш кераклигига боғлиқ. Инвестиция йўналишига қарабқуидагиларни ажратиш мумкин.

-банк фаолияти самарадорлигини ошириш учун инвестициялар. Улар техник жихозларни такомиллаштириш, банк фаолиятини ташкил этиш, меҳнат шароитлари, кадрлар таёrlаш, илмий-тадқиқот ишланмаларини яхшилаш орқали банк харажатларини камайтириш учун шарт-шароитлар яратишга қаратилган;

-банк хизматларини кенгайтиришга қаратилган инвестициялар. Бундай инвестициялар ресурслар ва мижозлар базасини кенгайтиришни, банк операциялари доирасини кўпайтиришни, банк хизматларининг янги турларини ишлаб чиқаришни таъминлайдиган янги бўлинмаларни яратишни назарда тутади;

-давлат назорат органларининг талабларини бажариш зарурати билан боғлиқ инвестициялар. Бу инвестициялар банк фаолияти учун муайян шарт-шароитларни яратиш нуқтаи назаридан назорат қилувчи органларнинг талабларини қондириш зарур бўлганда амалга оширилади.

2) Инвестициялар учун маблағ манбаларига кўра, ўз маблағлари ҳисобидан амалга оширилган банкнинг ўз инвестициялари ва ўз мижозлари ҳисобидан ва банк ҳисобидан амалга ошириладиган мижозлар сармоялари ажратилади.

3) инвестиция муддати нуқтаи назаридан, инвестициялар қисқа муддатли (бир йилгача), ўрта муддатли(уч йилгача) ва узок муддатли(уч йилдан ортиқ) бўлиши мумкин.

4) Тижорат банкларининг инвестициялари, шунингдек, таваккалчилик турлари, минтақа, тармоқ ва бошқа мезонлар бўйича таснифланади. Шу билан бирга, банкларнинг инвестицион фаоллиги уларнинг молиявий воситачи сифатида макроиктисодий ролини амалга ошириш билан боғлиқ яна бир жиҳатга эга. Бу имкониятда банклар шарт-шароитларда харакат қилиб, хўжалик юритувчи субъектларнинг инвестиция талабини қондиришга ҳисса қўшадилар бозор иқтисодиёти пул кўринишида, жамғарма ва жамғармаларни инвестицияларга айлантириш.

Тижорат банкларининг инвестиция сиёсати инвестиция фаолияти бўйича мақсадли кўрсатмалар тизимини шакллантиришни, уларга эришишнинг энг самарали усувларини танлашни ўз ичига олади.

Инвестициялар тижорат банкининг ресурсларини жойлаштиришнинг барча соҳалари сифатида ҳам, даромад олиш мақсадида пул маблағларини бир муддатга жойлаштириш операцияси сифатида ҳам тушунилади. Биринчи холда, инвестициялар тижорат банкининг барча фаол операцияларини ўз ичига олади, иккинчидан –унинг шошилинч компоненти.

Банклар асосан ўzlари эмас, балки қарз ва қарз маблағлари ҳисобидан ишлайдилар, шунинг учун улар тегишли кафолатлар билан таъминланмаган бўлса, ўз мижозларининг маблағларини йирик инвестиция лойиҳаларига сармоя киритиб тавакkal қила олмайди. Шу муносабат билан, тижорат банклари ўз инвестиция сиёсатини ишлаб чиқишида ҳар доим таваккалчиликни, иқтисодий самарадорликни, инвестиция лойиҳаларининг молиявий жозибадорлигини, қисқа, ўрта ва узок муддатли инвестицияларнинг мақбул комбинатсиясини реал баҳоланиши керак. Шу

билин бирга, мавжуд инвестиция тизими нафақат банкнинг ички иши, банкни тартиби асосий тамойиллари га мувофиқ, ҳар қандай назорат тизимнинг ажралмас қисми-бу банкнинг сиёсати, операцион фаолияти ва унда ссуда эриш ва капитал қўйилиши билан боғлиқ тартибларни мустақил равишда кўриб чиқиши, ҳамда кредит ва инвестиция портфелларини жорий бошқариш.

Бинобарин, тижорат банклари инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш билан боғлиқ энг муҳим фаолиятни аниқ ишлаб чиқиши ва расмийлаштириши керак. Асосан, бу тўғри инвестиция сиёсатини ишлаб чиқиши ва амалга оширишдир. Банк ривожланишининг умумий бизнес сиёсати инвестиция сиёсатини шакллантиришнинг асосий шарти бўлиб, унинг асосий мақсадлари инвестиция фаолияти учун стратегик мақсадларни ишлаб чиқишида устувор ҳисобланади. Умумий иқтисодий сиёсатнинг муҳим таркибий қисми бўлган инвестиция сиёсати банкнинг самарали ривожланишини таъминловчи омил ҳисобланади.

Веб-қидирив натижалари бўйича, тижорат банклари иқтисодиётнинг замонавийлаштирилишида ва инвестиция фаолиятининг оширилишида жиддий рол ўйнайди, шу жумладан Ўзбекистонда ва АҚШда. Ўзбекистонда хукumat давлатга тегишли монополияларнинг замонавийлаштирилиши орқали ўсишни кучайтиришга қаратилган кенг кўламли иқтисодий ислоҳот сиёсатларини амалга оширади ва хусусий, хорижий тўғридан тўғри инвестицияларучун қўллаб қувватловчи иқлим яратади. 2020йил мартаидан этиборан Ўзбекистонда 30 та тижорат банки фаолият юритади.

АҚШда эса тижорат банклари жисмоний ва юридик шахсларга сода молиявий вазифаларни бажариш учун турли хил молиявий хизматларни тақдим этади. Улар депозитларни қабул қиласди, пулни қарз беради, тўловлар усулларини амалга оширади, банк чеклари ва текширувларини чиқаради, маҳсулотлар ва хужжатларни сақлаш учун хавфсизлик депосит қутиларини таклиф этади ва бошқа хизматларини ҳам таклиф этиши мумкин, масалан сугурта шартномаларини брокерлаш ва инвестиция маслаҳатлари бериш. АҚШдаги бизнес ва молия соҳасининг асосий қисмларидан биридир. Улар жисмоний шахслардан кўра бизнесларга кўпроқ хизмат кўрсатади ва депозитларни қабул қилиш, бизнесларга қарз бериш ва хазина бошқарувини ўз ичига олган турли хил хизматларни тақдим этади. АҚШдаги энг йирик тижорат банкларидан бири ЖПМорган Часе ҳисобланади, у 2021 йилда 121 миллиард АҚШ доллари ортиқча даромадга эга бўлди. Шу йил ЖПМорган Часе ҳам Банк оғ Америка олдидан ўтиб тижорат банк карталарининг энг яхши чақиравчиси бўлди.⁹

Адабиётлар:

1. Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2019;
2. “Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида”ги қонун (янги таҳрири, иккинчи чақириқ Олий Мажлиснинг иккинчи сессиясида 2000-йил 26-майда қабул қилинган);
3. Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз”. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б;

⁹ “International commercial banking” anjumani 24.10.2021/ www.worldeconomics.org veb-sayti

4. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – мамлакат тараққиёти ва халқ фаровонлиги гаровидир”.- Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.- 486;
5. Ш. Шодмонов. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. – Т.: «Тошкент_» нашриёти, 2020. 788 бет.
6. Қўшаев Т.А.. Бухгалтерия ходимларининг хуқуқ ва бурчлари. INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL (VOLUME 1 ISSUE8) DECEMBER2023ISSN: 2992-8877 | SCIENCEJOURNAL.UZ125
7. Худойқулов А.М.. Бюджет ташкилотларида бюджетдан ташқаари маблағларни жалб қилиш ва улардан фойдалааниш ҳолати таҳлили. INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL (VOLUME 1 ISSUE8) DECEMBER2023ISSN: 2992-8877 | SCIENCEJOURNAL.UZ128

МОНОПОЛ ФАОЛИЯТ ҚОНУН БИЛАН ТАРТИБГА СОЛИНИШИ ВА ЧЕКЛАНИШИ

Қўшаев Тўхтасин Абдиқодирович

Термиз Давлат университети бухгалтерия ҳисоби ва аудит кафедраси ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12789029>

Annotation: this article reflects information on whether monopolistic activities are regulated and restricted by law.

Keywords: antitrust policy, development of competition, further improvement of the competitive environment in commodity and financial markets without, economic entities, customers, enterprise.

Аннотация: Уибу мақолада Монопол фаолият қонун билан тартибга солиниши ва чекланиши борасида маълумотлар ўз аксини топади.

Калит сўзлар: Монополияга қарши сиёсат, рақобатни ривожлантириши, ҳолда товар ва молия бозорларида рақобат муҳитини янада тақомиллаштириши, хўжалик субъектлари, буюртмачилар, корхона.

Introduction

Давлат ҳокимияти ва бошқарув идоралари, уларнинг мансабдор шахслари хўжалик юритувчи субъектларнинг мустақиллигини чекловчи, улардан айримларининг фаолият олиб боришини камситувчи ёки, аксинча улар учун қулайлик туғдирувчи шароит яратиб берувчи хуқуқий хужжатлар чиқаришга ёки ҳаракатлар қилишга ҳақли эмаслар, башарти бундай хужжатлар ёки ҳаракатлар ўз пировардида рақобатнинг жиддий равишда чекланишига ёки хўжалик субъектлари ёхуд жисмоний шахсларнинг манфаатларига зарар етказилишига олиб келса ёки олиб келиши мумкин бўлса.

Давлат ҳокимияти ва бошқарув идораларининг қўйидаги ҳаракатларни қилиши таъқиқланади:

хўжалик юритувчи субъектларнинг муайян фаолият турларини амалга оширишига, айрим товар турларини ишлаб чиқаришга тақиқ белгилаш, қонунларда кўзда тутилган ҳоллар бундан мустасно;

хўжалик юритувчи субъектларнинг бозорга киришини чеклаш ёки уларни бозордан четлатиш;

хўжалик юритувчи айрим субъектларга уларни бозорга худди шу хил товар чиқараётган хўжалик юритувчи бошқа субъектларга нисбатан устун мавқега қўядиган солиқ имтиёзи ёки ўзга имтиёзларни асоссиз равишда бериш;

хўжалик юритувчи субъектларга шартномалар тузишда кимгадир устунлик бериш тўғрисида ёки муайян харидорлар (буюртмачилар) доирасига молларни биринчи навбатда етказиб бериш (ишларни бажариш, хизмат қўрсатиш) тўғрисида кўрсатмалар бериш;

фаолиятнинг муайян соҳасида хўжалик юритувчи янги субъектлар ташкил этишига асоссиз тўқсқинлик қилиш;

хўжалик юритувчи субъектлар мустақиллигини чекловчи қонунга хилоф бошқа ҳаракатлар содир этиш.

Мансабдор шахсларга (Ўзбекистон Республикасининг қонунларида белгиланган рўйхатдаги мансабдор шахсларга) қўйидагилар таъқиқланади:

тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш;
корхонанинг эгаси ёки муассис бўлиш;
давлат тасарруфида бўлмаган хўжалик юритувчи субъектларнинг бошқарув
идораларида раҳбарлик лавозимларини эгаллаш;

акцияли жамиятларнинг, масъулияти чекланган жамиятларнинг ёки бошқа
хил ширкатларнинг умумий йиғилиши қарорларини қабул қилишда мустақил
равишда ёки вакил орқали ўзига тегишли акциялар, улуш қатнашувдаги ҳисса
воситасида овоз бериш.¹⁰

Фирром рақобатга, шу жумладан: хўжалик юритувчи бошқа субъектнинг
мол-мулки ва тадбиркорлик нуфузига зиён етказиши мумкин бўлган ёлғон, ноаниқ
ёки бузиб кўрсатилган маълумотлар тарқатишга;

товар белгисидан, товарнинг фирма номидан ёки маркасидан ўзбошимчалик
билан фойдаланиш, шунингдек хўжалик юритувчи бошқа субъект товаларининг
шаклини, идишини, ташқи безагини айнан кўчириб олишга;

илмий-техникавий, ишлаб чиқариш, иқтисодий, савдо ва бошқа соҳага оид
маҳфий ахборотни эгасининг розилигисиз олиш, ундан фойдаланиш ва уни ошкор
қилишга;

товарларнинг хусусияти, уларни тайёрлаш усули ва ўрни, истеъмол
хоссалари ва сифати хусусида истеъмолчиларни чалғитишга;

хўжалик юритувчи бошқа субъектларнинг бозорга киришини чекловчи
хатти-ҳаракатлар қилишга йўл қўйилмайди.

Ўзбекистон Республикасида монополияга қарши давлат сиёсатини юргизиш
мақсадида монополияга қарши фаолиятни амалга оширишга ваколатли идора
тузилади, унинг асосий вазифаси қўйидагилардан иборат бўлади:

1. Тадбиркорликни қўллаб-куватлаш, товар бозорида рақобатни
ривожлантириш;

монополистик фаолиятнинг, бозордаги устун мавқени суиистеъмол
қилишларнинг олдини олиш ва уларга йўл қўймасликка, монополист корхоналар
белгилайдиган нарх-наволарни бошқариб боришга, фирмом рақобатнинг пайини
кирқишга қаратилган чоралар кўриш;

монополияга қарши қонунларга риоя этилишини назорат қилиб туриш.

2. Монополияга қарши қонунлар бузилган ҳолларда монополияга қарши
фаолиятни амалга оширишга ваколатли идора қонунбузарликларни тўхтатиш,
дастлабки ҳолатни тиклаш тўғрисида, асоссиз орттирилган даромадни тегишли
бюджетга ўтказиш тўғрисида, хўжалик юритувчи субъектларни мажбурий тартибда
майдалаб (бўлиб) юбориш тўғрисида ва хўжалик юритувчи субъектларнинг
бозордаги устун мақеини бартараф этиш ёки пасайтиришга қаратилган бошқа
тадбирлар тўғрисида хўжалик юритувчи субъектлар бажариши шарт бўлган
кўрсатмалар беришга, шунингдек хўжалик юритувчи субъектларга, бошқарув
идораларига ва мансабдор шахсларга жарима солишга ҳақлидир.

3. Тегишли ҳолларда монополияга қарши фаолиятни амалга оширишга
ваколатли идора материалларни қонунда белгилаб қўйилган тартибда кўриб чиқиши
учун суд ёки ҳакамлик судига, прокуратура идораларига юборади.

Монополияга қарши сиёсат — давлатнинг монополияга қарши кураш
сиёсати. Дунё тажрибасига кура, Монополияга қарши қонунчилик, асосан, қўйидаги
ёналишлар буйича шаклланди. Биринчидан, ишлаб чиқариш (тармоқ)ни
бошқарувчи қонунлар. Бу қонунларга биноан, одатда, хеч бир корхона
(корпоратсия)нинг бирор турдаги маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ярмидан ортигини

¹⁰ MONOPOLISTIK FAOLIYATNI CHEKLASH TO‘G‘RISIDA 1996-yil 27-dekabr 623-XII-SON

назорат қилишга хуқук берилмайды. Иккинчидан, барча йирик корпорациялар иштирокчилари бошқа корпорациялар акцияларининг маълум чекланган миқдоридан ортигига эга була олмаслиги белгилаб қуйилади. Учинчидан, нархларни бозор мувозанати белгилаган даражадан юкори ёки паст туришини, нарх устидан келишиб олишни тақиқловчи картелларта қарши қонунлар жорий қилинади.

Давлатнинг монополияларга қарши сиёсати миллий иқтисодиётида рақобат оддиндан шаклланиб булган мамлакатларда рақобатчилик муҳитини такомиллаштиришга, бозор иқтисодиётига утаётган мамлакатларда эса бу муҳитни шакллантиришга қаратилган. Бозорда монополияни урнатишга уринишлар ва монопол мавқени суиистеъмол қилишни тақиқдайдиган трестларга қарши биринчи қонун — Шерман қонуни АҚШда 1890-йилда қабул қилинган. Монополияга қарши қонунчилик. ва уни амалга ошириш учун зарур булган чора тадбирлар ҳар бир мамлакатда шароит тақозо этган шаклларда амал қиласди. Ривожланган барча давлатларда соглом рақобат муҳитини ҳимоя қилиш мақсадида турли куринишдаги, монополистик фоалиятлар устидан давлат томонидан тартибга солиш амалга оширилади. Масалан, АҚШда монополияга қарши давлат сиёсати — Федерал савдо комиссияси ва Адлия департаментининг трестларга қарши бошқармаси, Россияда — Монополияга қарши сиёсат ва тадбиркорликни қуллаб қувватлаш вазирлиги, Япония ва Жанубий Кореяда — Ҳалол рақобат буйича комиссия, Европа Иттифоқида эса — Рақобат буйича комиссия томонидан амалга оширилади.

Ўзбекистонда монополияга қарши орган 1992-йилда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг Монополияга карши ва нарх сиёсати бош бошқармаси сифатида ташкил қилинди. 1996-йил 15-майда ушбу бошқарма негизида Молия вазирлиги ҳузурида Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш қумитаси ташкил этилди. 2000-йил 2 августда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш Давлат қумитасини ташкил этиш тугрисида"ги фармонига асосан монополияга қарши орган Молия вазирлиги таркибидан чиқарилиб, мустақил давлат қумитасига айлантирилди.

Ўзбекистон давлатининг рақобатчилик муҳитини шакллантиришга қаратилган сиёсатида хусусийлаштириш, давлат мулки ҳисобидан мулкчиликнинг бошқа шаклларини вужудга келтириш асосий урин тутади. Хусусийлаштириш натижасида, биринчидан, мулк уз эгалари қулига топширилса, иккинчидан, куп укладли иқтисодиёт ва рақобатчилик муҳити вужудга келади.

Рақобатни шакллантиришда иқтисодиётнинг давлат корхоналари сақланиб қолиши керак булган соҳалардаги корхоналар учун уларнинг бозор шароитларига таркибан мослашувига имкон берадиган хужалик юритиш механизмини ишлаб чиқариш муҳим урин эгаллайди. Бу механизм давлат корхоналари иқтисодий жиҳатдан эркин булишини, уларнинг фаолияти тижоратлашган булишини назарда тутади. Бозор иқтисодиётига утиш даврида рақобатнинг асосий усули нарх булганлиги сабабли, нархларни эркин қўйиб юбориш рақобатли муҳитни вужудга келтиришнинг асосий талаби ҳисобланади. Шу мақсадда Ўзбекистонда "Монополистик фаолиятини чеклаш тугрисида"ги қонун (1992-йил 3 август) қабул қилинди ҳамда унинг асосида рақобатчиликни ривожлантиришга қаратилган бир туркум норматив хужжатлар ишлаб чиқилди. Мазкур қонунга кура, бозорда атайлаб тақчиллик яратиш, нархларни мо-ннополлаштириш, рақобатчиларнинг бозорга кириб боришига тусқинлик қилиш, рақобатнинг фирмом усулларини қуллаш ман этилади.

Ҳозирги даврда Узбекистонда, агар корхона ишлаб чиқарган муайян маҳсулотлар товарлар бозоридаги шундай маҳсулотнинг 35% дан ортиқ булса, бу

корхона монополист корхона сифатида Давлат рейестрига киритилади (озиқовқат товарлари гурху учун бундай мезон даражаси 20% қилиб белгиланган).

Республикада монополиялар руйхатига кирган корхона (тармоқ)ларнинг бозордаги мавқенини тартибга солишида бир қатор усуллардан: а) монопол мавқедаги маҳсулотларга нархларнинг энг юқори даражасини ёки рентабеллик чегарасини белгилаб қўйиш; б) уз монопол мавқенини суиистеъмол қилган монополик бирлашмаларни булиб ташлаш ёки майдалаштириш усулларидан фойдаланилади. Ўзбекистон Республикасининг "Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тугрисида" (1996-йил 26-апрел) қонуни асосида гирром рақобатга, шу жумладан, бозорларга белгиланган талабларга жавоб бермайдиган товарларнинг киришига йул қўймайдиган механизмни яратишга ҳам алоҳида эътибор берилган.

Ўзбекистон Республикасининг "Товар бозорларида монополистик фаолиятни чеклаш ва рақобат тугрисида" қонуни (1996-йил 27 декабр) монополистлар томонидан ҳукмронлик мавқенини суиистеъмол қилишнинг олдини олиш ва монополиядан чиқариш ва sog'лом рақобат муҳитини яратиш мақсадларини ко'злайди. Иқтисодиётнинг айрим тармоқдарида рақобат муҳитини шакллантириш иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқ эмас. Бу тармоқдаги корхоналар, одатда, "табиий монополиялар" деб аталади. Ўзбекистон Республикасининг "Табиий монополиялар тугрисида"ги қонунида (1997-йил 25 апр; янги таҳрирда 1999-йил 19 август) республикада табиий мо-ннополияларга нисбатан давлат сиёсатининг ҳуқуқий асослари белгилаб берилди. Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотларнинг туб моҳиятидан келиб чиқсан ҳолда монополияларга қарши ва табиий монополиялар тугрисидаги қонунчилик такомиллаштирилиб, уларнинг Европа Иттифоқи ва бошқа ривожланган қонунчилик андозаларига мос келиши та'минлаб борилмоқда.

Кўйидагилар рақобат қўмитасининг асосий вазифалари ҳисобланади:
товар ва молия бозорларида рақобат муҳитини таъминлаш соҳасида ягона давлат сиёсатини амалга ошириш;

товар ва молия бозорларида рақобат муҳити ҳолатини тизимли таҳлил қилиш, хўжалик юритувчи субъектларнинг устун мавқенини сустистеъмол қилиши, «картель» келишувлари ва тил бириктириш, инсофсиз рақобатни аниқлаш ва уларга чек қўйиш;

савдолар, иқтисодий концентрация ва давлат қўмагини монополияга қарши тартибга солиш;

бозор иштирокчиларига юқори ликвидли, шу жумладан, табиий монополия субъектлари томонидан ишлаб чиқариладиган товарлардан (ишлар, хизматлардан) фойдаланишда тенг шарт-шароитларни таъминлаш;

қонун ҳужжатларининг рақобатга таъсирини баҳолаш, давлат органларининг рақобатни чекловчи қарорлар қабул қилишига ва шундай ҳаракатларни амалга оширишига йўл қўймаслик.

Монополияга қарши курашиш қўмитаси ўзига юклangan вазифаларга мувофиқ қўйидаги функцияларни амалга оширади:

а) товар ва молия бозорларида рақобат муҳитини ривожлантиришининг ягона давлат сиёсатини амалга ошириши соҳасида:

давлат органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг рақобатни ривожлантириш ва монополистик фаолиятни чеклаш бўйича фаолиятини мувофиқлаштиради;

монополияга қарши курашишни тартибга солиш ва рақобатни ҳимоя қилишни янада такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқади;

қонун хужжатлари ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини янада такомиллаштириш, рақобатни ривожлантириши чекловчи якка тартибдаги имтиёзлар, преферентсиялар ва енгилликларни бекор қилиш бўйича таклифлар киритади;

монополияга қарши қурашишни тартибга солиш ва рақобат муҳитини ривожлантириш соҳасидаги илғор халқаро тажрибани тизимли ўрганиш ва жорий этишини амалга оширади;

вазирликлар ва идораларни жалб этган ҳолда товар ва молия бозорларида рақобат муҳитини янада такомиллаштиришга қаратилган стратегик дастурлар, «ўйл хариталари» ва бошқа дастурий хужжатларни ишлаб чиқади;

монополияга қарши қурашишни тартибга солиш ва рақобат муҳитини ривожлантириш соҳасида хорижий мамлакатларнинг монополияга қарши қурашиш органлари ва халқаро ташкилотлар билан ҳар тарафлама ҳамкорликни ташкил қиласди;

рақобат тўғрисидаги қонун хужжатларини бузган хўжалик юритувчи субъектлар ва давлат органларининг реестрини юритади ва эълон қиласди;

хўжалик юритувчи субъектларни инсофсиз рақобатчилардан ва рақобат тўғрисидаги қонун хужжатларини бузаётган давлат органларининг ноқонуний қарорларидан, уларнинг мансабдор шахсларининг харакатларидан (харакатсизлигидан) ўз ваколатлари доирасида ҳимоя қиласди;

товар ёки молия бозорларида хўжалик юритувчи субъектларга тенг шартшароитларни таъминлаш бўйича норматив-ҳуқукий хужжатлар ва бошқа хужжатларнинг давлат органлари ва устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектлар томонидан бажарилишини ўз ваколатлари доирасида назорат қиласди;

б) товар ва молия бозорларида рақобат муҳити ҳолатини тизимли таҳлил қилиши, хўжалик юритувчи субъектларнинг устун мавқени суистеъмол қилиши, «картель» келишувлари ва тил бириктириши, инсофсиз рақобатни аниқлаши ва уларга чек қўйши соҳасида:

товар ва молия бозорларида рақобат муҳитининг ҳолатини ўрганади ва хўжалик юритувчи субъект ёки шахслар гуруҳининг устун мавқеини аниқлайди, шахслар гуруҳи иштирокчиларининг таркибини белгилайди;

устун мавқеини суистеъмол қилиш, «картель» келишувлари ва тил бириктиришларни аниқлаш ва уларга чек қўйиш чораларини кўради;

«картель» келишувлар ва тил бириктиришлар каби рақобатга қарши харакатларнинг мураккаб турларини аниқлаш ва уларга чек қўйиш масалаларида ҳуқук-тартибот органлари билан ўзаро ҳамкорлик қиласди;

давлат органлари ва хўжалик юритувчи субъектларда монополияга қарши комплеансни жорий этади;

устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектлар ва табиий монополия субъектларининг товарларига (ишларига, хизматларига) харажатларни камайтириш бўйича таклифлар ишлаб чиқади;

юридик шахснинг индивидуаллаштирилган воситаларига ва товарни индивидуаллаштириш воситаларига ҳар қандай ҳуқуқни сотиб олиш билан боғлиқ инсофсиз рақобат ҳолатларини аниқлайди;

Товар ёки молия бозорида устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектлар давлат реестрига киритилган хўжалик субъектлари ёки шахслар гуруҳи томонидан ишлаб чиқариладиган (кўрсатиладиган) товарлар (хизматлар) нархлари устидан мониторинг олиб боради;

товар ёки молия бозорида устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектлар ҳамда табиий монополия субъектларининг давлат реестрларини шакллантиради ва юритади;

в) савдолар, иқтисодий контсентратсия ва давлат кўмагини монополияга қарши тартибга солиш соҳасида;

танлов (тендер) ва биржа савдоларини ўтказишида рақобат тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан белгиланган тартибда назоратни амалга оширади;

шахс ёки шахслар гурухи томонидан хўжалик юритувчи субъектнинг устав фондидаги (устав капиталидаги) акцияларни (улушларни) олиш, шунингдек, хўжалик юритувчи субъектларнинг бирлашуви ва қўшиб олиниши бўйича қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда, олдиндан розилик бериш орқали бозор контсентратсияси устидан назоратни амалга ошириш;

қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда хўжалик юритувчи субъектларга рақобат тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя қилиш борасида давлат кўмаги кўрсатилиши масалаларини қўриб чиқади;

товар-хомашё биржаларини лицензиялайди ҳамда улар томонидан лицензия талаблари ва шартларига риоя этилишини назорат қиласди;

товар-хом ашё биржаларининг лицензиялари реестрини юритади;

маҳсус ваколатли давлат органи билан биргаликда товар-хомашё биржалари аъзолари учун жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш бўйича ички назорат қоидаларини ишлаб чиқади ва тасдиқлади, шунингдек, қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда мониторинг олиб боради ҳамда ушбу қоидаларга товар-хомашё биржалари томонидан риоя этилишини назорат қиласди;

ўз ваколатлари доирасида жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишда иштирок этади;

жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш соҳасида халқаро ҳамкорликни амалга оширади;

г) бозор иштирокчиларига юқори ликвидли, шу жумладан табиий монополия субъектлари томонидан ишлаб чиқариладиган товарлардан (ишлар, хизматлардан) фойдаланишида тенг шарт-шароитларни таъминлаш борасида:

юқори ликвидли монопол турдаги маҳсулотларни биржа савдоларига қўйиш тўғрисида белгиланган тартибда қарорлар қабул қиласди;

юқори ликвидли ва монопол турдаги маҳсулотларни биржа савдоларига қўйилиши устидан белгиланган тартибда назоратни амалга оширади;

табиий монополия субъектларини давлат томонидан тартибга солиш механизmlарини такомиллаштиради;

табиий монополия субъектлари томонидан товарлар (хизматлар) реализатсия қилиниши тартибига риоя этилиши устидан назоратни амалга оширади ва мажбурий тарзда хизмат кўрсатиладиган истеъмолчилар рўйҳатини белгилаш бўйича таклифлар киритади;

рақобатга қарши ҳаракатларни ва тартибга солинадиган нархларнинг (тарифларнинг), шунингдек, Товар ёки молия бозорида устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектлар давлат реестрига киритилган хўжалик

юритувчи субъектлар ёки шахслар гурухи томонидан ишлаб чиқариладиган (кўрсатиладиган) товарларга (хизматларга) монопол юқори ва монопол паст нархларнинг асосиз ўсишини аниқлайди ва уларга чек қўяди;

товарларнинг (ишлар, хизматларнинг) тартибга солинадиган нархлари (тарифлари) ва устама нархларига риоя этилишини таҳдил ва назорат қиласди;

д) қонун ҳужжатларининг рақобатга таъсирини баҳолаши, давлат органларининг рақобатни чекловчи қарорлар қабул қилишига ва шундай ҳаракатларни амалга оширишига йўл қўймаслик соҳасида:

давлат ва хўжалик бошқаруви органлари ҳамда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан киритиладиган ва қабул қилинадиган норматив-хукуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ва амалдаги норматив-хукуқий ҳужжатлар, шунингдек, бошқа ҳужжатларни уларнинг рақобат муҳитига таъсири юзасидан экспертизадан ўтказади;

норматив-хукуқий ҳужжатлар лойиҳаларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш ҳамда уларни қабул қилиш мақсадга мувофиқ эмаслиги бўйича таклифлар киритади;

рақобат муҳитига салбий таъсир кўрсатадиган қонун ҳужжатлари ва давлат органлари қарорларини бекор қилиш бўйича таклифлар киритади.

Монополияга қарши курашиш қўмитаси қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа функцисияларни ҳам амалга оширади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020-йил 28-май куни иқтисодиётда рақобат муҳитини таъминлаш ва истеъмолчилар хукуқини ҳимоя қилиш тўғрисидаги устувор вазифалар 28-05-2020.
2. Ш. Шодмонов, М. Рахматов. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. – Т.: «Замин нашр», 2021. – 856 б 264-285 бет.
3. Ш.Е. Шеркулов. Иқтисодиёт назарияси: Ўқув қўлланма 2022 145-166 бет.
4. Ш.С. Исмоилов. МАМЛАКАТЛАРНИНГ ХМТ Да ҚАТНАШИШЛАРИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ. INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL (VOLUME 2 ISSUE 3) MAY 2024 ISSN: 2992-8877 | SCIENCEJOURNAL.UZ.27-29-бетлар.

**ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI INNOVASIYON YONDASHUV
ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI**

Maxsudova Gulnoza Erkinjonovna

Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12789014>

Annotation: this method covers the issues of improving the effectiveness of education using pedagogical technologies for teaching native language and literature, ways of turning educational games students into active participants in the course of the lesson, and obtaining mature qualifications by distinguishing a related problem from problematic topics in native language and literature.

Keywords: educational games, technological map, problem situation, innovation technologies, interactive methods.

Annotatsiya: Ushbu metodda ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim samaradorligini oshirish, dars jarayonida ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarni faol ishtirokiga aylanish yo‘llari hamda ona tili va adabiyot fanlaridagi muammoli mavzulardan kelib chiqib, bog‘liq muammoni ajratib olish orqali yetuk malakaga ega bo`lishlar masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limiy o‘yinlar, texnologik xarita, muammoli vaziyat, innovation texnologiyalar, interfaol metodlar.

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) hozirgi globllashuv vaqtida o‘z oldiga hamma bolalarni umumiyligi o‘rtalama jarayoniga to’liq qamrab olish masalasini qo‘ygan bir vaqtida, mustaqil O‘zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo‘lib, uzlusiz ta’limda masofaviy ta’limni qo’llab, o‘quvchilar bilimini baholashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta’lim-tarbiya berish, ta’limning samaradorligini oshirish masalasi qo‘yildi. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o`zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zları keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun umumta’lim maktablarida zamonaviy o‘qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovation texnologiyalarning o‘rnini va roli benihoya kattadir. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat

ko`rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega. Darslarni innovation texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o`qituvchi innovation faoliyat yuritgandagina ta'lif mazmuni o`zgaradi.

O`quv mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiyl o`yinlardan foydalanish o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo`lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz:

Mashg`ulotni o`tkazish tartibi muammo o`zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning o`rtasi bo`lib, bunda muammoning dolzarbliyi va o`ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarbleri ajratiladi. Mashg`ulotda o`qituvchi ishtirokchilarni guruhlarga ajratib, darsni o`tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi.

Ishtirokchilar dars davomida yakka, juftlikda va kichik guruuhda faoliyat olib borishlari tushuntiriladi. Masalan, 6-sinf ona tili darsligida berilgan "Shakl yasovchi qo'shimchalar" mavzusini o`qitishda quyidagi muammoni aniqlash texnologiyasidan foydalanish tavsiya qilinadi:

Muammoli ta'larning o`ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u o`quvchiga qo`yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy-ijodiy tafakkur yuritish, jadal va mantiqli fikrlash, so`z va atamalar, asar g`oyasi hamda ma'nosini o`zaro qiyoslash, o`zi uchun eng to`g`ri yechim tanlash imkoniyatlarini beradi. Bu texnologiya o`quvchining imkoniyatlaridan o`zaro uzviylik va uzuksizlikdan foydalanish, izchil va mantiqiy fikrlash darajasini yaxshilaydi. O`rganuvchi sub'ektning o`ziga bo`lgan ishonchini mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste'dod qirralarini ochishga yo`naltiradi.

Texnologiyaning afzalliklari. O`quvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko`nikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni. mantiqiy fikrlashni o`rganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o`rganadi.

Kamchiliklari. Vaqt ko`p sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari to`liq inobatga olinmasligi mumkin. O`zaro bir to`xtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi va h.k.

Muammoli vaziyat va muammoning bayoni. Tafakkur - inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo`lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi hamda muammoni yechishga qaratilgan bo`ladi.

Muammoning qo`yilishi. Muammonining bir necha yechim yo`llari mavjud ekanligi va ular ichidan eng optimal variantini tanlash shuningdek, muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni shakllantirish tamoyillari. Muammoli o`quv toshiriqlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi orqali o`quvchilarni turli muammolardan chiqib ketish yo`llarini axtarishga, kezi kelganda ana shu muammoning yechimini topishga yo`naltirish lozimligi tushuntiriladi. Masalan, G'.G'ulomning "Mening o`g'rigina bolam" hikoyasi asosida o`quvchilarni asar matnidan kelib chiqib, muammoni

topishga, muammoni keltirib chiqargan sabablar hamda ushbu muammoni hal etish yo`llari haqida fikrlar bildiriladi. Masalan, hikoyadagi o`g`ri haqiqatan ham o`g`rimi, muammosi qo`yilsa, ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabablar - xalqning og`ir hayotga giriftor bo`lishi, mahalliy sharoitning og`irligi, noto`g`ri davlat boshqaruvi, ishsizlik, xalq boyligi huzurini boshqalar ko`rishi, urushning xalqqa yetkazgan zarari, deya mulohazalar bayon etilsa, muammoni hal etish yo`llari - mamlakat aholisini savodxon qilish, yurtni bosqinchilar zulmidan ozod etish, mingboshi, ellikboshi kabi chalasavod rahbarlar o`rniga savodli xalq vakillaridan tayinlash, ishsizlikni bartaraf etish, jamiyatni yanada rivojlanadirishga o`z hissasini qo`shish kabilar nazarda tutiladi.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o`qituvchi o`quvchilarga dars mavzusi bilan bog`liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo`lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo`lмаган, ortiqcha ma'lumotlar bo`lgan yoki savolning qo`yilishi noto`g`ri bo`lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o`qituvchi muammoni qo`yadi va o`zi yechadi;
- o`qituvchi muammoni qo`yadi va uning yechimini o`quvchilar bilan birgalikda topadi;
- o`quvchilarning o`zlari muammoni qo`yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo`llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai-nazardan o`rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog`liq xulosalar chiqarish;
- o`quvchilarning o`zlari aniq savollar qo`yishi va boshqalar.

Bu amaliy mashg`ulotda tinglovchilar quyidagi vazifalarni bajarishlari tavsiya qilinadi:

- O`qituvchilar o`z mutaxassislik fanlari bo`yicha o`zlari tanlagan mavzuda darsni eng maqsadga muvofiq muammoli o`qitish turlaridan foydalanib o`tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlaydilar va uning asosida guruh ishtirokida shu mashg`ulotni qisqa bayon qilib beradilar va tegishli muhokama o`tkaziladi. - Bunda o`quvchilarning quyidagi masalalar bo`yicha bilim, ko`nikma malakalarini yanada mustahkamlash nazarda tutiladi:
- O`quv fani va darslar mavzusini o`rgatishda ular bilan bog`liq muammoli masalalarni belgilash, ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish. O`quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish. Zarur o`quv vositalarini tayyorlash. - Muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko`rsatish, topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish. - O`quvchilarning muammoni hal etishda yo`l qo`yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko`rsatish. O`quvchilarning noto`g`ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to`g`ri yo`lni topishlariga ko`maklashish va boshqalar.

Dars ta`limning mazmuni, metodi va shakli kabi tushunchalar doirasida chegaralanib qolmaydi. Maktabdagi ta`lim, tarbiya va rivojlanishni pedagog va

o`quvchilarni o`zaro hamjihat, hamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, darsning sifati, samaradorligi o`qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko`rishiga bog`liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg`or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalanishi alohida o`rin tutadi.

Maktablarda ona tili darslarini samarali tashkil etish uchun o`qituvchilar quyidagi jihatlarga e'tiborli bo'lishlari darkor:

1. Darsni 8-12, 15-20 kishidan iborat guruhlarda tashkil etish.
2. O`qitishda zamonaviy texnik vositalar (video-magnitofon, kompyuter va boshqa audiovizual jihozlar) dan foydalanish.
3. Til o`rgatishda, shuningdek, fan bo'yicha darslik, o`quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, mavzular bo'yicha uslubiy ko'rsatma va ishlanmalardan mustaqil ravishda foydalanish.
4. O`quv mashg`ulotlarini tashkil etishda tilni nazariy jihatdan o`rganishga, yangi nutqiy ko`nikmalar hosil qilishga e'tibor qaratish.

Bundan tashqari, ona tilini o`rgatishda to`g`ri talaffuz qilish ko`nikmasini shakllantirish va so`z boyligini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyatga ega. Bunda texnik vositalar - video va audiomagnitafonlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ona tilini o`rganishda mustaqil ishslash (matn ustida) ta'lif sifatini ta'minlaydigan eng muhim shartlardan biri bo`lib, u o`quvchilarni o`zlari o`rganayotgan tilda fikr-mulohazalarini mustaqil va erkin bayon qila olish ko`nikmalarini takomillashtirish bilan belgilanadi. Mustaqil ishslashda belgilangan mavzu asosida amaliy ish (mavzu bo'yicha mashqlar) bajarish hamda muayyan mavzu asosida izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy fanlar uchun amaliyot muhim rol o`ynaydi. Ona tili fani ham amaliy fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliy xulosalar ishonarli bo'lishi, yuqori ilmiy darajada, ya'ni puxta va asosli bo'lishi lozim. Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada bo'lishi tekshirish metodlarining puxtaligiga ham bog`liq.

Tekshirish metodlari 2 xil:

1. Nazariy tekshirish metodlari.
2. Empirik metod (tajribaga asoslangan metod). Bu metod quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

a) bu metod o`qituvchilarning ish tajribasini o`rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash;

b) o`quvchilarni o`qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, o`quvchilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o`qituvchi va o`quvchilarning faoliyatini so`rovnama orqali tekshirish;

Ayniqsa, umumta'lif maktablarining ona tili darslarida til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyillarini o`qitishni yangicha talqinda tashkil etish lozim. So`zni, morfemani, so`z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqe-hodisalar o`rtasidagi bog`lanishni aniqlash demakdir. Til

ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rgatish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rgatish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

Adabiyotlar:

1. N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish usullari. Buxoro. 2006 y.
2. Ro'ziyev D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent, 2013. 146-b.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent, "O'ME" 2009. 324-b.
4. Tadjibayeva D.Sh. Ona tili o'qitishda zamonaviy ta'lif metodlari // The journal of academic research in educational sciences. 2021. maxsus son. 486-488 betlar.
5. G'afforov Ya. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. – Toshkent, 2021. 156-bet.

ADABIY NUTQ VA UNING USLUBLARI

Tuxtasinova Gulnoza Ro'zmatovna

Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12788998>

Annotation: this article provides information on literary speech and its styles.

Base words: scientific, artistic, colloquial, official-departmental, publicist, patriotic, peace, courage, heroism, harmony, progress, perseverance, strength, power, spirituality, erk, freedom, mother, earth, ground.

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy nutq va uning uslublari borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Ilmiy, badiiy, so`zlashuv, rasmiy-idoraviy, publitsistik, Vatan, vatanparvar, tinchlik, jasorat, qahramonlik, totuvlik, taraqqiyot, matonat, kuch, quvvat, ma'naviyat, erk, ozodlik, ona, yer, zamin.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika – uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qo'llanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatları, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'no nozikliklarini aniqlash bilan shug'ullanadi. «Stilistika – tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdagi forma, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi. Shunga ko'ra, stilistika so'z san'ati, ifoda vositalar haqidagi alohida bir fandir».

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo`limi bo`lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatları bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, lug`aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari o`rganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan, bir qancha o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan ko`rinishi **adabiy til uslubi** deyiladi. Uslub orqali so`zlovchi shaxs narsalarga, voqealarga shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida qo'llaniladigan ko`rinishi *nutq uslublari* deyiladi.

Nutq uslublari quyidagilar:

1. Og'zaki so'zlashuv uslubi
2. Rublisistik uslub
3. Badiiy uslub
4. Rasmiy-idoraviy uslub

5.Ilmiy uslub

1. So`zlashuv uslubi. Uyda, ko`chada, insonlarning o`zaro so`zlashuvida qo`llanadigan uslub so`zlashuv uslubi deb ataladi. Bu uslubning adabiy til me`yorlariga rioya qiladigan ko`rinishi adabiy so`zlashuv uslubi deb yuritilsa, bunday me`yorlariga rioya qilinmaydigan ko`rinishi oddiy so`zlashuv uslubi deb ataladi. So`zlashuv uslubidagi nutq ko`pincha dialogik shaklda bo`ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasidan tuzilgan nutq dialogik nutq deyiladi.

So`zlashuv uslubida ko`pincha turli uslubiy bo`yoqli so`zlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Kep qoling! Obbo, hamma ishni do`ndiribsizda. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!*

So`zlashuv uslubida gapdagi so`zlar tartibi ancha erkin bo`ladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar ko`plab ishlatiladi. Ko`proq sodda gaplar, to`liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi. **So`zlashuv uslubi.** So`zlashuv uslubi kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o`ziga xos amal qiluvidir.

Nutqda til unsurlarining ishtirok etishiga ko`ra kitobiy uslub sifatida qaraluvchi ilmiy, rasmiy ish qog`ozlari va publitsistik uslublarga so`zlashuv uslubiqarshi turadi deyish mumkin. So`zlovchi va tinglovchi o`rtasida nutqiy aloqaning bevosita amalga oshuvi, nutqiy jarayonning oldindan tayyorlab qo`yilmaganligi, nutqiy munosabatda bo`layotgan kishilar o`rtasida rasmiy muolmalaning bo`lmasligi so`zlashuv uslubini boshqa vazifaviy uslublardan keskin chegaralaydi.

So`zlashuv uslubining yana bir farqi shundaki, unda lisoniy na nolisoniy omillarning munosabati boshqa uslublarga qaraganda mustahkamdir.

So`zlashuv uslubining o`ziga xosliklari:

1. Nutq ko`pincha elliptik xarakterga ega bo`ladi. So`zlashuv jarayonidagi vaziyatga ko`ra bayonotning ma'lum qismi nutqda koldirilib ketilaverilishi mumkin. Bunday holatda ham tinglovchilarga fikr tushunarli bo`ladi. Masalan, Qorami? Ko`kmi?

2. So`zlashuv nutqida til birliklari o`zining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi. Masalan, ulgurmaymiz deyishdan ko`ra ulgurib bo`pmiz, ulgurmoq qayoqda, ulgurib ham bo`ldik kabi javob qaytarish bir muncha tabiiyroqdir.

3. Ohangning ahamiyati nihoyatda katta bo`ladi. Nutqiy ohang og`zaki nutqning amalga oshuvida til birliklaridan keyingi muhim hal qiluvchi vosita bo`lib, nutqning tezligi pauza, ton, melodiya, tovush tembri, mantiqiy urg`u va so`z urg`usi kabi intonatsiyaning ko`rinishlari ma'noni farqlashda, uning qirralarini ajratib ko`rsatishda, hayajonni kuchaytirishda katta xizmat qiladi.

So`zlashuv uslubi fonetik, leksik, grammatik o`ziga xosliklarga ham ega.

Ommabop (publitsistik) uslub. Tashviqot-targ`ibot ishlarini olib borishda qo`llanadigan uslub, ya`ni matbuot uslubi **ommabop uslub** hisoblanadi. Soddalik, tushunarli bo`lish, ta`sirchanlik, adabiy til me`yorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televidenieda ishlatiladigan ko`rinishi og`zaki ommabop uslub deyilsa, gazeta jurnallarda ishlatiladigan ko`rinishi yozma ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so`zlar ko`p qo`llanadi. Nutq ta`sirchan bo`lishi uning ta`sirchan so`z va birikmalardan, maqol va hikmatli so`zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo`laklari odatdagagi tartibda bo`ladi,

kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe`llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so`roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so`z va birikmalardan unumli foydalaniladi: *1. Azamat paxtakorlarimiz mo`lhosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti. 2. Partiya faollari o`zlarining navbatdagi majlisiga yig`ilishdi.*

Badiiy uslub. Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o`quvchiga estetik jihatdan ta`sir qiluvchi uslub **badiiy uslub** deb ataladi. Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo`ladi. Badiiy asar kishiga ma`lumot berish bilan birga timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta`sir ham ko`rsatadi: *O`lkamizda fasllar kelinchagi bo`lmish bahor o`z sepini yoymoqda.* Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so`zları, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi.

Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud b `lgan barcha lug`aviy birliklarning hamda boshqa vazifaviy uslub unsurlarining ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga - estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining uchiga xos xususiyati deb qarash kerak b `ladi.

Badiiy adabiyot tili adabiy til bilan birga umumxalq tili boyliklarini ham qamrab oladi. Ya'ni, asarning janr va mavzu shlabi bilan yozuvchining individual uslubiga bog`liq holda badiiy nutqdan umumxalq tilidagi barcha lug`aviy qatlamlar ishtirok etaveradi. Masalan, adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlardan, dag`al so`zlardan, eskirgan so`zlardan, oddiy so`zlashuv tili elementlaridan foydalaning maqsadga munofiq bo`limgani holda ularni badiiy nutqda o`rni bilan qo`llash mumkin.

Badiiy adabiyot tilining o`ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, s `z san'atkorlari faqatgina umumxalq tilida mavjud bo`lgan so`z va iboralardangina foydalanib qolmasdan, ularni qayta ishlab, yangi-yangi ma'nolarda qo`llaydilar, ma'nolarni kengaytiradilar, boyitadilar. Tilimizning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi so`z va iboralar yaratadilar.

Adabiy tilning nutqiy imkoniyatlari to`laligicha badiiy nutq uslubida namoyon bo`ladi deyish mumkin. Vazifaviy uslublarning hech birida badiiy nutq uslubidagichalik, til uning tuzilish jihatlari, lug`at tarkibi, ya'ni so`zning ma'no (boyligi va rang-barangligini, to`g`ri va ko`chma ma'nolarini namoyish qila olmaydi, grammatic qurilishi, ya'ni gaplarning barcha tiplari bilan ishtirok etolmaydi. Badiiy nutq doirasida til vositalari ma'lum qonun-qoidalarga amal qiladi, ana shu qonun-qoidalalar uni boshqa uslublardan chegaralashga farqlashga imkon beradi.

Badiiy nutq uslubining o`ziga xos lug`aviy va grammatic xususiyatlari mavjud.

Badiiy uslubda so`z ma'nolarining kengayishi, o`zgarishi, ko`p ma'noli bo`lishi va hatto lug`atlarda qayd etilmagan ma'nolar kasb etishi qonuniyat sanaladi.

Lug`aviy birliklardan tashqari frazeologik birliklarning faol va keng ravishda ishlatalishi ham badiiy nutq uslubining asosiy belgilaridandir.

Badiiy uslubning grammatic xususiyatlariga nazar tashlasak, grammatic shaklning barcha ko`rinishlari – sheva va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo`llanaveradi. Masalan:

Dunyo bo`ldi chamanim manim,
O`zbekiston vatanim manim.

Badiiy nutq uslubida so‘z turkumlarini qo‘llashda ham o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, sifatlarning ishlatalishi badiiy nutqda ot va olmosh kabi faoldir. Olmoshlardan kishilik va ko‘rsatish olmoshlarining qo‘llanishi mahsuldordir. Sonlar odatda aniq ma’nolarni anglatishi bilan birga ma’nosni kengaygan holda ham qo‘llanadi. Undov va taqlid so‘zlar ham badiiy uslubda uchrashi xarakterlidir.

Badiiy uslub sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan farqlanadi. Badiiy nutq uslubida darak, so‘roq, buyruq gaplar matn sintaksisining ajralmas qismini tashkil qiladi. Undov gaplar ham badiiy nutq uslubi uchun xarakterlidir. Ular kitobxonga estetik ta’sir o‘tkazishda yozuvchi qo‘lida kuchli qurol hisoblanadi.

Badiiy nutq uslubida qo‘shma gapning barcha turlari aralash ishlatalaveriladi. Nutq ham diologik, ham monologik bo‘lishi mumkin. Badiiy uslubni tilimizning boyligi sanalmish tasviriy vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar **rasmiy-idoraviy uslubda** yoziladi. Ariza, tilxat, ma`lumotnama, chaqiruv qog`ozi, taklifnama, shartnama, tarjimai hol, e`lon, tavsifnama, dalolatnama, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo`lishi. Bu uslubda ham so`zlar o‘z ma`nosida qo‘llanadi, ko`pchilikka ma`lum bo`lgan ayrim qisqartma so`zlar ishlataladi, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi, *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, tayinlansin* kabi so`z va so`z birikmalari ko`plab uchraydi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko`pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko`rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo`laklarining odatdagi tartibda bo`lishiga rioya qilinadi: *O`z lavozimini suiiste`mol qilganligi uchun M. Ahmedovga hayfsan e`lon qilinsin. Yodda saqlang!*

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy majlis yig‘inlarida, turli xil anjumanlarda qo‘llaniladigan nutq uslubi publisistik uslub sanaladi. Publisistik uslub 2 xil shaklda namoyon bo‘ladi: 1) yozma shakl, 2) og‘zaki shakl

Publisistik uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo‘lishlik, hozirjavoblik, ta’sirchanlik belgilarga ega.

Publitsistik uslub. Publitsistik asarlarning (masalan, xabar, reportaj, korrespondensiya, maqola, ocherk, felton, pamflet, bosh maqola va boshqalarning) uslubiy chegaralanishi ularning alohida lisoniy belgilariga ega ekanligida ko‘rinadi.

Adabiy tilimizning boyishida publitsistik uslubning roli katta. Publitsistik uslub ijtimoiy - siyosiy bilimlarni targ‘ib qilish va keng xalq ommasiga yetkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang - barangligi orqali kishilar ongiga ko‘proq ta’sir etadi.

Bu uslubning yana bir xususiyati shundaki, unda qisqalik markaziy o‘rinlaridan birini egallaydi, ya’ni qisqa, lo‘nda, tushunarli, yorkin, ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi.

Publitsistik uslubda gazeta tili alohida o‘rin egallaydi. Chunki gazeta va publitsistika bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga gazeta uslubi publitsistik uslubning bir tarmog‘i hisoblanadi.

Publitsistik uslubning o‘ziga xos belgilaridan yana biri shundaki, unda ba’zi grammatik vositalar, ravishdosh, sifatdosh oborotlar fe'lning shart mayli shakllarining almashilib ishlatalishi, ritorik, murojaat, undov, bir sostavli gaplarning qo‘llaning darajasi boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan ustunroq.

Publitsistik uslubning xarakterli belgilaridan biri nutqning ko‘pincha I shaxs nomidan ifodalanishidir.

Publitsistik uslub morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan ajralib turadi. Morfologik uslublardan biri so‘z yasalishida ko‘zga tashlanadi. Bunda boshqa tildan qabul qilingan so‘zlar tarkibi o‘zbek tilidagi qo‘shimchalar bilan almashtiriladi: sportchi, dildosh, paxtashunos; - lik qo‘shimchasi bilan so‘z yasash ham anchagina: ilg‘orlik, omilkorlik, hamkorlik, faollik, bunyodkorlik, ishchanlik, unumdorlik.

Publitsistik uslubning sintaktik xususiyatlari:

1. So‘roq gaplar ko‘p ishlataladi;
2. Uyushiq bo‘lakli gaplar keng qo‘llaniladi;
3. Undov gaplar ko‘p ishlataladi;
4. Kirish bo‘lakli, kirish qurilmali gaplar keng qo‘laniladi;
5. Shaxsi umumlashgan gaplar ko‘p ishlataladi.

Ilmiy uslub.Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar **ilmiy uslubda** yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma`lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qidalar, ta`riflar)ga boy bo`lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: *Yomg`ir – suyuq tomchi holidagi atmosfera yog`ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo`ladi.*

Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy atamalaridan foydalilanadi, bu uslubda so‘zlar o‘z ma`nosida qo‘llanadi, qoida yoki ta`rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo`laklar, kirish so‘zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo`shma gaplardan ko`proq foydalilanadi.

Badiiy uslub **aralash uslub** hisoblanadi, chunki bu uslubda so`zlashuv va kitobiy uslublarga xos o`rinlar ham uchraydi.

Har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud. Bularni quyidagi turlarga bo`lish mumkin:

1. Leksik vositalar: sinonim, omonim, antonim, paronim, ko`p ma`nolilik, tag ma`no (gapning tagida yashiringan ma`no), sifatlash, o`xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so`zlar (jargon, argo, so`kish, qarg`ish kabilalar), kasb-hunar so`zları, mubolag`a (giperbola), arxaik va tarixiy so`zlar, atamalar.

2. Fonetik vositalar: nutq tovushlari, ohang, urg`u.

3. Grammatik vositalar: a) morfologik vositalar: har bir so‘z turkumi; b) sintaktik vositalar: gap bo`laklari, ritorik so‘roq gaplar, undalma, kirish so‘z, kirish birikma, sodda va qo`shma gaplar, ko`chirma va o`zlashtirma gaplar.

Ma`lum bir uslubga tegishli bo`lgan so`zlar uslubiy xoslangan so`zlar deb yuritiladi: *yanglig`* so`zi badiiy uslubga, *omonim*, *sinonim* so`zları ilmiy uslubga, *balli*, *ketvorgan* kabi so`zlar so`zlashuv uslubiga, *faollar yig`ilishi*, *siyosiy maydon* kabi so‘z birikmaları ommabop uslubga xosdir. So`zlashuv uslubida ham, kitobiy uslubda ham

ishlatilaveradigan so`zlar **uslubiy betaraf so`zlar** hisoblanadi:suv, tog`, bola, xat. Bu so`zlar ko`chma ma`noda qo`llansa, ma`lum bir uslubga tegishli bo`lishi mumkin.

Adabiyotlar:

7. To'xliev B. Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish (Mumtoz adabiyot namunalari misolida). –T.:TDTU, 2013.
8. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2011.

FIZIKA FANIDA MEXANIKA

Xaydarova Moxinur Avazbek qizi
Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi fizika fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12788673>

Abstract: In this article, the importance of mechanics in the science of physics and the development of technologies, information about the laws of Newtonian mechanics is presented.

Key words: mechanics, laws of mechanics, classical mechanics, quantum mechanics, Impuls.

Anatatsiya: Ushbu maqolada fizika fanida hamda texnologiyalarning rivojlanishida mexanikaning ahamiyati, Nyuton mexanikasi qonunlari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mexanika, mexanika qonunlari, klassik mexanika, kvant mexanikasi, Impul.

Introduction

Mexanika fizikaning asosiy bo'limlaridan biridir. Inson har doim uni o'rab turgan olam bilan murakkab o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu o'zaro ta'sirning namoyon bo'lishi olamni o'rganish hisoblanadi. Atrofimizdagi tabiat bir qator fanlarda o'rganiladi, uning umumiyligi nomi tabiatshunoslikdir. Bu fanlar orasida fizika muhim o'rinni egallaydi. O'z navbatida, fizikada mexanika muhim o'rinni egallaydi. Mexanikaning bunday o'rinni tutishiga asosiy sabablar quyidagilar: birinchidan inson o'zini o'rab turgan olamni bilishining dastlabki bosqichlarida mexanik hodisalarini o'rganish muhim o'rinni egallaydi. Ikkinchidan, fizikaning barcha keyingi bo'limlari mexanika bazasida yuzaga keladi, bu bo'limlarda mexanikada ishlab chiqilgan metod va tushunchalardan foydalilaniladi.

Fizika fan sifatida ijtimoiy ishlab chiqarish talablari natijasida yuzaga keldi. Bunda tegishli talablар paydo bo'lishi bilan birin-ketin ijtimoiy ishlab chiqarish tarmoqlari yuzaga kela boshladi. Mexanika bugungi kunda kosmonavtika, aviatsiya suv ustiligi va osti transporti, mashinasozlik, qurilish, mudofaa va tibbiyot texnikasining ilmiy asosidir. Hozirgi kunda hech bir ishlab chiqarish korxonasi yo'qki, uning uchun mexanika bilimlari kerak bo'lmasin. Mexanika va tabiatni bilish. Tabiatning hech bir hodisasini uning mexanik tomonlarini bilmay turib, har tomonlama bilish mumkin emas. Buning ajablanarli joyi yo'q: bizni o'rab turgan dunyoda ko'p hodisalar mexanik harakat bilan bo'g'langan. Quyosh, yer va boshqa sayyoralarining harakati, suv va havo harakati, jismlarning tushishi, odamlar, hayvonlarning ko'chishi-bularning hammasini mexanika bilimlarisiz tushuntirib bo'lmaydi.

Mexanikaning asosiy qonunlari Nyuton tomonidan uning 1687 yilda chop etilgan "Natural falsafaning matematik asoslari" nomli kitobida (o'sha vaqtida fizikani shunday atashgan) ifodalangan edi.

Nyuton, o'zigacha mexanika sohasida erishilgan hamma yutuqlarni umumlashtirib, mexanika fanining mustahkam binosini qurdi. Nyuton mexanikasi ko'pincha klassik mexanika deb ataladi: "klassik" so'zi uning asoslari va buniyodkorga hurmat yuzasidan qo'shilgan. Klassik mexanika asosini uchta qonun tashkil qilgan va ushbu uchta qonun quyidagilardir:

Birinchi qonun — har qanday jismga tashqi kuch ta'sir qilmaguncha u o'zining tinch holatini yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatini saklaydi.

Ikkinci qonun — harakat miqdori (jism massasi bilan tezlanishi ko'paytmasi) ning o'zgarishi jismga ta'sir qiluvchi kuchga proporsional, yo'nalishi esa ta'sir etadi.

Uchinchi qonun—ikki jismning o'zaro ta'sir kuchi bir-biriga teng, yo'nalishi esa qarama-qarshi bo'ladi. Nyutonning mexanika qonunlari G.Galiley, X.Guyugens, hamda Nyutonning o'zi o'tkazgan ko'plab kuzatishlar, tajribalar va nazariy tadqiqotlar natijasida paydo bo'lган.

Kvant mexanikasi, to'lqin mexanikasi — nazariy fizikaning juda kichik o'lchamli zarralar (elementar zarra, atom, molekula va h.k.) harakat qonunlarini o'r ganuvchi bo'limi hisoblanadi. XX asr boshida qator omillar — atomlarning turg'unligi, fotoeffekt, radioaktivlik, qora jismning nurlanishi singari hodisalarini klassik mexanika va klassik elektrodinamika asosida tushuntirib berish imkonni bo'lmay qolganligi kvant mexanikasini paydo bo'lishiga olib keldi. M.Plank, A.Eynshteyn va N.Bor kabi olimlarning ishlari kvant mexanikasining yaratilishiga asos bo'ldi. Fizikaning boshqa sohalari kabi, kvant mexanikada ham zarrachaning holatini va bu holat o'zgarishini ifodalovchi dinamik kattaliklarning bir qator saqlanish qonunlari fundamental ahamiyatga egadir. Shunday saqlanish qonunlari qatoriga energiya, Impuls va Impuls momenti saqlanish qonunlarini va ulardan tashqari faqat kvant mexanikaga xos bo'lган juftlikning saqlanish qonunini ham kiritish mumkin. Klassik mexanikada vaqtning bir jinsliligidan energiyani saqlanish qonuni, fazoning bir jinsliligidan impulsning saqlanish qonuni va fazoning izotropligidan impuls momentining saqlanish qonuni kelib chiqadi.

Shunday qilib, yorug'lik tezliklaridan kichik tezliklar bilan harakatlanuvchi mikroskopik jismlar harakatini to'g'ri tavsiflaydi. Albert Eynshteyn Nyutonning klassik mexanika qonunlarini quyidagi tarzda baholaydi: "Hech kim Nyutonning buyuk kashfiyotini nisbiylik nazariyasi yoki qandaydir boshqa nazariya yo'q qilib yuboradi deb o'yamasin. Nyutonning aniq va ravshan g'oyalari doimo bizning zamonaviy fizik tasavvurlarimiz tayangan abadiy zamin bo'lib qoladi".

Adabiyotlar:

1. A.G. G'aniyev, A.K. Avliyoqulov, G.A. Almardonov. "Fizika". I-qism. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. "O'qituvchi", Toshkent. 2005 yil
2. Nabijonovich J. A. Renewable energy sources in Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 769- 774.
3. Ҳантўраев И. М., Жуманов А. Н. ЭЛЕКТР ТАРМОҚЛАРИДА ҚУВВАТ ИСРОФЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 330-337

4. Курбанов А. А. Ў., Жуманов А. Н., Муродқосимов Ж. Т. Ў. 0, 38 КВ КУЧЛАНИШЛИ ТАРМОҚНИ ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ ИСРОФИНИ ҚИЙМАТИНИ АНИҚЛАШ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 300-306.
5. М.М.Musaxanov, A.S.Raxmatov, Kvant mexanikasi – Т., 2011-у
6. G.X. Xoshimov, R.Ya.Rasulov, N.X.Xoshimov, Kvant mexanika asoslari – Т., 1995-у.

KOMPYUTER GRAFIKASI PHOTOSHOP

Najmiddinova Oqilaxon Baxtiyor qizi

Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Informatika va AT fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12788590>

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika fani o‘quv jarayoniga, xususan, darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati haqida ilmiy fikrlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Kompyuter grafikasi turlari, vektorli grafika, piksellar, JPEG (Joint Photographic Experts Group), tasvirlar animatsiyasi.

Axborotni grafik shaklda ishlab chiqish, taqdim etish, ularga ishlov berish, shuningdek, grafik ob'ektlar va fayllarda bo'lgan nografik ob'ektlar o'rtaida bog'lanish o'rnatishni informatikada kompyuter grafikasi deb ataladi. Kompyuter grafikasi tushunchasi hozirda keng qamrovli sohalarni o'zida mujassamlashtirib, bunda oddiy grafik chizishdan to real borlikdagi turli tasvirlarni hosil qilish, ularga zeb berish, dastur vositasi yordamida hatto tasvirga oid yangi loyihalarni yaratish ko'zda to'tiladi. U multimedia muhitida ishslash imkoniyatini beradi.

Kompyuter grafikasi mustaqil yo'naliш sifatida XX asrning 60- yillarida paydo bo'ldi va maxsus amaliy dasturlar paketi ishlab chiqildi. O'sha paytda kesmalar yordamida chizish, ko'rinmas chiziqlarni o'chirish, murakkab sirtlarni akslantirish usullari, soyalarni shakllantirish, yoritilganlikni hisobga olish tamoyillari ishlab chiqilgan edi. Bu yo'naliшdagи ilk ishlar vektorli grafikani rivojlantirishga yani, chiziqlarni kesmalar orqali chizishga yo'naltirilgan edi. 70-yillardan boshlab nazariy va amaliy ishlarning aksariyati fazoviy shakl va obektlarni o'rganishga qaratildi. Bu yo'naliш uch o'lchovli grafika (3D) nomi bilan ataladi. Uch o'lchovli tasvirlarni modellashtirish fazoning va jismlarinnig uch o'lchovlilagini, kuzatuvchi va yoritish manbalarining joylashishini hisobga olishini talab etadi. Murakkab sirtlarni akslantirish, releflar va ularning yoritilganligini modellashtirish bilan bog'lik masalalarning paydo bulishi uch o'lchovli grafikaga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi.

90-yillarda kompyuter grafikasining qo'llanish sohalari ancha kengaydi, ya'ni uni keng tadbiq qilish imkoniyatlari paydo buldi. Natijada kompyuter grafikasini faoliyati dasturlash va kompyuter texnikasi bilan bog'liq bo'lman mutaxassislarining ish vositasiga aylandi. Kompyuter grafikasining yangi yo'naliшlardan biri haqiqiy tasvirlarni shakllantirishning uslub va tamoyillarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Bu tamoyillarga ko'ra tasvirlarni bevosita kuzatish yoki optik qurilmalar yordamida ro'yxatga olish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak. Shunday tasvirlarga extiyoj dizayn, arxitektura, reklama va boshqa sohalarda paydo bo'ldi. Kompyuterlar funktsional imkoniyatlarining kengayishi kompyuter grafikasining rivojlanishiga asos yaratdi va tasvirlar animatsiyasini taminlovchi tizimlar ham yaratilishiga olib keldi.

Kompyuter grafikasi turlari
Hozirgi kunda kompyuter grafikasi asosan uch turga bo'lib o'rganiladi:
rastrli grafika; vektorli grafika; fraktal grafika.

Ular o'rtasidagi asosiy farq nurning display ekrandan o'tish usulidan iborat. Shuningdek ular bir-biridan monitor ekranida tasvirlanishi va qogozda bosib chiqarilishi bilan farqlanadi.

Eslab qoluvchi elektron-nurli trubkalarga ega vektorli qurilmalarda nur berilgan traektoriya bo'ylab bir marta chopib o'tadi, uning izi esa ekranda keyinga buyruq berilguncha saqlanib qoladi. Vektorli grafikaning asosiy elementi - chiziqdir. Vektorli grafika bilan ishlovchi dasturiy vositalar birinchi navbatda tavirlarni yaratishga mo'ljallangan. Vektorli grafika muxarrirlariga misol qilib Adobe Illustrator, Corel Draw va Macromediya Flashlarni keltirish mumkin. Ushbu dasturiy vositalarda ishlangan rasmlar nuqtalar koordinatalari xamda ushbu nuqtalardan o'tuvchi chiziqlar xamda vektorlar formulalaridan iborat bo'ladi. Vektorli grafikada yaratilgan tasvirlar logotip, illyustratsiyalar va zastavkalar yaratishda foydalaniladi.

Vektorli grafika- shrift va oddiy geometrik elementlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Bunda tasvirning asosiy elementi chiziq hisoblanadi. Vektorli grafikadagi ma'lumotlar operativ xotirada kam joy egallaydi. Masshtablash jarayonida ob'ektlar o'zining xususiyatini yo'qotmaydi. Murakkab ob'ektlarni vektorli grafikada ularning o'lchamini kattalashtirib ko'zdan kechirish mumkin. Vektorli grafikada tasvirlar geometrik shakllardan tashkil topgan bo'ladi. Chiziqlar va shakllar majmuasi natijada biror bir umumiy rasm yoki tasvirni hosil qiladi. Vektorli grafikada tasvirni hosil qilish bo'yicha matematik formulalar asosida barcha hisob-kitoblarni kompyuter bajaradi. Vektorli grafika dasturlarida yangi tasvirlar yaratiladi, lekin shu bilan birgalikda, ularga rastrli tasvirlarni ham qo'shish imkonibor.

Rastrli (nuqtali) grafika deb - bir xil o'lcham va yacheikalarga ega bo'lgan nuqtalar (piksellar) to'plami orqali tasvirlangan tekis geometrik shakllarga aytildi. Rastrli tasvirlar bilan ishlashga mo'ljallangan ko'pgina grafik muxarrirlar asosan tasvirlarga ishlov berishga mo'ljallangan. Rastrli grafika muxarrirlariga misol kilib Adobe Photoshop va Paint dasturlarni keltirish mumkin. Ushbu dastrularda rasmlar mayda kvadrat - piksellardan iborat bulib mozaika holatida rasmni xosil qiladi. Rastrli grafikadan raqamli fotosuratlar va skanerdan olingen rasmlar bilan ishlash uchun foydalaniladi.

Rastrli grafika - multimedya va poligrafik nashrlarni yaratishda keng qo'llaniladi. Rastrli grafika vositasi asosida yaratilgan tasvirlar kamdan-kam holatda kompyuter dasturlari orqali qo'lda yaratiladi. Ko'proq bu maqsadda tasvirlar skanerланади. Rastrli tasvirning asosiy elementi bu nuqta xisoblanadi. Agar tasvir ecranli bo'lsa, u holda bu nuqta piksel deb ataladi. Tasvirning o'lchami bilan uning imkoniyati o'zaro bog'liq. Bu parametr nuqta-dyuymga nisbatan o'lchanadi.

Fraktal grafika - bu hisoblash grafikasıdır. Tasvir formula asosida quriladi. Kompyuter xotirasida tasvir emas formula saqlanadi. Uning yordamida cheksiz xar-xil tasvirlarni olish mumkin. Fraktal grafika bilan ishlovchi dasturiy vositalarga misol qilib MathCad, MathLab, Maplelarni keltirish mumkin. Fraktal grafika - bu tasvirni chizish yoki jihozlash emas, balki uni matematik hisoblashlarga asoslangan dasturlar asosida qurishdir.

Fraktal grafika odatda o'yin dasturlarini yaratishda ko'proq qo'llaniladi. Fraktal grafikada tasvirlar tenglamalar yordamida quriladi. Bunda tenglama koeffitsientlarini o'zgartirish yordamida har xil rasmlarni olish mumkin. Fraktal grafika ham hisoblanuvchi grafika bo'lib, uning vektorli grafikadan farqi shundaki, unda hech qanday obektlar kompyuter xotirasida saqlanmaydi. Chunki tasvirlar tenglamalar yoki ularning tizimlarida hosil qilinadi. Shuning uchun ham xotirada tenglamalargina saqlanadi. Tenglamalarga oid parametrlar o'zgartirilishi natijasida turli tasvirlar hosil qilinadi.

Grafik formatlar

GIF (Graphics Interchange Format) grafik formati -Internetda eng keng tarqalgan grafik format bo'lib, u Internet tarmoqda birinchi bo'lib paydo bo'lgan. Internet tarmoqdagi rangli tasvirlar va fonzarning ko'p qismi GIF formatli fayllaridir.

GIF tasvirni zichlashtirishga imkon beradi, tasvirlarning rang palitrasи 256, yoki undan kamroq rangni saqlaydi. Bu zichlashtirish jarayoni sifatga ta'sir qilmaydi, ya'ni, zichlashtirishdan keyin olingen tasvir boshlang'ichi kabi bo'ladi. Agar tasvir 256 dan ortiq rangga ega bo'lsa, ularning soni chegaralangan qiymatgacha qisqartiriladi. Shuni aytib o'tish kerakki, ranglar sonini qisqartirish bosqichida tasvir sifatiga zarar etkazilishi mumkin. GIF da boshlang'ich tasvirni zichlashtirishda faylning o'lchamini faqatgina palitradagi ranglar sonini 2 dan 256 gacha chegaralagan holda kichraytirish mumkin. Shunday qilib, GIF chegaralangan sonli ranglardan tarkib topgan grafik fayllarni zichlashtirishda qo'llanilsa, juda yaxshi natjalarga erishiladi. Bu grafik format tarmoqda logotip, matn, diagramma, grafik va chizmalarining tasvirini taqdim qilishda juda katta imkoniyatga ega.

JPEG (Joint Photographic Experts Group) grafik formati ko'p rangli tasvir fayllarini tarmoqda ishlatish uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanish darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi grafik format hisoblanadi. JPEG rang palitrasи 16 777 216 (True Color) tagacha bo'lgan rangni saqlaydigan tasvirlarni zichlashtirish imkoniyatini beradi. Bunday zichlashtirish tasvirning sifati yo'qolishi (lossy compression) hisobidan sodir bo'ladi.

PNG grafik format Web - sahifalarda tasvir va grafiklarni joylashtirish uchun maxsus yaratilgan zichlashtirish formati bo'lib Deflate zichlashtirish algoritmidan foydalanadi. Bu format GIF va JPEG formatlarining afzallik tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Adobe Photoshop rasm tahrirlagichi haqida

Hozirgi kunda sodda va murakkab rastrli grafika tahrirlash dasturlari mavjud. Sodda grafik muharrirlardan biri - Windows operasion tizimi tarkibiga kiruvchi Paint dasturidir. Mazkur dastur oddiy amallarni bajarish imkonini beradi, lekin professional darajadagi imkoniyatlardan foydalanish uchun maxsus rastrli grafik dasturlaridan foydalanish kerak bo'ladi: Adobe Photoshop, Corel PhotoPaint va hokazo. Adobe Photoshop dasturi hozirgi kunda eng mashhur va butun dunyo mutaxassislari tomonidan tan olingen dastur hisoblanadi. Buning asosiy sabablari - uning boy va keng imkoniyatlari, qulay va oson interfeysi (muloqoti), deyarli barcha grafik formatlar va tizimlar bilan ishlashi. Adobe Photoshop tasvir tahrirlagichi yordamida fotosuratlarga ko'shimchalar kiritish, fotosuratdagi dog'larni o'chirish va eski rasmlarni qayta ishlash va tiklash, rasmlarga matn

kiritish, qo'shimcha maxsus samaralar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elyemyentlarni ikkinchi fotosuratga olib o'tish, suratdagi ranglarni o'zgartirish, almashtirish mumkin.

Adobe Photoshop imkoniyatlari kyeng qamrovli bo'lib, u gazyeta va jurnallarni turli-tuman rasmlar bilan boyitishda juda katta qulayliklar yaratadi. Adobe Photoshopda tasvirni import qilish - skaner, raqamli fotoapparatdan kiritish, boshqa formatdagi rasmlarni kiritish (bmp, jpg, png, tif, gif va boshqalar); Tasvirni tahrirlash - o'zgartirishlar kiritish, ranglar bilan bo'yash, chizish, o'chirish, yorqinlik va aniqlik darajasini o'zgartirish; Rang rejimini o'zgartirish; chop etish; boshqa nom va formatda saqlash; har xil effektlarni qo'llash; tasvirdagi ranglarni turli usullarda filrlash imkoniyatlari mavjud.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g'risida" gi PF-5847 son Farmoni
2. Rafael Concepcion, Adobe Photoshop CC and Lightroom CC for Photographers, Second Edition, Classroom in a Book, 2019.
3. Scott Kelby, The Photoshop Elements 2020 Book for Digital Photographers, New Riders, 2019.

INGLIZ TILI LEKSIKANI O'RGATISHDA LEKSIKANING ROLI

Ergasheva Dilafruz G'ulomjonovna

Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12788550>

Abstract: In this article, information about the role of the lexicon in teaching English vocabulary is reflected.

Key words: Lexical materials, vocabulary of the language, reading and speaking a text in a foreign language, technical tools, educational, professional pedagogical goals.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili leksikani o'rgatishda leksikaning roli borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Leksik materiallar, Tilning lug'at boyligi, xorijiy tildagi matnni o'qib va uni gapirib berish, Texnika vositalari, tarbiyaviy, kasbiy pedagogik maqsadlar.

Introduction.

Ingliz tili leksikani o'rgatishda talabalarni mактабда ingliz tili fanidan olgan bilimlarini chuqurlashtirish hamda ularning nutq faoliyatini o'stirish, so'zlashish, yozish, o'qib tushuna bilish qobiliyatini kuchaytirish, o'z faniga oid adabiyotlarni o'qib tarjima qilish va ulardan foydalanish.

Ingliz tili o'quv kursning o'rganish obyekti tilning asosiy birligi bo'lgan so'z, ingliz tilining lug'at tarkibi va uning fraziologik fondi hisoblanadi. Tilning lug'at boyligi jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liqdir.

O'qitilayotgan bu fan hayotning barcha jabhalarida ro'y beradigan va tilning lug'at tarkibida aks etayotgan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Fan oldiga qo'yilgan maqsadlardan yana biri o'tilgan grammatik – leksik materiallar asosida talaba nutqini yaxshilash darak, so'roq va undov gaplarni leksik – sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, fonetik jihatdan to'g'ri fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga qo'yiladigan talabalar, 1-bosqichda Ingliz tili darslarida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan 800 dan ziyod leksik birlikni o'rganib, bularni og'zaki nutqda ishlata olish ko'nikma va malakalarini o'rgatib boiladi. Bunda talabaning leksik so'z boylaigi oshiriladi, kasbiy muloqot va nutqiy madaniyatga yo'naltiriladi. Ingliz tilida turli matnlarni o'qitib ularni tinglab tushunganini gapirishga o'rgatiladi, dialoglar tuzdiriladi. Talaba turli xil gaplarni tarjima qila olishi, qisqa hikoyalarni tuzishi va o'z fikrini ingliz tilida bildira olishi kerak.

Har bir so'zlashuvchi uchun 15-17 nutq birligi to'g'ri keladi. Ingliz tili darslarida tarjima uchun beriladigan materiallarni o'qib chiqib, matn mazmunini gapirtiraladi. Dars davomida turli xil inglizcha hikoyalarni va mutaxassislikka tegishli bo'lgan matnlarni o'qib tushunishga o'rgatiladi. Bu ingliz tilida nutqni rivojlantirish mavjud bo'lgan xorijiy tildagi matnni o'qib va uni gapirib berishga yordam beradi va yanada murakkabroq tekstlardan foydalanishni talab qiladi.

Ingliz tili darslarida eshitgan, ko‘rgan yoki o‘qigan mavzusi asosida o‘z fikrini turli xil leksik birlikka yordamida bиринчи bosqich leksik va grammatic materialini yozma ravishda bayon qilishni talab qiladi.

Talabalarning yozma nutqi shakllarini yanada chuqurroq bilishga asoslangan bo‘lib, bunga ular o‘z fikrini ingliz tilida chiroyli qilib ifodalab berishlari kerak. Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan o‘zaro ketma-ketligi; Ingliz tili fani bevosita tilshunoslik va matnshunoslik fanlari bilan yaqindan aloqada u adabiyot-shunoslik masalalariga matn til-shunosligi, tilning ichki qurilishi lingvistik tahlil qiladi. Matn analizida matnning mavzusi va uslubi bilan ish ko‘radi va shu asosida mantga ta’luqli bo‘lgan fanlarning ilmiy xulosalariga tayanadi.

Ingliz tili fani mактаб va kollejlarda egallangan bilimlarini yuqori darajada o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Ingliz tilidagi kitob va lug‘at bilan mustaqil ishslash, matnni tushunish va gapirishni o‘z ichiga oladi. Talaba ko‘proq mustaqil ishlashi kerak. Mamlakatimizning oliy o‘quv yurtlari oldida talabaning nafaqat bilim doirasi kengaytirish, balki shu o‘rganilayotgan tilda fikrlash va barcha vazifalarni ham rejalashtirgan. Talaba mustaqil ishi ikki ko‘rinishga ega:

1. Dars jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiya yordamida tekstlarni eshitish, va ularni to‘g‘ri talaffuz qilish: tekstlarni pauza va pauzasiz eshitish va gapirib berish. Leksik materiallar asosida tarqatma materiallar bilan ishslash.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalar yordamisiz asosida hikoyalar tuzish.

2. ko‘rinishi esa dasrdan tashqari talabalarning ingliz tiliga oid bo‘lgan kechalar va shu orqali ingliz tilida yaxshi so‘zlasha oladigan talaba ko‘rgini o‘tkazish tadbirlari kiradi. Bu tadbirlar dars jadvaliga kiritilmaydi va o‘qituvchi tomonidan kuzatiladi.

Chet tilidagi kitob va lug‘at bilan mustaqil ishslash, chet tilidagi so‘zlashishni eshitish va grammatic shakllarni to‘g‘ri ishlatish:

Talabalarni mutaxassislika doir matnlar ustida ishslashga o‘rgatish. Kelajakda sohaga doir ish hujjatlarini ariza, taqriz, biografiya, uzrnoma, rasmiy va xususiy xatlar mustaqiltarzda, yozma shaklda yozish ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish:

Informasion – uslubiy ta’minoti.

Plakatlar.

Texnika vositalari:

Talabalarning ishlaridan namunalar:

Tarqatmalar:

O‘qitishning texnik vositalari:

Magnitafon:

O‘quv kompyuterlari:

Vidoiklip.

Ingliz tili fani bo‘yicha talabalar bilimini baholash mezonlari. Joriy baholash: bиринчи, ikkinchi kursda har bir semestr uchun ajratilgan 30 soat dars jarayonida talaba 85 % gacha ball olishi mumkin, har 5 soat amaliy mashg‘ulotdan so‘ng JB o‘tkaziladi. JB soni 3 ta har bir JB uchun talaba 28, 29 ball gacha baholandi leksika tilshunoslik asosiy kursning uzviy qismi bo‘lib, tilshunoslik sohasidagi yo‘nalishlarda muhim o‘rin tutadi. Tilning leksikasini o‘rganish juda keng soha bo‘lib, u so‘zlarni hosil qilish, lug‘at sostachining

bayishi va nutqda ishlatalishi, ma'nolarning o'zgarishi va kengayishi turli terminlarning qo'llanilishi kabi bir qator masalalarni qamrab oladi.

Shu tufayli, leksikalogenyaning ma'no tomonlarini o'rganuvchi alohida – alohida sohalari mavjud bo'lib, ular so'zni ilmiy tadqiq etish bilan belgilanadi. Xuddi 1-kursdagidek monologik nutq o'ylab tasvirlab berishga asoslangan, lekin fikr berish yanada qiyinroq mukammalroq leksik – grammatik material berishi kerak. Agar birinchi yil bilan qiyoslansa, bu yilgi materiallar alohida berilgan kursda chet tilini o'qish va o'qitishning amaliy jarayonida ta'lim – tarbiyaviy, kasbiy pedagogik maqsadlarini amalga oshirish ham nazarda tutuladi. Amaliy maqsad talabalarda tilshunoslikka oid ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tilshunoslikka oid ko'nikmalar til tizimini bilish va ingliz tilida aloqa qilish jarayonida ishlatish qoidalarni o'z ichiga oladi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – siyosiy rivojlanishini uning bozor iqtisodiyoti, chet mamlakatlar bilan tashqi siyosiy rivojlanishini aks ettiruvchi atamalar va muloqot mahoratini egallashiga alohida ahamiyat beriladi.

Pedagogik va kasb tanlashga oid nutq aloqa vositalarini O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi, xalqaro ish aloqalarining kegayishi, xalq xo'jaligida yangi yo'nalihsarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan, eng muhim sohalar deb hisoblanadi. Tilshunoslik va mamlakatshunoslikka oid ko'nikma o'rganilayotgan til mamlakatning ijtimoiy – madaniy rivojlanishi xususiyatlarini, shu mamlakat tarixi va sat'atini bilish va ular asosida nutq o'stirishni o'z ichiga oladi. Nutq amaliyoti kursida ingliz tilini o'qitish kommunikativ – uslubiy ko'nikmani shakllantirishdagi kasbiy pedagogik maqsadni ham ko'zlaydi. Kursning asosiy vazifasi ingliz tilini egallashning sifat jihatidan takomillashuvdir. II kursda og'zaki va yozma nutq asoslarini o'rganish mukammalroq bo'ladi.

Bu yanada murakkab chuqurlashtirilgan materiallardan bo'lgan tekisliklarini va til talqinini chuqurlashtirilgan materiallardan foydalanishni talab qiladi. Bu ayniqla matn tahlili mashg'ulotlarida leksikalogeniya, fanlaridan olingan bilimlarini tadbiq etish bilan boyitiladi. Bu bosqichda mamlakatshunoslikka oid mavzular ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga bir qator til o'rganilayotgan davlatning ro'znomada jurnallarini, zamonaviy yozuvchilarining badiiy asarlari o'quv materiali sifatida ishlatalishi kerak.

Og'zaki va yozma nutq amaliyoti fani ingliz filologiyasi bo'yicha mutaxassis tayyorlashda asosiy rolni o'ynaydi. Ingliz tili "Og'zaki va yozma nutq amaliyoti" kursining maqsadi va vazifalari. "Og'zaki va yozma nutq amaliyoti"ni o'rganish maqsadi talabalar tarkibiga bo'lajak mutaxassislar, filologlar, pedagoglar, madaniyatlararo vazifalar, nutqiy va kommunikativ bilimlar kiradigan malaka va mahoratini shakllantirishdan iborat. Mutaxassislarning o'zga til madaniyati tarkibiga insonga o'qish, bilim olish, tarbiya va rivojlanish nuqtai nazardan ingliz tilini kommunikativ o'qitish jarayoni berishi mumkin bo'lgan ma'noviy boylik kiradi.

O'zga til – madaniyatining rivojlantiruvchi jihatni nutqiy va kommunikativ qobilyatlar, jumladan fonetik eshitish, tahmin qilish, farqlash, o'xshatish mantiqiy bayon etish tilni sezish, nutq faoliyatining turli shakllari va usullaridan foydalanish, nutq faoliyati

bilan bog‘liq ruhiy funksiyalar xotirlash, e’tibor qilish, tasavvur qilish, intellekt – aql idrok, sintez qilish, mehnatsevarlik, irodalik, sobitqadamlik, faollik va boshqalar:

Fani tugatish bo‘icha bo‘lajak filolog – pedagoglar quyidagi bilimlarni egallashlari lozim:

Singvistil bilimlar:

Ingliz tili tizimini hamda uni o‘zga til bilan kommunikatsiya jarayonidagi muloqotlarning ijtimoiy – maishiy, ijtimoiy- madaniy, ijtimoiy – siyosiy hamda kasbiy sohalarda stalistik bilimlar, leksik bilimlar va so‘z yasash moddellari: Kasbiy yo‘naltirilgan leksika – so‘z boyligi; Kasbiy mehnat faoliyatining kommunikativ sohalari, filolog mutaxassisning kasbiy muloqoti va nutqiy madaniyati:

BIRINCHI BOSQICH

Birinchi bosqich o‘quv meyoriy xususiyat ega ko‘p ishlatiladigan hamda keng tarqalgan leksik hodisalarini, turli hil so‘z birikmalari va idiomatik birliklarini o‘z ichiga olganligi bilan xarakterlidir.

Birinchi bosqichda o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan leksik minemum kundalik turmush mavzusiga tegishli bo‘lgan 1000 dan ziyod leksik birlik tashkil etadi. Birinchi bosqichning asosiy maqsadi og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, o‘tilgan leksik materiallar asosida talaba nutqini yaxshilash, darak, so‘roq va undov gaplarni leksik – sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzish, hamda ularni og‘zaki nutqda erkin ishlata olishni ta’minlashdan iboratdir. So‘zlashishga o‘rgatishda, odatda, talabalar ingliz tilida maktab dasturi darajasida gapira oladi, deb tahmin qilinadi.

Tinglab – tushunish:

O‘tilgan mavzular asosida tinglangan materiallar, bayon etilgan axborotlar va materiallar andivideo matnlarning asosiy mazmuni tushunishlari, tinglangan muammolar mavzusini aniqlay olishlari kerak.

Audio matnda yangi so‘zlar 5 % gacha bo‘lishi mumkin, ularni konteksdan tushunib olish talaba uchun murakkab emas. Tinglash vaqt 4-5 min. Hozirgi zamonda kelib nutq tezligi daqiqada 120-140 ta bo‘g‘indan iborat bo‘lishi kerak.

Gapirish:

Turli xil monologlarni ishlata olishi; jumladan, ko‘rganini, o‘qiganini, tushuntirib berish, qisqa xabar qilish, ta’riflash, o‘z fikrini bildira olishi kerak. Hozirgi zamonda yangi pedagogik texnologiyada nutq ishtiroychisi bo‘lgan har bir so‘zlashuvchi uchun 12-15 nutq birligi to‘g‘ri keladi. Talabalar matnni aniq ifodali va tovushlarni, to‘g‘ri talaffuzdagi ohang bilan o‘qishi badiiy publisistik hamda ilmiy ommabop matnlarni to‘la tushunishi kerak.

O‘qish tezligi 1 daqiqada 300 belgini tashkil etadi. Tarkibida kamida 8 ta yangi so‘zi bo‘lgan badiiy matnlarni, murakkab bo‘lmagan ilmiy – ommabop matnlarning asosiy mazmunini tushunishi kerak. O‘qilayotgan matnda o‘z munosabatini bildira olishi kerak. O‘qish tezligi 1 daqiqada 500 ta belgini tashkil etadi. Eshitgan, ko‘rgan yoki turli xil leksik birliklar yordamida birinchi bosqich leksik materialini yozma ravishda bayon qilish;

Ikkinchchi bosqich:

Ikkinci bosqichda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish yanada murakkabroq matnlar misolida til voqealiklarini sharxlash yordamida amalga oshiriladi.

Turli sohalarga oid bo‘lgan mavzular o‘zlashtirilishi sababli, talabalar so‘z boyligini 1200 ta leksik birliklar bilan boyitiladi. Bu bosqichda asosiy e’tibor idiomatik ifodalarga va og‘zaki nutqda ko‘p ishlatiladigan og‘zaki nutq so‘z birikmalarini o‘zlashtirishga qaratiladi.

Gapirish ikkinchi bosqichda yanada murakkabroq jarayonlar bilan o‘tadi, ya’ni talaba o‘tilgan leksik material asosida ingliz tilida erkin muloqot qila olishi kerak. Bu jarayon turli xil so‘z birikmalarini o‘zlashtirish bilan bir qatorda ingliz tilidagi dialoglarning tuzilishi, ularning hajmini, ularning tarkibidagi netral so‘zlarni o‘zlashtirish bilan amalgalashadi.

Ikkinci bosqichda o‘qishning uch turdagisi ko‘nikmalari jadal rivojlantiriladi. O‘qish jarayonida talabalar til birliklarini lingvistik tahlil qila olishlari kerak. Lingvistik tahlil o‘z ichida so‘zning leksik tuzilishi va ma’no xususiyatlarini oladi. Uy o‘qishi uchun Angliya va Amerika yozuchilari ijodidan asl namunalar tanlab olinadi. Talabalar o‘qilgan matnni erkin so‘zlab berish hamda uni tahlil qilishni o‘rganadilar. Uy o‘qishi ikkinchi bosqichda haftasiga 2 soat o‘tiladi va talabalar hafta davomida kamida uni tahlil qila olishlari maqsad qilib qo‘yilgan.

Tinglab – tushunishi; o‘tilgan mavzular asosidagi matnlarni to‘liq tushunishlari to‘g‘ridan – to‘g‘ri muloqotda matnlarni asosiy mazmunini tushunishlari kerak. Audio matnda yangi so‘zlar 10 % gacha bo‘lishi mumkin va talaba ularni konteks orqali tushunib oladi. Tinglash vaqtiga 5-6 min. Nutq tezligi 1 daqiqada 140-160 ta bo‘g‘indan iborat bo‘lishi kerak.

Gapirish oldidan tayyorlangan va tayyorlanmadan holatlarda talaba og‘zaki nutq mavzularida suhbat olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Har bir talaba uchun 12-14 ta replika to‘g‘ri keladi. O‘rganish o‘qishi; o‘rganilayotgan matnni aniq, ifodali, hamda to‘g‘ri ovoz chiqarib o‘qish, matnni to‘liq va batafsil tushunishi kerak. O‘qish tezligi 1 daqiqada 350 ta belgidan iborat bo‘lishi kerak.

Tanishuv o‘qishi 10 % gacha notanish so‘zlar ega bo‘lgan badiiy, gazeta matnlarning asosiy ma’nosini tushunish. O‘qish tezligi 1 daqiqada 600 ta belgi bo‘lishi lozim. Ikkinci bosqich yakunida bakalavr quyidagilarni bilishi kerak.

Dunyo xaritasidagi davlatlar joylashuvini ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning siyosiy va ma’muriyat tuzilishi an’analarini va shu mamlakatlarning asosiy mazmunini tushuntira olishi kerak.

Ijtimoiy – madaniy bilimlar: ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning jo‘g‘rofiya tuzilishini, yangiliklar, xabarlar, radio yangiliklari joylashuvchi va diqqatga sazovar bo‘lgan joylari, madaniyati, tarixiy ma’lumotlarni chuqur o‘zlashtirish, muloqot jarayonida kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni kengaytirish;

Uchinchi bosqichda og‘zaki va yozma nutqni egallash bo‘yicha ishlar yakunlanadi, hamda o‘qitish jarayonining filologik yo‘naltirilganligiga e’tibor qaratiladi, bunda til hodisalarining tahlili shuningdek, ularning og‘zaki va yozma nutqda muqobil qo‘llanishi ustida ishlar olib boriladi.

Talabalarning leksik zaxirasini kengaytirish yoshlarning siyosi, madaniy, ijtimoiy va maishiy hayot sohalariga leksikaning faol odat tusiga kirish hisobiga, shuningdek, joriy davriy nashrlarni o‘qish hisobiga amalga oshiriladi. Leksika bilan tanishish davomida ingliz so‘zlarning ma’no jihatdan torayishi va kengayishi tarkibiy – ma’noviy xususiyatlari ustida ishslash chiqurlashtiriladi.

Mashg‘ulotlarda o‘zaro hamkorlikning guruh shakllariga katta e’tibor qaratiladi. Shuning uchun talabalar dialog, polilog munozaralar, amaliy suhbatlar, bahslar, bahs-munozara munosabati va o‘tilgan mavzular va leksika asosida monologik fikr bildirish, takrorlashga e’tibor qaratiladi. Uchinchi bosqichda talabalarda o‘rganish, tanishish, ko‘rish – kuzatish ko‘nikmalari va mahoratli o‘qish tarzida takomillashtiriladi. Tahminiy o‘qish meyori – haftada 2 soat hajmda, uchinchi bosqich talabalar uchun 25-30 bet.

Tinglab tushunish:

Kundalik muloqot bilan bog‘liq vaziyatlarda keng qo‘llaniladigan jumla iboralarni, shu jumladan o‘rganilayotgan matnlardagi o‘zi uchun ahamiyat kasb etadi. Tinglash vaqt 6-8 min. Nutq tezligi: 1 daqiqada 160-180 bo‘g‘in. Tanishuv o‘qish: 12% gacha notanish so‘zlar bo‘lgan matnni uning asosiy mazmuni bilan tanishish yoki muayyan vaziyatda berilgan savolga javob topish maqsadida lug‘atsiz o‘qish. O‘qish tezligi minutiga 700 vosta belgi. **Yozuv:** - ma’ruzalarni yozib borish, eshitilgan o‘qilgan va kuzatilgan axborot ma’lumotni umumlashtirish va qayd etish, matn yozish, berilgan kommunikativ vaziyat bo‘yicha qisqa yoki kengaytirilgan axborot insho, esse yozish, jarayonida nutqning turli shakllaridan fikrlash, baholash, foydalangan holda o‘z fikr – mulohazalarini mantiqiy izchillik bilan bayon etish.

Tarjima: Talaba matnning leksik – semantik jihatdan to‘ldirilganligini inobatga olib, leksika, murakkab morfologik va sintaktik qurilmalarning tarjimasiga alohida e’tibor berilgan. Talaba uchun uchinchi bosqichning ohiriga kelib o‘tilgan mavzular yoki matbuotda o‘qigan maqolalari xabarlar, yangiliklar, ma’ruzalar bo‘yicha qisqacha ma’lumot bera olishi va munozaraga kirisha bilishi shart.

Bakalavriat bosqichining asosiy o‘quv materiali bu antentik, badiiy, ommaviy – siyosi va mamlakatshunoslikka oid matnlardir. Bu bosqichda talabalarning so‘z zahirasi, sheva, og‘zaki tili va terminologik tizimlarni tushunishlari kengayib boradi. O‘quv jarayonida 800 dan ortiq aktiv so‘z birliklari talabalarning lug‘at boyligini oshiradi. So‘z birliklari ustida ishslashda asosiy e’tibor polisemiya, sinonimlar, antonimlar, so‘zning ko‘chma ma’nolari, hamda so‘zlarning stilistik usullari, uslubiy vositalar va ekspressiv ma’nolari asosida matnni tahlil etishga e’tibor qaratiladi.

Turli xil aydio matnlarni funksional usullarini: kasbiy yo‘nalishdagi matnlardan muhim axborotni tanlab olishlari kerak.

Ijro vaqt: 8-10 daqiqa

Nutq tezligi: 1 daqiqada 180-200 bo‘g‘in

Gapirish hajmi: har bir suhbatdoshga 16-18 gapdan iborat.

Monologik nutq: O‘qilgan tinglangan va ko‘rilgan masalalarning dolzarb muammolari bo‘yicha mantiqiy ketma – ketlikda fikrlarni isbotlab berish va ifodalash, fikrlash, umumlashtirish va statistik tahlilni ishlatgan holda kengaytirilgan axborotlarni taqdim etish kerak.

Gapirish hajmi: 18-20 ibora.

O‘rganuv o‘qish: matnning mazmuniy axborotini chiqarish uchun badiiy va ommaviy – siyosiy matnlarning ma’nosini mayda tafsilotlarigacha tushunish, barcha statistik tahlil obyektlarining ma’no va mazmunlari darajasida tushunib olishi kerak.

O‘qish tezligi minutiga 450 belgi:

Tanishuv o‘qish: asosiy ma’nosini bilish uchun nutqning turli xil funksional usullarining matnni o‘qish yoki ma’lum bir vaziyatda berilgan savolga javob topa berish va o‘z ichiga 15% notanish so‘zlarni oluvchi matnni lug‘atsiz o‘qish:

O‘qish tezligi minutiga 800 belgi: kerakli axborotni olish maqsadida lug‘at bilan boyitiladi¹¹.

Adabiyotlar:

1. Temirov Y., Suyarova N. “Chet tili o‘qitish metodikasi” – Qarshi 2009 yil.
2. “Innovatsion darslarda o‘quvchilarning inglizcha fikrlash qobiliyatini rivojlantirish” Qashqadaryo ziyokori 2008 yil 13-soni.
3. Ziyo Muhammedova B, Abdullayeva Sh. “Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik” Toshkent 2000 yil.
4. G‘ulomova N. “Adabiyot darslarida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish” Toshkent 2003 yil.
5. “Innovatsion darslarda o‘quvchilarning inglizcha fikrlash qibiliyatini rivojlantirish” Ziyokor gazetasi 2008 yil.
6. Ishmuhammedov R. “Bolalarни tarbiyalash va sog‘lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya” – Toshkent, UDAP 2004.
7. Ochilov M. “Yangi pedagogik texnologiyalar” Qarshi, Nasaf 2000 yil.
8. “Yangi tipdagи o‘quv muassasalari uchun namunaviy nizom va o‘quv rejaları” Toshkent 1993 yil.
9. Rogova G. “Xorijiy tillarni o‘qitish” – Toshkent 1993 yil.
10. Yo‘ldoshev J. Usmonov S “Pedagogik texnologiya asoslari” – Toshkent 2001 yil.
11. Ishmuhammedov R. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari” – Toshkent 2005.

¹¹ Rogova “Xorijiy tillarni o‘qitish” Toshkent 1993.

**INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'RGATISHDA YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI**

Xursanaliyeva Zilola Ismoiljon qizi
Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12787452>

Abstract: This article provides information on the importance of new pedagogical technologies in teaching English vocabulary.

Keywords: Lexicology, types of vocabulary and their correct use, Brainstorming, Visual aids, Speech modules.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili leksikasini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati borasida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Leksikaloga, lug'at turlari va ulardan to'g'ri foydalanish, Aqliy hujum, Ko'rgazmali qurollar, Nutqiy modullar.

Introduction.

Ta'lim jarayonida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish, bunda o'quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlarini hisobga olish shu kunning asosiy talabidir. Biz quyida maktabda boshlang'ich davrda ingliz tili o'qitishning ba'zi jihatlari to'g'risida to'xtalmoqchimiz. Zero, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan usullar, yondashuvlar maktablarda endigina ish boshlagan yosh mutaxassislar uchun amaliy yordam vazifasini o'tishiga ishonamiz.

Amaliyot ko'rsatdiki, til o'rganish jarayoni sinf o'quvchilarni guruhlarga ajratib tashkil etilganda samaliroq bo'ladi. chunki bu o'quvchiga dars jarayonida guruhlarga zaruratdan kelib chiqqan holda turli yondashish, takrorlashga ko'proq e'tibor berish tez o'zlashtirayotgan o'quvchiga esa qo'shimcha topshiriqlar berish imkonini beradi. O'tiladigan darslar bir qator-ta'limi, tarbiyaviy maqsadlarni o'zida mujasamlashtirgan bo'ladi. ushbu maqsadlarga erishish uchun o'qituvchi qator mashqlardan foydalanishi mumkin.

Rasmlar ham til o'rganish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar uchta guruhga bo'linadi. Bu o'quvchilarga turli xil kartochkalar tarqatish orqali amalga oshiradi. Masalan, mevalar rasmi chizilgan kartochkalar tarqatiladi. Bir xil mevalar rasmini olgan o'quvchilar 1 ta guruhda har bir guruhda 4 nafardan ishtirokida bo'ladi, ularga bittadan rasm beriladi va guruhdagi har bir ishtirokchi rasmda aks ettirilgan narsalarni inglizcha ifodalab, yozib boradi. Faraz filaylik biror bir rasmda sinfxona tasvirlangan.

1-o'quvchi	2-o'quvchi	3-o'quvchi	4-o'quvchi
Window	a map	blackboard	a picture
a door	a bookshelf	a table	a table
a flowers	a desk	a chair	a book
	a book	classroom	a pen

O‘quvchilar sinfxonadagi bor jihozlarning inglizcha nomini yozishadi. Bu birinchi bosqich bo‘lib, unga 2 daqiqa vaqt beriladi. O‘qituvchi guruuhlar yozgan so‘zlarni tinglaydi. Har bir guruh o‘quvchilari yozgan so‘zlarining miqdoriga qarab, guruuhlar baholab boradi. Agar guruh ishtirokchilari rasmda tasvirlab yozgan so‘zlarida bir xillik holatlari uchrab qolsa, bunday holatda so‘zlar hisobga olinmaydi va baholanmaydi.

Ikkinci bosqichda guruh a’zolari o‘zlari yozgan so‘zlari orqali matn tuzishadi. Masalan, this is our classroom our classroom is large and light there are a lot of maps, flags in our classroom. There are 8 desks and chairs in it we like our room. There are a lot of books on the shelves.

Ikkinci bosqich jarayoniga 3 daqiqa vaqt beriladi. O‘qituvchi har bir guruhning yozgan matnnini tinglaydi.

Uchinchi bosqichda matn tuzishda yo‘l qo‘yilgan xatolar ustida ishlanadi. Bunda guruuhlar yozgan matnlarini bir-birlari bilan almashinishadi va guruuhlar bir-birlarining yo‘l qo‘ygan xatolarini topishadi. Albatta, o‘qituvchi ham guruuhlar yo‘l qo‘yyotgan xatolarni eslab qolishiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli o‘qituvchi sinfxonani aylanib yurar ekan, ularni o‘zida qayd qilib borishi zarur. Mashq oxirida qayd etib qo‘yilgan ba’zi odatiy yoki muhim xatolarni o‘qituvchi aytib o‘tishi lozim. O‘quvchilarni juftlik yoki guruh ishlari davomida shovqin solmasdan va xushmuomalalik bilan gapirishga hamda vazifani bajargandan so‘ng, qo‘shimcha vazifa olishga tayyor turishga o‘rgatish kerak. Agar mashqni bajarishdan oldin aniq ko‘rsatmalar berilsa, o‘quvchilar vazifani adashmasdan va ortiqcha shovqinlarsiz bajara oladilar.

Rasmlarga munosabat mashqini bajarish yuzasidan xulosa shuki, bunday mashqdan foydalanish o‘quvchilarning tekshirish, og‘zaki tasvirlash, muhokama qilish, fikr yuritish, qobilyatlarini rivojlantiradi. Bir-biriga do‘stona munosabatda bo‘lish, birqalikda faoliyat yuritishi muxiti yaratiladi. Bu mashqni bajarish rivojlantiruvchi maqsadga erishish uchun imkon ham beradi, ya’ni o‘quvchining fikrlash, tasavvur qilish, diqqat e’tibor, xotira ko‘nikmalarini rivojlantiradi, mustahkamlaydi. Darsni yanada samaliroq olib borish uchun turli mashqlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqli.

Bu mashqlarni bajarish jarayonida so‘zlarni ona tilida aytib, ingliz tiliga tarjima qilish talab qilinadi¹².

“Menga ayt-chi?” mashqni bu usul o‘quvchilarning so‘z boyligi fikrlash, tarjima qila olish malakalarini muntazam ravishda rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu mashqda o‘quvchilar doira shaklida yig‘ilishadi, o‘qituvchi qo‘liga koptokni oladida, har bir o‘quvchiga o‘tilgan mavzu asosida so‘zlardan aytadi. Masalan, “maktab” so‘zi aytilib o‘qituvchi o‘quvchiga koptokni otadi. O‘quvchi koptokni ilib olib, chaqqonlik bilan “school” deb javob qaytarishi lozim. Shu tariqa o‘qituvchi o‘quvchilarga koptokni navbatma-navbat otadi.

Bu mashq hozir javoblikka o‘rgatish bilan birga jismoniy tetiklashtirishga, shaxsiy qo‘rquv va vaziyatni yumshatishga yordam beradi. Bundan mashqlardan faqat darsning boshlanishida foydalanilmay, sinf kayfiyatini yoki ishlash sur’atini o‘zgartirish uchun ham foydalanish kerak. Shuningdek, bu mashqni savol tarzida ham olib borish mumkin.

¹² “Inovatsion darslarda o‘quvchilarning inglizcha fikrlash qobilyatini rivojlantirish” Ma’rifat gazetasi 2007 yil 10 fevral

Masalan; o‘qituvchilar “where are you from? (sen qayerliksan) savoliga o‘quvchi chaqqonlik bilan I am from Uzbekistan” deb javob qaytarishi lozim.

Ba’zi hollarda o‘quvchi so‘zlarni ayta olmasligi yoki savolga javob bera olmasligi mumkin. Javob berolmagan o‘quvchi bu mashqni tark etish oldidan ingliz tilida she’r yoki ashula aytib davradan chiqib ketadi.

Ushbu turdag'i mashqlar o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarda chaqqonlik, diqqat-e’tibor ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘tilgan mavzu, yangi so‘z hamda iboralarni qanday darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlash va baholashga mumkin.

Ikkinch'i bosqichni bajarishdan oldin o‘qituvchi grammatik materiallar ustida ishlashni maqsad qilib olishi kerak. Masalan o‘qituvchi gap bo‘laklari to‘g‘risida ma’lumot beradi:

Har bir gap bo‘laklari qanday so‘roqqa javob berishini ta’kidlab o‘tadi va gap tuzish formulasini doskaga yozib qo‘yadi. Ega + kesim + to‘ldiruvchi + aniqlovchi + hol bunda guruhning har bir ishtirokchisi orqasiga so‘zlar yoki tinish belgilari yozilgan kartochkalar yopishtiriladi¹³. So‘ng o‘quvchilar gaplashmasdan, imo-ishora orqali grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuza olishlari kerak. Buning uchun o‘quvchi bemalol harakat qila oladigan katta sinfxona kerak bo‘ladi. bu mashqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Har bir guruhda 5-6 nafar ishtirokchi bo‘lishi mumkin:

Masalan;

- | | | | | | |
|---|----|----|------|--------|----|
| - | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| - | of | he | fond | sports | is |
- To‘g‘ri natija: he is fond of sports (2, 5, 3,1, 4,6) shaklida bo‘ladi:
 - Uchinchi bosqichda har bir guruh tuzgan gaplarini tahlil qilib, tarjima qilishadi: Ushbu mashqning barcha ko‘rinishlarida guruh ishtirokchilari o‘z joylariga joylashmaguncha, vazifa bajarilmagan bo‘aldi. Agar guruh gap tuzishda qiyalsa, bu o‘qituvchi yordami orqali amalgा oshiriladi.
 - Navbatdagi oxirgi bosqichda o‘quvchilarga “maslaxatli doira” raqamini bajartirish mumkin. bu mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar 1,2,3 raqamini aytib, guruhlarga bo‘linadilar. Bunda guruh ishtirokchilarning biri o‘qituvchi uzatgan konvertlar orasidan 3 tadan kartochka joylangan konvertni oladi.
 - Bu kartochkalarda yozib qo‘yilgan tugallanmagan gaplarni davom ettirish lozim bo‘ladi:
 - Masalan If you lat too many sweyets ... I’m fond of ...
 - Bunday mashqlar
 - Hamjihatlikni oshiradi.
 - O‘quvchilarning ijobiy fikrlashiga ko‘mak beradi.
 - Ishonch bilan bog‘liq munosabatni yuzaga keltiradi.

Mazkur mashq nalerbal muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi va guruh vazifasini bajarishda asnosida o‘quvchilarda hamkorlikda ishslash va ishonch bilan bog‘liq munosabatlar yuzaga chiqadi.

¹³ “Inovatsion darslarda o‘quvchilarning inglizcha fikrlash qobiliyatini rivojlantirish” “Qashqadaryo ziyokori” 2008 yil 13-son

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o‘qituvchining vazifasi nafaqat bolalarga bilim yetkazish, balki o‘zlashtirishlariga, o‘rganishlariga yordam berishdir. Bu borada, hurmatli ustozlar har bir darsni qiziqarli samarali o‘tishga egamiz¹⁴. Foydalanib tinglovchilarni lingvistik analizini turli uslublari bilan tanishtirish, hozirgi zamon ingliz tili lug‘at tuzilishining synxronik va dyaxronik ta’rifini tushuntirish, lug‘atlar ustida ishslash malakasini oshirish hamda notanish tekstlarni o‘qib turli xil lug‘atlar yordamida analiz qilishga o‘rgatishdan iborat.

Og‘zaki va yozma nutqning semantik va ekspressiv, stilistik, leksik va sintaktik farqlari; og‘zaki va yozma nutqning aralash shakllari sifatida monologik va dialog nutq. Ijtimoiy aloqa muammosida dialog eng ko‘p ishlatiladigan shakl ekanligi mualliflar uslubining yagonalik muammolarini o‘rganadi.

“Ingliz tili leksikasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak.

- Leksikalogiya – zamonaviy ingliz tili lug‘at sistemasini o‘rganuvchi fan ekanligi haqida tasavurga ega bo‘lish;

- Ingliz tili so‘zlarining morfologik tuzilishi va so‘z yasalishi;
- So‘z yasash usullari va ularning ishlatish o‘rni;
- ingliz tili so‘zlarining semantik tuzilishi va undagi muhim ahamiyatlari:
 - zamonaviy ingliz tilidagi sinonim omonim va antonim so‘zlar haqida;
 - ingliz tilida so‘z birikmalari va ularning qo‘llanishi;
 - ingliz tili frazeologizmlari va ularning asosiy xususiyatlari; iboralar, so‘z birikmalari; va ularning ma’nosiga putur yetkazmay tarjimada aks ettira olishi;
 - Frazeologizmlarning stilistik usulda ishlata olishi;
 - ingliz zabon mamlakatlar ingliz tilining o‘ziga xos xususiyatlari;
 - ingliz tili lug‘at sistemasi va ularning rivojlanishi;
 - lug‘at turlari va ulardan to‘g‘ri foydalanish;

O‘quv jarayonida tinglovchilarga mavzularning mazmunini kengroq yoritib berish ish uslublarini to‘g‘ri bajarish maqsadida texnik vositalar qo‘llaniladi¹⁵.

Tinglovchilarning o‘zlashtirish mezoni ham pyuter orqali, test va reyting usulida aniqlandi.

Leksikologiya fan bo‘yicha o‘tiladigan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarda ilmiy-ijodiy yondashuv, tanqidiy tahlil, muammoli munozara, sintez, o‘zi va o‘zgalar qarashlarini to‘g‘ri baholash, olingan axborotni to‘g‘ri yetkaza bilish, axborotni ixchamlashtirish va kengaytirish malakalarini egallahsga qaratilgan noananaviy usullarda;

Nutqiylar modullarni chuqur o‘rganish va mashq qilish hamda vaziyatlari va rolli o‘yinlar baxs munozara, debatlar, loyihalash usuli; taqdimot, kichik himoya. Ta’lim jarayonida quyidagi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Aqliy hujum;
- Guruhlarga bo‘lish;
- “Skrabey” texnologiyasi;

¹⁴ Inovatsion дарсларда ўқувчиларнинг инглизча фикрлаш қобилятини ривожлантириш зиёкор газетаси 2008 йил 43 сон.

¹⁵ Ziyo muxamedov B.Abdullayeva Sh. “Oliy o‘quv yurtlari” uchun darslik. Toshkent 2000.

- “Veyer” texnologiyasi;
- Loyihalash usulini qo‘llab ta’lim berish;
- O‘yinlar orqali o‘rgatish texnologiyasi;
- Ko‘rgazmali qurollar;
- Plakatlar;
- Tablitsalar;
- Slay;
- Tarqatmalar;
- Tinglovchilarning ishlaridan namunalar.

Adabiyotlar:

1. Temirov Y., Suyarova N. “Chet tili o‘qitish metodikasi” – Qarshi 2009 yil.
2. “Innovatsion darslarda o‘quvchilarning inglizcha fikrlash qobiliyatini rivojlantirish” Qashqadaryo ziyokori 2008 yil 13-soni.
3. Ziyo Muhammedova B, Abdullayeva Sh. “Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik” Toshkent 2000 yil.
4. G‘ulomova N. “Adabiyot darslarida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish” Toshkent 2003 yil.
5. “Innovatsion darslarda o‘quvchilarning inglizcha fikrlash qibiliyatini rivojlantirish” Ziyokor gazetasi 2008 yil.

KORXONALAR MOHIYATI VA FAOLIYATNING ASOSI

To'ychiyeva Kamola Furqatovna

Beshariq tuman 1-sون kasb-hunar maktabi Biznes asoslari fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12787413>

Abstract: In this article, information about the nature of enterprises and the basis of their activities is reflected.

Key words: Enterprise, concern, limited partnership, consortium, trust, state, corporation, syndicate, non-profit organization, state register.

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalar mohiyati va faoliyatning asosi borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Korxona, konsern, kommandit, konsorsium, trest, davlat, korporatsiya, sindikat, notijorat tashkilot, davlat ro'yxati.

Introduction.

Korxona – ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh bo'ini bo'lib, unda ilmiy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy masalalari hal etiladi.

Mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish muayyan texnologik jarayonlar, mehnat qurollari materiallari, odamlarning bilimi va ko'nikmalarini ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashga asoslangan holda mustaqil amalga oshiriladigan tizimga aytildi.

Korxona ish o'rinalarini beradi ish haqi to'laydi soliqlar to'lash yo'li bilan davlat va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qatnashadi.

Aynan korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari va ishchini ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro aloqasi amalga oshiriladi.

Korxona o'z faoliyatini o'zi boshqaradi, ishlab chiqarilgan mahsulotni olingan sof foydani soliq va boshqa to'lovlarini to'lagandan so'ng qolgan qismini tasarruf etadi.

Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va assortimenti, xilmalligi, xom ashyo yetkazib beruvchilar va haridorlar narxlarni shakllantirish, resurslardan tejamli foydalanish, kadrlarni qo'llash, yuqori unumli texnika va texnologiyadan foydalanish masalalari hal etiladi.

Korxona faoliyatining samaradorligi ishlab chiqarishni quyidagicha tashkil etish shakllariga ega:

Konsentratsiyalash, bir joyga jamlash;

Ixtisoslashtirish;

Kooperatsiyalash;

Ishlab chiqarishni murakkablashtirish kabi usullardan foydalanishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, **korxona** bu - *huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaql ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'ekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish*

va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

Korxona – ijtimoiy talablarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi mustaqil xo‘jalik yurituvchi iqtisodiyot sub’ekti.

Korxonaning markaziy holati quyidagi holatlarga bog‘liq:

- korxona inson hayotini tashkil etishning asosiy shaklidir. Bu erda xodim o‘zining ijodiy salohiyatini anglaydi, ijtimoiy ishlab chiqarishga hissa qo‘shadi; bu erda u o‘zini o‘zi va oila a’zolarini moliyaviy ta’minlab bergenligi uchun mukofot oladi;
- korxona turli xil ishtirokchilar o‘rtasida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida rivojlanadigan ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy sub’ekti vazifasini bajaradi;
- korxona nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tashkilot hamdir, chunki uning poydevori shaxs va mehnat jamoasidan iborat; korxonada jamiyat, mulkdor, jamoa va ishchining manfaatlari o‘zaro bog‘liq, ularning qarama-qarshiliklari ishlab chiqilgan va hal qilingan;
- ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradigan korxona tabiiy muhitga ta’sir ko‘rsatib, inson yashash joyining holatini belgilaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida turli xil mulkchilik shakliga ega bo‘lgan 300 mingta xo‘jalik faoliyati yurituvchi sub’ekt mavjud bo‘lib, ulardan qariyb 280 mingini kichik korxonalar hamda mikrofirmalar tashkil etadi. Korxonalarning eng katta qismi savdo va umumiy ovqatlanish (34%), qishloq xo‘jaligi (41%), sanoat (9,4%) va qurilish (56%) sohalarida ro‘yxatga olingan. Jami korxonalar miqdorida nodavlat sektorining salmoi katta bo‘lib, 82 %ni tashkil qiladi.

Zamonaviy korxona-mustaqlil xo‘jalik yurituvchi sub’ekt bo‘lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o‘zigagina tegishli bo‘lmaydi. Shu sababli korxonalar *mulkchilik shakliga* ko‘ra, davlat va nodavlat, *tarmoq belgilariga* ko‘ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft’ va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va hokazolar, *ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga* ko‘ra, yirik, mikrofirma va kichik, *faoliyat yuritish muddatiga* ko‘ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalarga bo‘linadi.

Biroq ushbu belgilardan qat’i nazar, deyarli har bir korxona **Nizom** asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, Nizom jamg‘armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxona rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatları, tuzilmaviy bo‘linmalar ro‘yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Agar Nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy funksiyalari belgilangan bo‘lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fontlar, pul mablag‘lari va boshqa aktivlar kiruvchi **Nizom jamg‘armasiga** tayanadi. Nizom jamg‘armasi qonunga asosan korxonani tashkil qilish jarayonida muassislar - davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi. Korxona rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida Nizom jamg‘armasi ko‘paytirilishi mumkin. Umuman olganda, Nizom

jamg‘armasi korxonaning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi.

Korxonani turli belgilariga ko‘ra tavsiflash mumkin:

- *ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarda korxona* – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;
- *ijtimoiy munosabatlarda korxona* – bu, turli kategoriyadagi xodimlar o‘rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar ;
- *tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxona* huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;
- *moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxona* – bu, tarmoqning mustaqil bo‘ini bo‘lib, o‘z-o‘zini moliya bilan ta’minalash, o‘z-o‘zini boshqarish, ya’ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan korxona davlat ro‘yxatidan o‘tganidan keyingina huquqiy shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun birinchi o‘rinda quyidagi hujjatlar ahamiyatga ega bo‘ladi: muassisning arizasi; korxonaning Nizomi; korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki muassislar shartnomasi; davlat bojini to‘laganlik haqida kvitansiya va boshqalar.

Korxona o‘ziga xos bo‘lgan ma’lum xususiyatlarga ega:

birinchidan, korxona o‘ziga tegishli va xo‘jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo‘lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchlilagini ta’minalaydi;

ikkinchidan, korxona kreditorlar, jumladan, davlat bilan o‘zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o‘z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo‘ladi;

uchinchidan, korxona xo‘jalik aylanmasida o‘z nomidan harakat qilishi mumkin, ya’ni qonunga asosan xo‘jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste’molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnama tuzish huquqiga ega;

to rtinchidan, korxona qonunchilikka asosan sudda da’vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

beshinchidan, korxona mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o‘z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

oltinchidan, korxona o‘z nomiga ega bo‘lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o‘z aksini topadi.

Xar bir korxonaning faoliyati ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish va muomala jarayonlaridan iborat bo‘ladi. Korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati - yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkillashtirishda namoyon bo‘ladi. Qayta ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat - ishchi kuchini yollash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarida aks etadi. Muomala sohasidagi faoliyat esa ishlab chiqarishning moddiy-texnika ta’mintoni tashkillashtirish, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish va foydalilanilgan ishlab chiqarish vositalarining daromad shaklida qaytib kelishida ko‘zga ko‘rinadi.

Korxonalarini ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tadqiq etishda uni tashkil qiluvchi ikkita tarkibiy qism - tizimning o‘zi(korxona) va ushbu tizim faoliyat yurituvchi tashqi muhitni ko‘rib chiqish lozim. Korxonaning ichki muhiti ishlab chiqarish vositalari, pul mablag‘lari, axborotlar va inson resurslaridan tashkil topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar **faoliyatining asosiy yo‘nalishlari** quyidagilar hisoblanadi:

- * bozor va uning rivojlanish istiqbollarini kompleks ravishda o‘rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan talablarini aniqlash;
- * mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;
- * xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;
- * ishlab chiqarishni rejalashtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalashtirish;
- * mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukammallashtirish;
- * korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko‘rsatish va hokazolarni boshqarish.

Albatta, zamonaviy korxonalarning ko‘p qirrali faoliyati yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlar bilangina cheklanib qolmaydi. Amaliyotda ular fan-texnika taraqqiyoti va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning yangi talablari bilan to‘ldirilishi mumkin. Biroq, yuqorida aytib o‘tilganlardan qat’i nazar, xo‘jalik rivojlanishining har bir bosqichida korxonalar faoliyati quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilishi zarur:

- korxona egasining daromad olishi;
- iste’molchilarни ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta’minalash;
- xodimlarni ish haqi bilan ta’minalash;
- korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- korxona faoliyatida to‘xtab qolishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammallashtirish;
- ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Xo‘jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi vazifalarini bajarish korxonalardan quyidagi funksiyalarni amalga oshirishni talab qiladi:

- * ishlab chiqarish va shaxsiy iste’mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;
- * mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berish va sotish;
- * sotuvdan keyin xizmat ko‘rsatish;
- * ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta’minalash;
- * xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;
- * soliqlarni to‘lash, byudjetga to‘lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy badal va to‘lovlarni amalga oshirish;
- * amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

Bu funksiyalar korxonalarning hajmi, qaysi tarmoqqa mansubligi, ijtimoiy infratuzilmaning mavjudligi, mahalliy hokimiyat idoralari bilan munosabatlarga asoslanib aniqlashtiriladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti va fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning amalga oshiruvchi funksiyalarini kengaytirishi hamda ularning faoliyatidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash uchun yangi vazifalar belgilab berishi mumkin.

Xar bir korxona boshqa korxonalardan avvalo ishlab chiqarayotgan mahsuloti, shuningdek, ishlab chiqarishning tavsifi va miqyosi, joylashishi, milliy iktisodiyotining boshqa tarmoqlari bilan aloqalari va boshqa ko'rsatkichlari bilan farq qiladi. Biroq bularning barchasi ishlab chiqarishni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish masalalarini har bir korxona uchun individual tarzda alohida ishlab chiqish kerak, degani emas, albatta. Alohida korxonalar guruhiga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan umumiy qarorlarni tayyorlash mumkinligi nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berilgan.

Bu bilan korxonalarning ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkillashtirish masalalarini bir xil tipda hal qilish mumkin bo'lgan guruhlarini aniqlash maqsadida ularni tasniflashning maqbo'lligini izohlash mumkin.

Korxonalarning eng muhim xususiyatlari ularning qaysi tarmoqqa qarashliligi; hajmi; ishlab chiqarishning turli jabhalarini qamrab olganligi; ixtisoslashtirish darajasi va bir tipdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish miqyosi; ishlab chiqarishni tashkillashtirish usuli hamda uni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish; tashkiliy-huquqiy shakllarini prognozlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Qaysi tarmoqqa qarashliliga ko'ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko'mir qazib chiqarish, sug'urta va hokazo) sohalariga mansub bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko'rinishiga ko'ra, korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo'linadi.

Texnologik umumiyligiga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzlusiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo'linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko'ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Foydalaniluvchi xom ashyo turiga ko'ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga taqsimlanadi.

Yil davomida ishlash muddatiga ko'ra, korxonalar mavsumiy va yil bo'yi faoliyat yurituvchilarga bo'linadi.

Xajmiga ko'ra, korxonalar yirik, mikrofirma va kichik korxonalarga taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdag'i «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprel'dagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Farmoniga asosan ishlab chiqarish tarmoining o'rtacha yillik xodimlari soni 20 kishigacha bo'lgan hamda xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohasidagi o'rtacha yillik xodimlari soni 10 kishigacha

bo‘lgan; ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar **mikrofirmalar** qatoriga kiritiladi.

Kichik korxona hisoblanadi:

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ohni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida 100 kishigacha ishlaydigan;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qurilish, qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 50 kishigacha ishlaydigan;
- fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohasi (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish xamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida 25 kishigacha ishlaydigan korxonalar.

Ixtisoslashuv darajasiga ko‘ra, korxonalar ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalarga bo‘linadi. Ixtisoslashgan korxonalar qatoriga nomenklaturasi cheklangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, universal korxonalar qatoriga turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, aralash korxonalar tarkibiga esa ixtisoslashgan va universal korxonalar o‘rtasidagi oraliq guruhni tashkil qiluvchi korxonalar kiritiladi.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish usullariga ko‘ra, korxonalar ishlab chiqarishning oqim, partiiali va donalab ishlab chiqarish usullari ustuvor turuvchi korxonalarga bo‘linishi mumkin.

Ishlab chiqarishni mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasiga ko‘ra, korxonalar to‘liq va qisman avtomatlashtirilgan yoki mexanizasiyalashtirilgan, qo‘l-mashina va faqat qo‘l mehnatiga asoslangan korxonalarga bo‘linadi.

Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarini kengaytirish va chuqurlashtirish mamlakatimizda yangi tashkiliy-huquqiy turdag'i - qo‘shma, ijara, hissadorlik, xususiy, oilaviy, kooperativ va boshqa korxonalarining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Adabiyotlar:

1. Mardonova A.T. Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. // Iqtisodiyot va ta’lim jurnali. 7-son// -T.: -2018.
2. Mamadaliyev A.A. Iqtisodiyotni boshqarishda inson omilini faollash-tirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan foydalanishni takomillashtirish. (PhD) diss. avtoref. -T.: 2017. – B.28.

KICHIK TADBIRKORLIKNING TASHKILIY VA IJTIMOIY JIHATLARI

Kimsanova Dilnoza Raxmonjonovna

Beshariq tuman 1-sodn kasb-hunar maktabi Biznes asoslari fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12787356>

Abstract: In this article, information about the organizational and social aspects of small business is reflected.

Key words: Small business, private entrepreneurship, economic security, profitability, skills, influence of internal and external factors.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik tadbirkorlikning tashkiliy va ijtimoiy jihatlari borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy xavfsizlik, foyda olish, ko'nikmalar, ichki va tashqi omillar ta'siri.

Introduction.

O'z ishini boshlashga qaror qilish, bu katta qadam va u insonning butun hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu qarorni qabul qilish tirishqoqlik bilan ko'p mehnat qilishni talab qiladi, shu bilan birga qoniqish hissini hosil qiladi va u foyda keltirishi mumkin. Bo'lajak tadbirkor ishni boshqarish, faoliyatning muvaffaqiyati uchun ma'sul ekanligi bilan birga u eng asosiy shaxs hisoblanadi. **Tadbirkor** – bu ishlab chiqarish va tijoratning barcha zarur omillaridan boylik yaratish uchun foydalanadigan odamdir. Zarur omillar jamlamasidan boylik yaratish uchun shaxsda qobiliyat va ko'nikmalar bilan birga mas'uliyat ham shakllangan bo'lishi kerak. Ichki va tashqi omillar ta'sirini qabul qilishga tayyor bo'lish, bunday mas'uliyatni yanada kuchaytiradi, shuningdek, to'liq erkinlikni ham nazarda tutadi.

Omon qolish. Biologik mavjudotga nisbatan qo'llanilgani kabi biznesda ham omon qolish iborasi keng qo'llaniladi. Raqobat sharoitida mijozlar e'tiborini qozonish, bozorda o'zining muayyan o'rnnini topish umumiyl bo'lgan asosiy maqsaddir.

Foyda olish. Tadbirkorning muvaffaqiyati foyda olish bilan o'lchanadi. Foyda – ishning unumini ta'minlovchi asosiy manba. Foyda olish har bir tadbirkor uchun asosiy maqsaddir.

Istiqlol. Foydani to'g'ri taqsimlab, tadbirkor istiqlol haqida o'ylashi lozim. Yangi texnika, texnologiyalarni ishga joriy qilishga foydaning ko'p qismini sarflash ma'lum vaqtidan keyin katta foyda keltirishi mumkin, demak, istiqlol ham umumiyl bo'lgan asosiy maqsad hisoblanadi.

Boshlangan ishning muvaffaqiyati shaxsiy qobiliyatlar, ahvol, bilim, ko'nikma va tajriba bilan bevosita bog'liqdir. Kishida ishbilarmonlik qobiliyati va ko'nikmalari qancha ko'p bo'lsa, ishning muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli shuncha katta bo'ladi. Qobiliyat va ko'nikmalarning o'ziga xos tomonlari faoliyatning qaysi turi bilan shug'ullanishga qarab bir-biridan farq qiladi. Qobiliyat va ko'nikmalar mavjudligi ayon, lekin qaysidir ko'nikmalar etishmayotgan bo'lsa, mashg'ulotlar yordamida ularni o'zlashtirish mumkin.

SHuningdek, tanlangan ish uchun talab etiladigan bilim va ko'nikmalarning o'rnini to'ldirish uchun ularga ega bo'lgan kishilarni yollash yoki shu maqsadlarda maslahatchilardan foydalanish mumkin.

Ko'nikmalar. O'z ishini boshlashdan oldin, bo'lajak tadbirkor lozim bo'lgan qobiliyat va ko'nikmalarga ega yoki ega emasligini tahlil etib ko'rishi kerak. Ishni olib borishda u kuchli yoki zaif tomon ekanligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, har bir keyingi qobiliyat va ko'nikma to'g'risida o'ylab ko'rishi maqsadga muvofiq.

Texnik ko'nikmalar. Mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat turlarini taqdim eta bilish kerak bo'lgan amaliy qobiliyat, texnik ko'nikma sirasiga kiradi. Masalan, agar tadbirkor kiyim tikish bilan shug'ullanmoqchi bo'lsa, u bichish va tikishni bilishi kerak. Mashinalarni ta'mirlash ustaxonasini ochish uchun ularning qismlarini sozlashni bilishi lozim bo'ladi. Agar tadbirkorda ushbu ko'nikmalar bo'lmasa, texnik ko'nikmalari manfiy baholanadi.

Biznesni boshqarish ko'nikmaları. Ular ishni samarali olib borishning asosiy amaliy ko'nikmalaridir. Albatta, bozorni o'rganish muhim, lekin, biznesni boshqarishning boshqa sohalari ishning muvaffaqiyati uchun hayotiy zaruratdir. Masalan, chiqimlar hajmini aniqlash va hisob-kitob ishlarini olib borish.

Faoliyat sohasini bilish. Ba'zi bir faoliyat sohalari uchun kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish shart bo'lsa, boshqalari uchun u asosiy omil hisoblanmaydi. SHunga qaramasdan, bilimga ega bo'lish tadbirkorga hamisha yordam beradi. Bozorni, raqobatchillarni, xomashyo va boshqa vositalarni etkazib beruvchilarni bilish xatoga yo'l qo'ymaslikka olib keladi.

Tavakkal qilib bilish qobiliyati. Mutlaqo xavfsiz tadbirkorlik g'oyalari bo'lmaydi. Boshlangan ishda muvaffaqiyatsizlikka uchrash xavfi hamisha mavjud. Biroq, tadbirkor tavakkal qilishga doimo tayyor bo'lishiga qaramasdan, o'ylab, aql bilan tavakkal qilish kerak.

Qarorlar qabul qilish. O'z ishini boshqarish bilan bog'liq faoliyati mobaynida tadbirkor muhim qarorlar qabul qilish zarurati bilan to'qnashadi. Masalalarni hal etish vakolatini boshqa kishilarga berishi, shu bilan birga ularni qabul qilmasligi ham mumkin. Jiddiy oqibatlarga olib keladigan qarorlarni qabul qila bilish qobiliyatiga ega bo'lish juda muhimdir.

Oiladagi vaziyat. Boshlangan ish tadbirkorning ko'p vaqtini oladi. Bunday vaziyatda, u oilani qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega. Oila a'zolari ish boshlash borasidagi rejasiga rozi bo'lishlari kerak. Ular boshlangan ishda ishtirok etishlari va yordam berishlari mumkin. Oila tomonidan qo'llab-quvvatlash ijobiy holdir. Agar tadbirkorni oilasi qo'llab-quvvatlamayotgan bo'lsa, bu – ish muvaffaqiyati uchun salbiy holdir.

Moddiy ahvol. Agar ishni boshlash va uni davom ettirish uchun sarmoya mavjud bo'lib, muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham bu hodisa moliyaviy ahvol uchun fojiaga aylanmasa, bu – ijobiy hol. Agar shaxsiy sarmoya bo'lmasa va tadbirkor tamomila ishining muvaffaqiyatiga qaram bo'lsa, bu hol ish muvaffaqiyati uchun salbiy holdir.

Ko'pchilik tadbirkorlar o'z ishlarini olib borishlari uchun lozim bo'lgan yoki etarli ko'nikmalarga ega emaslar. Biroq ko'nikmalarga ega bo'lish, mavjud bilimlarni, shaxsiy sifatlarni kengaytirish mumkin. Zaif tomonlar ustida ishlab, ularni kuchli tomonga

aylantirishi mumkin. Quyida tadbirkorlik ko‘nikmalari va sifatlarini oshirish borasidagi bir qancha tavsiyalar keltiriladi.

Boshqalardan yordam olish. Imkoniyat mavjud bo‘lganda, moddiy va nomoddiy ko‘makdan samarali foydalanish. Grant va ko‘rik tanlovlarda ishtirok etish. Tajribali hamkor tanlash.

Muvaffaqiyatga erishayotgan tadbirkorlar faoliyatini o‘rganish. Ularning faoliyati va muvaffaqiyatiga nima sabab bo‘layotganligi to‘g‘risida tahlil o‘tkazish va amaliyotda sinab ko‘rish.

Ishga va mijozga sadoqatli bo‘lish. Ishni boshqa barcha narsadan ustun qo‘yishga tayyor bo‘lish. Mijozlarning istaklarini e’tiborga olish, sifatli mol yoki sifatli xizmat taqdim etish va o‘z mijozlariga astoydil xizmat qilish lozim.

Do‘stona munosabat. Erishilgan hamkorlikni do‘stona munosabatda olib borish. Doim ishonchni oqlash, hamkor oldida e’tiborda qolishga harakat qilish.

O‘quv kurslarida qatnashish. Olib borayotgan faoliyatga ko‘ra muammolar mavjud bo‘lgan sohalar bo‘yicha o‘quv kurslarini tinglash.

Kitoblar mutolaa qilish. Bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish zarurati bo‘lganda muammolar bo‘yicha kitoblarni tanlash. Faoliyatga oid o‘quv qo‘llanmalardan doimiy foydalanish.

Hamma erkaklar va ayollar ham o‘z ishlarini boshlay ololmaydilar. Bunga qat’iy ishonch bo‘lmasa, balki muqobil variantlar to‘g‘risida o‘ylab ko‘rish kerak bo‘ladi. O‘z ishini boshlashdan oldin kerakli bo‘lgan axborotni yig‘ish va reja tuzish lozim. Bularni amalga oshirishdan maqsad biznes daromadli bo‘lishi yoki bo‘lmasligi va bu ish tavakkal qilishga arziydimi-yo‘qmi aniqlashdir. CHuqur o‘ylab ko‘rmasdan rejalashtirish va ishni ochishga puxta tayyorgarlik ko‘rmaslik ish boshlayotgan biznesmenlar orasidagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sababidir. Boshlanadigan har qanday ishni texnik iqtisodiy asoslash lozim. Tadbirkor tomonidan tanlangan g‘oyalarni va ish yuzasidan yig‘ilgan ma’lumotlarning birlashtirilishiga texnik-iqtisodiy asoslash deb aytildi. Texnik-iqtisodiy asoslash (biznes rejalashtirish) quyidagilar bo‘yicha yordam beradi:

- o‘z ishini boshlash yoki boshlamaslik to‘g‘risida bir **qarorga kelish**;
- o‘z ishini yaxshi boshlash va davom ettirish uchun g‘oyalarni **tashkil etish, amalgा tatbiq etish**;
- ishning g‘oyasini moliyaviy yordam berayotgan muassasaga taqdim etish imkoniyatini beradi. Masalan, grantda ishtirok etish yoki kredit olish uchun bankka **g‘oya taqdim etish**.

Adabiyotlar:

1. Mardonova A.T. Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. // Iqtisodiyot va ta’lim jurnali.7-son// -T.: -2018.
2. Mamadaliev A.A. Iqtisodiyotni boshqarishda inson omilini faollash-tirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan foydalanishni takomillashtirish. (PhD) diss. avtoref. -T.: 2017. – B.28.
3. Maxmudov E. X. “Korxona iqtisodiyoti”.- T; TDIU, 2023. 247-bet.

TIL BIRLIKHLARI VA NUTQ BIRLIKHLARI

To‘xtayeva Muhayyo Shavkatovna
*Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 14-maktab ona tili va
adabiyot fani o‘qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12802654>

Annotation: this article reflects information on language units and speech units.

Keywords: perceptive function, nominative function, signifier, morphemes (i.e. stem and some affixes), dictionary sostavi, grammatical rules, phonetic possibilities.

Annotatsiya: Ushbu maqolada til birliklari va nutq birliklari borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: perceptiv funksiya, nominativ funksiya, signifikativ, Morfemalar (ya’ni o’zak va ayrim affikslar), lug’at sostavi, grammatik qoidalar, fonetik imkoniyatlar.

Kirish (Introduction)

Ma'lumki, til o‘ziga xos strukturaga ega bo’lgan sistemadir. Til bir-birining mavjudligini talab qiladigan, bir-biridan ajralmas holda bo’lgan ikki element (yoki birlik) dan tashkil topgan . Bular: a) leksika, ya’ni lug’at sostavi; b) grammatika. Ularning har biri nutq tovushlaridan iborat bo’lgan materiyaga ega.

Lug’at sostavi shu tilda mavjud bo’lgan barcha faol va nofaol so‘zlar yig’indisidan iborat.

So’z jamoa a’zolari tomonidan bir xil nalaffuz qilinib, bir hilda idrok qilinadigan hamda biron predmet (hodisani) bildiradigan yo ular haqidagi tushunchalarini esga soladigan bitta tovush yoki bir necha tovush birikmasi sifatida shakllangan ishoradir.

Ayrim olingan so’zda uch narsani ajratib talil qilish kerak: 1) tovush tomonini, 2) atamatlik xususiyatini, 3) tushuncha ifodalash xususiyatini.

Tilshinoslikda mana shu uch xil xususiyat asosida ayrim olingan so’zning uch xil funksiyasi haqida gapiriladi. Bular 1) perceptiv funksiya, 2) nominativ funksiya, 3)signifikativ (yoki semasiologik)funksiya.

So’zning har uch tomoni –tovush orqali idrok qilinish (ya’ni perceptiv) xususiyati, atama bo’lish (nominativ) xususiyati va tushuncha ifodalash (ya’ni signifikativ) xususiyati o’zaro bog’langan bo’lib, bu zanjirning o’rta halqasini nominativ funksiya uchun xizmat qiladigan “ichki forma” tashkil qiladi.

So’zning tovush tomoni. So’z, hammadan burun, tovushdan iborat bolgan signaldir. U nutq tovushlari sifatida sezgi organlaridan biri bo’lgan eshitish organiga (yozuvda esa yozuv belgilar orqali ko’rish organiga) ta’sir qiladi. So’zning mana shu xususiyati uni moddiy narsa qilib qo’yadi. Demak, so’zning moddiyligi nutqda real (ya’ni aytilgan) tovush materiyasidan iboratligidir.

So’zning moddiy tomoni haqidagi bu xulosada, so’zsiz, nutqdagi so’z, ya’ni so’zning grammatik formasi (glossema) ko’zda tutiladi.Bu yerda til birligi bo’lgan psixofiziologik butunlik, ya’ni kishining xotirasida mavjud bo’lgan tovush obrazi emas, u obraz uchun asos bo’lgan real birlik haqida gap boradi. Buning sababi shuki, so’zning ongdagi psixofiziologik obrazi aslida real fonetik birliklar asosidagina yuzaga keladi.Demak, asosiy narsa xotiradagi obraz emas, nutqdagi signal (ishora) dir.Shuning uchun gap ayrim olingan so’z haqida borganida ham u real hodisa deb tasavvur qilinadi va shu jihatdan baholanadi. Shunday qilib, so’zning moddiy tomoni so’zning tashqi qiyofasini, soddalashtirib aytganda, tovush qobig’ini tahkil qiladi. Tovush qobig’i so’zning sezgi

organlari orqali idrok qilinishiga aloqador bo'lib, u ma'lum narsa, hodisa bilan bog'langandagina ijtimoiy ahamiyatga egadir. Nutq tovushlari birinchi navbatda so'z va morfemalarning tashqi, fonetik obrazi sifatida kishining xotirasida saqlanadi. Masalan, kitob, -lar, -ga kabi elementlar allaqanday mavhum narsa holatiga emas, shu fonetik qiyofalari bilan eslanadi. Ikkinci tomondan esa, so'z va morfemalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan tovushlar o'z o'xshashliklari va noo'xshashliklari asosida ayrim tiplarga birlashib, ana shu tovush tiplari obrazi xotirada turadi. Bu tovush tiplari fonemalardir.

Nutq tovushlari ayrim holda tasavvur qilinganida fonema sifatida xotirada saqlanadi. Har bir tilning o'z fonemalari sistemasi bor. Bularidan tashqari, tilning tovush tomoniga doir hodisalardan uchinchisi intonatsiyadir.

Intonatsiya nutq tovushlarini ifoda maqsadiga ko'ra talaffuz qilishdan tug'iladi. Biroq tushni qaysi xususiyatini (toni, kuchi,sur'ati va boshqalar) qay tarzda va qachon o'zgartirish lozimligi nutq tovushlaridan foydalanish qoidalari orqali belgilanadi. Bu qoidalari esa xotirada bo'ladi.

Shunday qilib, tilning tovush tomoni tubandagi uch narsa sifatida xotirada saqlab qolinadi va kerak paytda nutq jarayonida ulardan foydalaniladi:

- a) so'z va morfemalarning fonetik qobig'i yoki sur'ati sifatida;
- b) ayrim fonema, ya'ni bir-biriga juda yaqin bo'lgan real tovushlarning yagona tovush obrazi sifatida;
- c) tovushlardan foydalanish qoidalari sifatida.

So'zning atama bo'lishi. So'zning borliqdagi biron narsani bildirishi nima? Bu so'zning nimaningdir atamasi, nomi bo'lishidur. Nomlar bo'g'indan bo'g'inga o'tadi: bolalar narsalarning nomlarini kattalardan o'rganadilar, o'z hayotlarida yangilarini yaratadilar.

O'tmishda ko'pgina mashhur olimlar so'z deganda uning faqat tovush tomonini tushunganliklari uchun, so'z bilan u nom bo'lgan predmet orasida uzbiy boglanish bor deb o'yaganlar.

Notanish (ya'ni yangi) predmetga duch kelinganida dastlab u tanish predmetlar bilan qiyoslanadi va shu asosda yangi predmetning biron muhim belgisi (xususiyati) ajratiladi. Ana shu muhim belgi (xususiyat) nom berish uchun asos bo'lib qoladi.

Nomdan anglashiladigan muhim belgi bilan umuman so'z ifodalaydigan tushuncha orasidagi munosabat masalasi alohida izohlanishi lozim.

V.fon Gumboldt va uning izdoshlari ta'limotidagi "ichki forma", A.A.Potebnya ta'limotidagi ishora ham Feyerbax tomonidan aytilib, nom qo'yish chog'ida ajratiladigan belgi ham xuddi mana shu "ichki forma" yoki "ichki obraz" dir.

Predmetning u yoki bu belgisini nom qo'yish uchun dastlabki obraz sifatida tanlash o'sha predmetga qaysi xalqning qanday yondashishiga bog'liq bo'lgani uchun, "ichki forma" turli tillarda goh mushtarak, goh farqli bo'ladi. Ba'zan esa bir tilning o'zida ham shevalararo atama asosida yotgan belgi har xildir.

So'zning tushuncha ifodalashi. Tushuncha predmetlarni, hodisalarni muhim belgilari asosida boshqa barcha predmet yoki hodisalardan ajratadigan fikr formasidir. U predmet va uning xususiyatlari orasidagi ma'lum bog'lanishlarni ongda aks ettiradi.

Kishining fikrlashi tushunchalarning harakati orqali yuzaga keladi. Tushunchalarning harakati esa so'zlar orqali vujudga keladi. So'zlar orqali predmetlar bir-birlariga qiyos qilinadi va shu yo'l bilan ularning umumiy va xususiy belgilari ajratiladi.

Til birliklaridan eng muhimi bo'lgan soz nutq jarayonidagina moddiy, real narsa. Ammo nutqqacha va nutqdan so'ng u xotirada saqlanadigan psixik faktordir. Til birligi bo'lgan so'z bir tarzda va bir butun holidagina emas, shu bilan birga, o'zining tarkibiy

qismlari, ya’ni morfemalari tarzida ham xotirada saqlanadi. Demak, kishining xotirasida so’z bir necha bosqichli, ya’ni ayrim qismlari shaklida hamda bir butunlik shaklida bo’ladi. So’zning bunday murakkab va tarkibiy elementlar shaklida esda turishi morfemalarning (shu jumladan affikslarning ham) ayrim butunlik sifatida tasavvur qilinishini ko’rsatadi.

So’zlarning xotirada saqlanishi shu bilangina chegaralanmaydi. So’z o’z morfemalari bilan birgalikdagina emas, o’zi boshqa yirik butunlikning ichiga kirib qolishi ham mumkin. Masalan, ayrim so’zlar nutqda birikib, erkin birikma yoki gap hosil qilgan holda qo’llanaverib, bir qolipga kirib qoladi.

Bunday doimo bir xilda qo’llanadigan bo’lib qolgan birikma yoki gaplar turg’un iboralar yoki frazeologiyaga aylanadi.

Frazeologiya esa so’z va uning morfemalari kabi kishilarning xotirasida bir qolipda saqlanadi, avloddan- avlodga o’tadi va tayyor holda nutqda qo’llanadi.

Tilning lug’at sostavi va fonemalar sistemasi uning jismi, tanasi bo’lsa, grammatic va intonatsion qoidalar joni, hayot bag’ishlovchi tushunchalardir. Grammatika nutq uchun qolip, modeldir.

Grammatik qoidalar har qanday boshqa hodisalar singari bir qancha muhim xususiyatlarni o’zida mujassamlantiradi. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Tabiat jihatdan qaraganda grammatic qoidalar a) ob’ektiv ravishda mavjud bo’lgan qonuniyatlarni ifodalashi mumkin, b) ayrim kishilar (olimlar) tomonidan yaratilgan tavsiyalar, ya’ni sub’ektiv qoidalar majmuasi bo’lishi mumkin.

2. Grammatic qoidalar mazmunan mantiqiy umumiylig bilan xususiylik (juz’iylik) va izchillik prinsiplariga asoslanadi. Unda yirik hodisalarni ifodalovchi umumiyl xarkterdagi qoidalar bo’lishi bilan birga, umumiylig ichiga kiradigan, xususiy (juz’iy) qoidalar ham bo’ladi. Aytaylik, so’zlarning grammatic turkumlarga – kategoriyalarga ajralishi umumiyl qida, ammo har bir turkumning o’ziga xos xususiyatlarini ifodalaydigan grammatic kategoriyalar xususiy qoidalar bo’ladi. Masalan, ot, sifat, son kabilar umumiyl kategoriya, ammo son, egalik, kelishik kategoriyalari xususiy kategoriyalardir.

3. Nihoyat, qoidalar tarixiylik xususiyatiga ham ega. Tilda mavjud qoidalarning ba’zilari hozirgi holatni aks ettirsa, ba’zilari tilning o’tmishiga taalluqlidir. Shu jihatdan grammatic qoidalar zamonaviy va tarixiy-an’anaviy bo’lishi mumkin. Masalan, ingliz va fransuz adabiy tilining orfografiya qoidalari tarixiy-an’anaviy xarakterda.

Shunday qilib, tubandagilar til elementi va til hodisasiga kiradi.

1. Ayrim olingen so’larning jami, ya’ni umumiyl lug’at sostavi
2. Morfemalar (ya’ni o’zak va ayrim affikslar)
3. So’zlarning turg’un birikmalari, murakkab terminlar, frazeologik iboralar.
4. Tilning fonemalar sistemasi.
5. Mavjud grammatic qoidalar.

Nutqda til birikmalarining (lug’at sostavi, grammatic qoidalar, fonetik imkoniyatlarning) ma’lum qismidangina fikr ifodalash maqsadida foydalaniildi. Nutqning yaratilishi, ya’ni kishilarning gaplashishi til elementlaridan ma’lum qismining reallashishidan iborat.

G.Shteyntalning ta’rificha, nutq “Tilning hozirgi pytda yuz berayotgan yoki hozirgi paytda yuz berayotibdi deb fikr qilinayotgan ko’rinishidir”. Demak, nutq aytolib turgan narsa bo’lishi ham, ilgari aytilgan yoki endi aytilmogchi bo’lgan narsa bo’lishi ham mumkin.

Ko’rinadiki, material jihatdan nutq ikki xil bo’ladi: a) real tovush materiyasining o’zi bilan shakllangan nutq (yozuv ham shuning ifodasi); b)real tovushlarning ongdagi obrazi bilan shakllangan nutq.

Oldingisini tashqi nutq, keyingisini ichki nutq ham deydilar.

Tashqi nutq chog'ida real tovushlarning psixik obrazi ham ongda mavjud bo'ladi, albatta. Ular ayni bir momentda yuzaga kelgani uchun, psixik obraz real tovush kompleksi soyasida qolib ketadi. Tovush biron sabab bilan chiqmay qolganida ham nutq organlarida harakat bo'ladi, ba'zan, aksincha, tovushsiz nutq beixtiyor tovushli nutqqa aylanib ketadi.

Demak, tashqi va ichki nutqlar o'zaro zich bog'langan, biri ikkinchisiga o'tib turishi mumkin bo'lgan hodisadir.

Nutq birligi sifatida so'z o'zining biron grammatik formasida bo'ladi. So'z, bir tomonidan, til birligi sifatida, ikkinchi tomonidan, nutq birligi sifatida ajratilgani uchun, bu ikki xil birlik ikki boshqa atama bilan ifodalanishi lozim. Rus tilshunosligida so'nggi vaqtarda til elementi bo'lgan so'z leksema atamasi bilan, nutq elementi bolgan so'z slovo- forma, glossa, glossema atamalari bilan ajratilyapti.

Demak, tilshunoslikda hozirgacha qo'llanib kelgan so'z atamasi ham leksemani, ham so'z formasini ifodalaydi. Ilmiy tahlil uchun esa ularni ajratib qo'llash talab qilinadi.

Har bir konkret olingan glossema nutq jarayonida konkret negiz va ma'lum vazifa bajaruvchi affikslardan yasaladi.

Glossemalar birikib, so'z birikmalaini hosil qiladi. So'z birikmalari grammatik jihatdan erkin bo'lganda, ya'ni iboraga aylanmaganda, nutq hodisasi hisoblanadi. Chunki ular ham glossemalar kabi nutqdan tashqarida, xotirada saqlanmaydi-nutq chog'ida tuziladi va keyin tarqalib ketadi.

Glossemalar va so'zlarning erkin birikmalari yordamida gap tuziladi. Gaplar ham nutq birligidir. Aslini olganda, nutq gap mavjud bo'lgani uchungina mavjuddir. Gap nutqning eng kichik birligidir. Ammo bunda konkret gaplarni ko'zda tutish kerak. Ya'ni ma'lum so'zlar va qoidalar yordamida tuzilgan gaplargina nutq birligidir. Umuman, gap tuzish qolipi nutq birligiga kirmaydi.

Yuqoridagilardan ko'rindaniki, nutqning struktura elementlariga so'zning grammatik formalari, ularning negizlari, erkin so'z birikmalari, murakkab fe'llar va murakkab sonlar, konkret gaplar va konkret nutq tovushlari kiradi.

Til bilan nutqni qiyoslaganda ularni quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bir-biridan ajratib turadi:

Til aloqa materiali-nutq esa aloqa formasidir.

Tilni xalq yaratadi-nutqni esa har bir shaxs yaratadi.

Tilning hayoti uzoq, xalq hayoti bilan bog'liq-nutqning hayoti qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud.

Ayrim shaxsning ayni zamonda bir necha tili bo'lishi mumkin; chunki u vaqt va o'rinn bilan bevosita bog'lanmagan-ayrim shaxsning nutqi ayni zamonda faqat bitta bo'ladi; chunki u ma'lum vaqtida va ma'lum o'rinda yuz beradi.

Tilning hajmi noaniq-nutqning hajmi aniq: u diolog, monolog, ayrim matn, kitob formalarida bo'lishi mumkin.

Til turg'un, statik hodisa –nutq harakatda bo'luvchi, dinamik hodisa.

Shunday qilib, tilshunos lingvistik hodisalarga baho berishda mana shu til va nutq munosabatini har doim hisobga olishi lozim, shundagina u hodisaga to'g'ri yondoshadi.

Adabiyotlar:

1. Yusupova D. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). O'quv qo'llanma. – T.: Akademnashr, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 51-son, 514-modda; 2010-y., 37-son, 313-modda
3. Qilichev B., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
4. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.

**CHAQIRIQQA QADAR BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING MAQSADI,
VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI**

Umarov Ismoiljon Olimjonovich
Fag‘ona davlat unversiteti harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13825979>

Annotation. In this article, The objective objectives of military education, up to the call, in the training of Reserve and Reserve Officers, are to prove that disciplining our youth in the spirit of patriotism is the only science that can train Vaus to overcome the difficulties they may face in the process of military service.

Keywords: preliminary preparation until the call, Constitution, normative document, military, khimoya, Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, military training, military education, structure of the armed forces, security, state, Democratic, Republican, duty, defense.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda Chaqqacha harbiy ta’limning maqsad vazifalari, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tabiyalash vaularni harbiy xizmat jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga o‘rgata oladigan yagona fan ekanligini isbotlashdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: chaqiriqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, konstitutsiya, normativ hujjat, harbiy, ximoya, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, harbiy tayyorgarlik, harbiy ta’lim, qurolli kuchlarning tuzilish, xavfsizlik, davlat, demokratik, respublika, burch, mudofaa.

Kirish. Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Harbiy akademiyalar, qo‘shin turlari bo‘yicha harbiy o‘quv yurtlari ochilgani fikrimizga yorqin dalildir. Davlat chegaralarini o‘z qo‘shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo‘riqlanayotgani ham xalqimizning harbiy ruhini yuksaltirib turibdi. Haqiqiy mustaqil davlat shunday ishtutadi, o‘z mudofaasini o‘zgalar qo‘liga topshirib qo‘ymaydi. Xalqning umumiyligi harbiy ruhini ko‘tarishda, harbiylarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san‘at sirlarini harbiy o‘quv yurtlarida o‘qitish ham samarali omillardan hisoblanadi.

Asosiy qism. Har bir chaqiriqa bo‘lgan yoshni tarbiyalar ekanmiz avvalambor biz ushbu yoshlarning siyosiy ongini boyitib borishimiz kerak bo‘ladi. Bu borada biz davlatimiz tarafidan chiqarilayotgan qonun va qoidalarga asoslanamiz. O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonun va qoidalari mavjud bo‘lib, ushbu qonun qoidalarga asosan me’yoriy hujjatlar yuritilmoqda. Masalan bulardan: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Umumiyligi harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonun, O‘zbekiston Respublikasining mudofaa tug‘risidagi qonuni va O‘zbekiston respublikasi Qurolli kuchlari nizom va qonunlarini asoslar sifatida olsak bo‘ladi. Bulardan tashqari

yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tabiyalashda umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitilishi asosiy omillardan sanaladi. Mudofaa Vazirligining oliy harbiy o'quv yurtlariga kirib ta'lim olish va Qurolli Kuchlarimizning barcha harbiy xizmat turlarida harbiy xizmatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlarimiz umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik jarayonida kerakli ta'lim-tarbiyani oladilar va o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bunday ta'lim - tarbiya jarayonini umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi bilan harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari hamkorlikda amalga oshirishlari shart. Shunday ekan o'z-o'zidan bunday dolzarb vazifalarni bajarishda pedagogika universiteti qoshidagi harbiy fakultetlar jamoasining harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha o'z majburiyatlari va vazifalarini sifatli bajarishlari alohida e'tiborga molikdir. Bu borada ayniqsa chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil qilish va uning metodikasi fanini o'qitilishida, Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar strategiyasini tub mohiyatini chuqur anglagan holda, eng zamonaviy o'qitish uslublaridan va ta'lim texnika vositalarini eng so'ngi ishlab chiqilgan rusumlaridan foydalanish, shuningdek, tez o'zgarib borayotgan zamonamizning yangi-yangi talablarini nazardan chetda qoldirmasligimiz shart bo'ladi. Chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil qilish va uning metodikasi talabalarning maxsus harbiy tayyorgarligining asosiylaridan biri hisoblanadi. Bu fan «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani» metodikasining tarkibiy qismi sifatida davlat imtihoniga kiritiladi. Maxsus fanlarni o'qitishdan asosiy maqsad- talabalarda harbiy-pedagogik tayyorgarlikni yuksaltirish va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha mashg'ulotlarini o'tkazishda amaliy ko'nikmalar hosil bo'lishiga qaratiladi. Mazkur fanni o'rganish O'zbekiston Respublikasining «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonun talablarini, O'zbekiston Respublikasining yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha nizomini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining buyruqlari va direktivalarini, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil qilish va olib borish, o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash bo'yicha masalalarni, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi (chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani) bo'yicha o'quv jarayonini rejalshtirish tamoyillarini, ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani dasturining barcha bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va olib borishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamonaviy o'quv texnika vositalaridan foydalana bilishni, ta'lim muassasasi direktori va Chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisining majburiyatlarini, hamkorlikda bo'lgan tashkilotlar bilan aloqa shakillarini, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha o'quv - moddiy bazaga qo'yiladigan talablarni bilishlari va ularni amalda qo'llay olishlari uchun yetarli ilm-malaka va ko'nikmalar berishdan iborat.

Talabalar ta'lim olayotgan paytlarida o'zlarida harbiy rahbarning yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash masalalari bo'yicha majburiyatlarini bajarishida zarur bo'lgan siyosiy, ahloqiy, ruhiy tayyorgarliklarini yuqori

bo‘lishini va Vatan himoyachisi sifatlarini mujssamlashtirishlari shart. Hozirgi kunda Qurolli kuchlarimiz tarkibidagi harbiy qism va bo‘limmalarni puxta bilimga ega bo‘lgan shaxsiy tarkib bilan to‘ldirish, uning siyosiy, manaviy, axloqiy ruxiy vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor berish muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shaxsiy tarkibning yuqoridaq qayd etilgan sifat va fazilatlarini shakllantirishni, tarbiyalashni faqat harbiy kadrlar tayyorlash bilim yurtlari, qism komandirlari va harbiy boshliqlarning vazifasi deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ma’lumki armiya safida o‘z bo‘ysunuvchilarining faoliyatlariga komandir va boshliqlar ma’suldirlar. Lekin sifat va fazilatlarni shakllantirishga kelganda armiya safigacha bo‘lgan ta’lim tarbiya o‘rnining ahamiyati katta.

Ayniqsa umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va o‘rta kasb-hunar ta’limi muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik fanini sifatlari va samarali o‘qitilishini ahamiyati bu borada muhim. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek «Yosh avlodni el-yurtga, vatanga sadoqatli, iymon-e’tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali, ma’naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta’lim o‘chog‘larining alohida o‘rni bor». Ta’lim o‘chog‘laridan umumta’lim maktablarida, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim muassasalarida «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik»ni o‘qitilishi haqida O‘zbekiston Respublikasining «yumumiyligi harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonunning 13-moddasida quyidagicha yozilgan: «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, shu jumladan fuqaro mudofaasi bo‘yicha tayyorgarlik o‘quv dasturidagi majburiy fan bo‘lib, umumta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik fani o‘qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o‘tiladi». Bundan tashqari ushbu ustuvor vazifalar O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonunlarida va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining buyruq va talablarida ham o‘z ifodasini topgan. Ko‘rinib turibdiki 1999 yil yanvaridan e’tiboran Qurolli kuchlarda boshlangan harbiy islohotlar strategiyasining nazarda tutgan, mamlakatimiz tinch, osoyishtaligini ishonchli va samarali ximoya qilishga qodir tezkor, yaxshi ta’minlangan qurolli kuchlarni tuzish maqsadini amalga oshirish faqat oliy harbiy o‘quv muassasalarining vazifasi deb o‘ylash, masalaga faqat bir tomonlama qarashdir. Bu borada chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ushbu maqoladan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maqolada Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining maqsad va vazifasi to‘g‘risida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Maqolaning kirish qismida Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlar berib o‘tish bilan birgalikda, harbiy akademiyalar, qo‘sish turlari bo‘yicha harbiy o‘quv yurtlari ochilganligi to‘g‘risida ham ma’lumotlar berilganligi fikrimizga yorqin dalildir. Davlat chegaralarining o‘z qo‘sishlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo‘riqlanayotgani ham xalqimizning harbiy ruhini yuksaltirib turibdi. Haqiqiy mustaqil davlat shunday ishtutadi, o‘z mudofaasini o‘zgalar qo‘liga topshirib qo‘ymaydi. Xalqning umumiyligi harbiy ruhini ko‘tarishda, harbiylarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san’at sirlarini harbiy o‘quv yurtlarida o‘qitish ham samarali omillardan hisoblanadi.

Foydalaniłgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi 406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 12-dekabrdagi PQ-436-IIsonli "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Farmoni;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-uil 12-sentabrdagi RQ-4447-sonli "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi Farmoni;
5. Umarov, I. O. (2021). HARBIY TAYYORGARLIK O 'QUV MARKAZIDA REZERVDAGI VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH:AN'ANALARI, INNOVATSIYALARI, ISTIQBOLLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 939- 944.
6. Olimjonovich, U. I., Mirhokimovich, T. A., & Ibragimovich, A. I. (2022). QOMUSIMIZ-ERKIN VA FAROVON HAYOTIMIZ KAFOLATI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 244-253.
7. Olimjonovich, U. I., Rahmatali o'g'li, E. S., Nurali o'g, J. R. S., Ikromjon o'g'li, I. S., & Ahrorjon o'g'li, K. A. (2022). HARBIY BILIM YURTLARIDA HARBIY PSIXOLOGIYA FANINING O'RGATISH AFZALLIKLARI VA AHAMIYATI. Scientific Impulse, 1(4), 415-419.
8. Umarov I. O., Abduraximov I. ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 15-18.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЬЕ

1.	Худайкулов Амир Меликулович БУХГАЛТЕРИЯ ХОДИМЛАРИНИНГ ХУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ	5
2.	Қўшаев Тўхтасин Абдиқодирович ЎЗБЕКИСТОНДА БАНК ТИЗИМИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ	10
3.	Turdiyeva Madina Abdullayevna “MODERN TEACHING METHODS”	14
4.	Raxmonova Dilrabo Qodiraliyevna FIZIKA FANINI O'QITISHDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI	17
5.	Turdiyev Rasuljon Usmonovich “TEACHING WRITING IN JUNIOR CLASSES”	21
6.	Djamalova Diyora Nabijonovna INFORMATIKA FANINI O'QITISHNI TASHKILLASHDAGI DIDAKTIK PRINTSIPLAR VA USULLAR	24
7.	Исмоилов Шапахат Содикович МАМЛАКАТЛАРНИНГ ХМТ ДА ҚАТНАШИШЛАРИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ	27
8.	Maxsudova Gulnoza Erkinjonovna SO'Z BIRIKMASINI O'QITISH	30
9.	Yusupova Gulmira Zafarovna QADIMGI YUNONISTONDA DIDAKTIKA, PEDAGOGIKA, METODOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI	34
10.	Hasanova Dildora Ikromovna MAKTABLARDA ICHI BO'SH SO'ZLARNI O'QITISH	38
11.	Jo'raboyeva Madina Rustambek qizi ALISHER NAVOIYNI O'QITISH – ASOSIY VAZIFAMIZ	42
12.	Sharorbitdinova Dilfuza Madaminovna, Dostonova Nodiraxon Muxtorjon qizi, Toshxodjayeva Nigora Odiljon qizi MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA METOD VA O'YINLAR	45
13.	Qurbanova Nurixon A'zamjon qizi, Xakimova Gulchehra Abdulla qizi FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR	49
14.	Xakimova Gulchehra Abdulla qizi FIZIKA FANINI O'QITISHDA METODOLOGIK YONDASHUV	53
15.	Ахмаджонова Садоқатхон Шокировна, Ибрагимов Сардор Ахорович ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИЛФОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ ЎРНИ	56
16.	Alloberanova Z.B., Matyakubova Yu.A., Bekchanova M.X BUG'DOY NAVLARIDA HOSILDORLIKNI TA'MINLOVCHI KOMPONENTLAR (XORAZM SHAROITI MISOLIDA)	59
17.	Xudaykulov Amir MOLIYAVIY HISOBOTNING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARIGA MUVOFIQ MUALLIFLIK HUQUQINI HISOBDA AKS ETTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	63
18.	Исмоилов Шапахат Содикович ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ИНВЕСТИЦИЯ ФАОЛИЯТИНИНГ МАҶСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ	68
19.	Қўшаев Тўхтасин Абдиқодирович	72

**МОНОПОЛ ФАОЛИЯТ ҚОНУН БИЛАН ТАРТИБГА СОЛИНИШИ ВА
ЧЕКЛАНИШИ**

20.	Maxsudova Gulnoza Erkinjonovna ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI INNOVASIYON YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI	80
21.	Tuxtasinova Gulnoza Ro'zmatovna ADABIY NUTQ VA UNING USLUBLARI	85
22.	Xaydarova Moxinur Avazbek qizi FIZIKA FANIDA MEXANIKA	91
23.	Najmuddinova Oqilaxon Baxtiyor qizi KOMPYUTER GRAFIKASI PHOTOSHOP	94
24.	Ergasheva Dilafruz G'ulomjonovna INGLIZ TILI LEKSIKANI O'RGATISHDA LEKSIKANING ROLI	98
25.	Xursanaliyeva Zilola Ismoiljon qizi INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'RGATISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	105
26.	To'ychiyeva Kamola Furqatovna KORXONALAR MOHIYATI VA FAOLIYATNING ASOSI	110
27.	Kimsanova Dilnoza Raxmonjonovna KICHIK TADBIRKORLIKNING TASHKILIY VA IJTIMOIY JIHATLARI	116
28.	To'xtayeva Muhayyo Shavkatovna TIL BIRLIKHLARI VA NUTQ BIRLIKHLARI	119
29.	Umarov Ismoiljon Olimjonovich CHAQIRIQQA QADAR BOSHLANG'ICH TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI	123

Note!!! The numbers in the articles included in the journal "Innovation Science and Research" indicate that the information is correct and that the authors are personally responsible for the content of the article.

**International Scientific Journal
Innovation Science and Research
Volume 2 Issue 3**

LLC “Innovation Science and Research”

License №:083239 23.05.2023

Address: Uzbekistan, Tashkent city, Almazar District, Beshkurgan-3 1/84

Sciencejournal.uz, https://t.me/sciencejournals_uz